

**MINISTRY OF THE HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

On the right of manuscript

UDK

MIRZAKHMADOV ULUGBEK ALISHEROVICH

**SEMANTICS AND STRUCTURE OF THE SOMATIC LEXICON IN THE
ENGLISH RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES**

5A120102 Linguistics (the English language)

DISSERTATION

for academic Master's degree

The work has been discussed
and recommended for defense,

The Head of the Lexicology Department
PhD., Prof. Matnazarov Jumanazar

Scientific advisor:

D.S., Prof. Dzhusupov N.M

“ ” _____ 2016 y.

Tashkent – 2016

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

Mirzahmadov Ulug'bek Alisherovich

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING MAVZUSI VA TUZILISHI

INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA

SOMATIK LEKSIKANING SEMANTIKASI VA TUZILISHI

Ilmiy Rahbar: filologiya fanlari doktori, professor Dzhusupov M.

Kirish.....1

I Bob. Leksikologiya – umumiy va qiyosiy tilshunoslikning ob'yekti....10

1.1 Leksikologiya: kontseptsionalari tushunchalari, til lug'at tarkibining tasniflash turlari.....10

1.2 Til lug'at tarkibining tadqiqoti – umumiy va qiyosiy tilshunoslikning aspekti.....22

Hulosa.....33

II Bob. Somatik leksika – leksikologiya va til lug'at tarkibining aspekti.....36

2.1 Ingliz tili somatik leksikasining semantikasi va tuzulishi.....36

2.2 O'zbek tili somatik leksikasining semantikasi va tuzulishi.....41

2.3 Rus tili somatik leksikasining semantikasi va tuzulishi.....48

Hulosa.....70

III Bob. Ingliz, o'zbek va rus tillari somatik leksikasining chog'ishtirma tahlili.....72

3.1 Chog'ishtirma lingvistika: tushunchalar, yo'nalishlar, tadqiqot prinsiplari.....72

3.2 Ingliz, o'zbek va rus tillari somatik leksikasi semantikasi va tuzulishidagi o'xshash jihatlar va farqlar.....76

HULOSA.....85

Umumiy Hulosa.....87

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....90

Kirish.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zbek modeli asosida demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda mamlakat aholisining 64,0 foizini tashkil qilgan [Karimov. 2008.: 163] yoshlarga nisbatan g'amxo'rlik va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan yuksak bilimli hamda intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalash vazifasi muhim ustuvor yo'nalishlar qatoriga qo'yib kelinayotgan ekan, aynan, 1997 yilda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni demokratik qadriyatlar ruhida, har tomonlama etuk va barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan. Mazkur maqsad yo'lida olib borilgan ta'lim sohasidagi islohotlar tufayli "...yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda" [Karimov. 2012].

2012 yilning 10 dekabrda esa zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror respublikamizda ta'lim sohasidagi islohotlarning, yoshlarga berilayotgan e'tiborning izchil davomi bo'ldi.

CHet tillarni o'rganish ta'lim tizimining g'oyat muhim tarkibiy qismi bo'lib, mazkur qaror zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish,

yosh avlodga chet tillarni o'qitish, chet tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi. Zero, qaror bilan ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni o'rganishni kengaytirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi [Qonunini](#) hamda Kadrlar tayyorlash [milliy dasturini](#) amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi (hozirgi vaqtda yurtimiz maktablarida 26344 nafar chet tillar o'qituvchisi mehnat qilmoqda)[Ziyodinov. 2014.: 3], umumta'lim maktablarining 5 - 9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi[Xalq so'zi 11.12.2012. 2405660)-son]

SHuningdek, chet tillarni o'rganish samaradorligini oshirish maqsadida mamlakatimizdagi 9739 ta maktabning 17200 ta boshlang'ich sinfida chet tillar xonalari tashkil etilgan, ularning qariyb barchasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda.

Mazkur qaror asosida mamlakatimizda chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Zero, yoshlarning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lishlari, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishlari uchun ko'p o'qib, izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. SHu boisdan ham, bugungi kunda yoshlarning eng asosiy vazifasi o'qish –izlanish va aniq maqsadni ko'zlab astoydil intilishlari kerak. Bu jarayonda ayniqsa, ularning xorijiy tillarni mukammal bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

CHet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiq umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun chet tillari yuqori malakali o'qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida 2013 yil 23 maydagi "O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1971-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida hozirda universitet jahon andozalariga mos ravishda qaytadan bunyod etildi. Bu esa bugungi kunda yoshlarga e'tibor davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligidan dalolatdir. Zero, yoshlar yurtboshimiz iborasi bilan aytganda ertangi kunimizning hal qiluchi kuchidir.

Tillardagi frazeologiyani qiyosiy tomondan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqot aniq tillar frazeologiyalaridagi umumiy va farq qiluvchi jihatlarini aniqlash, frazeologizmlanish jarayoni mohiyatiga chuqurroq kirish va frazeologik birliklarning o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Dunyo tillari frazeologik birliklarining komponentli tarkibini kuzatish shundan dalolat beradiki, ularning ko'pchiligi somatizm hisoblanadi. Tarkibida inson va hayvon tana qismlari va organlarining nomi uchraydigan somatik frazeologizm-frazeologizmlarga murojaat quyidagi sabablarga ega: har bir tilda tuzulishi, semantik va obrazli tomondan aynan mos keladigan FB mavjud. Bu, o'z navbatida, hayotiy shart-sharoit, fikrlash, insoniy his-tuyg'u va tushunchalar, ularning asosiy vazifalarining, butun er sharidagi xalq vakillari ruhiy jarayonlarining mos kelishi bilan bog'liq.

Frazeologik birliklarlar tarkibida somatizmlarning keng qo'llanilishi (ular, A.M.Emirovaning fikricha, tilga xos haryoqlamalilik sanaladi [Emirova. 1972]va u barcha tillarga xos) sezilarli darajada somatizmlarning lug'atdagi qadimiy qatlamlardan birini o'zida aks ettirishi bilan belgilanadi. Rus, o'zbek va ingliz tillaridagi somatik frazeologizmlar yirik hajmda taqdim qilingan, bu esa bizga keng frazeologik material asosida tadqiqot olib borish imkoniyatini beradi. Mana shu bilan **mavzuning dolzarbligi** belgilanadi. Rus, o'zbek va ingliz tillaridagi FB

tahlili til tuzulishida alohida qismlar qonuniyatlari va o'zaro munosabatini namoyon etishga, tildagi hartomonlamalilikni yoritishga yo'naltirilgan. Frazeologik haryoqlamalilikni ajratish, ya'ni frazeologiya uchun umumiy tavsifni aniqlash frazeologiyani yoki alohida frazeologizmlarni o'rganish uchun muhim asos hisoblanadi. SHunday qilib, bir tomondan, qiyosiy tahlil tafakkurning umuminsoniy jihatlariga xos umumiy g'oya, qonuniyat, omillarni belgilashga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan, har qanday til frazeologiyasi faqat uning va ushbu til sohiblarining o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. SHuning uchun turli tillar frazeologik birliklarini qiyoslash til frazeologiyasining o'ziga xos jihatlarini aniqlash, unga xos ustuvor jihatlarini namoyon etish va obrazli ifodalarning milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatga egaligini yoritish imkonini beradi.

SHunday qilib, rus, o'zbek va ingliz tillaridagi somatik FBni qiyoslash o'ziga xos (xususiy) va (umumiy)holatlarni namoyon etishga yo'naltirilgan. Yuqorida qayd qilinganlar **tadqiqotning dolzarbligini** shakllantirish imkoniyatini beradi: bu o'rinda rus, o'zbek va ingliz tillaridagi somatik FB birinchi marotaba qiyosiy tomondan o'rganilmoqda, rus, o'zbek va ingliz tillaridagi somatik FBning tuzulishi, grammatik va leksik-semantik mutanosibligi bo'yicha yaqinlik darajasi namoyon etiladi.

So'z boyligiga oid majmuani obrazli qayta anglashning umumiy qonunchiligi va omillarini, jumladan, ma'lum frazeologik ma'nolarni shakllantirishda alohida leksik komponentlar rolini, shuningdek, qiyoslanilayotgan tillarda somatik frazeologiyalarning o'ziga xos jihatlarini belgilashga yo'naltirilgan rus, o'zbek va ingliz tillaridagi somatik FBni qiyosiy-tipologik o'rganishni olib borish orqali tadqiqotning muammosi belgilanadi.

Muammoning nazariy ishlab chiqilganlik darajasi. Frazeologlar tadqiqotining predmeti bo'lib ko'pincha somatik FB sanalgan. Ta'kidlash joizki, somatik frazeologiyalarni o'rganish uchun boy asos tayyorlangan (Dolgoplov YU.A., Vakk F., Yakimova E.S., Shirmankina R.S., Isaev A.I., Avaliani Yu.Yu. va boshqalar).Lingvistik hayotga ilk bor "somatika" termini F.Vakk tomonidan

kiritilgan, u eston tilidagi inson tanasi qismlari nomi tarkibidagi mavjud frazeologizmlarni qo‘rib chiqib ularni somatizmlar deb nomlagan. U ushbu somatizmlarni eston tili frazeologik tarkibining qo‘llaniladigan qismidagi qadimiy qatlamlardan biri hisoblanishi borasida xulosa qildi [Vakk. 1968]. F. Vakk somatik frazeologizmlarning samaradorligini inson tomonidan o‘z hayoti uchun u yoki bu organlarning qadimda zarurligini anglash darajasi bilan belgilaydi.

Somatik frazeologiyani maxsus tadqiq qilgan E.S.YAkimova “somatik frazeologizmlarni o‘rganish ko‘pgina tillar uchun umumiy bo‘lgan qonuniyatlarni namoyon etish imkonini beradi, chunki aynan somatik frazeologizmlar orasida baynalminal frazeologizmlar soni yetarlicha” deb qayd etadi [Yakimova. 1975. 25-b]

Rus tili materiallariga “somatik frazeologizm” terminini ilk bor E. M. Mordkovich “Somatik frazeologizmlarning semantik-tematik guruhlari” maqolasida qo‘llaydi, u erda ko‘pgina somatik frazeologizmlar salbiy tavsif vazifasida ishtirok etishini qayd etadi [Mordokovich. 1971].

Turli tillardagi somatik FB obrazlilikining keng darajada o‘xshashligi, birinchidan, tana qismlari vazifasining yagonaligi bilan, ularning aloqa va munosabatlaridagi bir xillik, shuningdek, imo-ishora, fiziologik sezish, hayvonlarning qiliqlari, ijtimoiy ramz kabi somatik frazeologiyalar genezisining ekstrolingvistik omillari umumiyliigi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ob’ekti: o‘z tarkibida somatik komponentlarni qamrab oluvchi frazeologik birliklar. Asosiy somatik leksemalar to‘plami rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi asosiy somatizmlar bilan cheklanadi.

Tadqiqot predmeti bo‘lib uchta qiyosiy tillardagi somatik FB hodisasi hisoblandi.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lib somatik FBni rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi tanlab olingan somatik komponentlari orqali har tomonlama qiyosiy-tipologik o‘rganish va tillararo paralellizmning mustaqil yuzaga kelishiga olib keluvchi jarayonlarni tadqiqot qilish hisoblanadi.

Ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** hal qilish zarur:

a) FB struktur-grammatik jihatlarining qiyosiy tadqiqi; b) somatik FB tematik-semantik yo'nalganligi qiyosiy tahlili; v) FB shakllanishi jarayonida lingvistik va ekstralingvistik omillar o'zaro munosabatini aniqlash.

Qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi **usullardan** foydalanilgan:

- tahliliy (tadqiqot muammosi bo'yicha adabiyotlar tahlili);
- umumlashtiruvchi (bayon: o'rganilayotgan materialni sinxron-qiyosiy parallel tasvirlash; sintez – qiyosiy-apologik usuli asosiy hisoblanadi);
- maydon tahlili usuli (tematik guruhlarini ajratish, leksikografik manbalarda alohida leksemalar, so'z birikmalari yoki batafsil tasvirlar bilan ularning aynanligi asosida frazeo-semantik guruhosti asosida FB'larni taqsimlash, ularning semantikasida integral semalarning mavjudligi);
- statistik (rus, o'zbek va ingliz tillarida somatik FB yaqinlik darajasini, ularning tez-tez qo'llanilishini aniqlash).

Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining asosiy qonunlari, qaror va farmonlarida hamda I.A.Karimovning asosiy ishlarida, shuningdek, qiyosiy tipologiya bo'yicha ilmiy ishlarda ishlab chiqilgan nizomlarda bayon qilingan hujjatlar xizmat qiladi (YArseva M.S. 1981, Djamshedov P., Shaxobov M, Balkova S. YA., Gak V.G. 1989); qiyosiy frazeologiya bo'yicha (Royzenzon L.I., Avaliani Yu.Yu. 1967, Dolgoplov YU.A. 1973, Djanilidze N.V. 1981, Rayxshteyn A.D. 1982, Arsenteva E.F. 1989, Soloduxo E.M. 1989, Mokienko V.M. 1989, Dobrovolskiy d.O. 1990, Solodub YU.P. 1997).

Tadqiqot uchun frazeologik materiallarni tanlash rus, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik lug'atlar orqali amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- rus, o'zbek va ingliz tillaridagi somatik FB qiyosiy tahlil qilinmoqda, ular hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanmoqda;

- tematik jihatdan FB taqsimoti amalga oshirilmoqda va qiyoslanayotgan tillarda alohida tomonlarining to‘yinganlik darajasi aniqlanmoqda; somatik FB yordamida ifodalanadigan asosiy mazmunli kategoriyalar belgilanmoqda;

- qiyoslanuvchi tillardagi somatik FBning tipologik umumiy va o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilmoqda; FBning struktur-grammatik va semantik mutanosibligi bo‘yicha yaqinlik darajasi aniqlanmoqda.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar (qiyosiy frazeologiyadagi rus, o‘zbek va ingliz tillari leksikologiyasi va frazeologiyasi bo‘yicha ta’limiy kurslarda foydalanish mumkin) FB ma’nolari shakllanishi jarayonida lingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro munosabati namoyon bo‘lishiga yordam beradi, kommunikativ-vazifaviy asos bo‘yicha FBning hartomonlama tasnifini yaratish imkoniyati bo‘ladi.

Amaliy ahamiyati shundan iboratki, bunda somatik FBning qiyosiy tahlili natijalari frazeologik lug‘atlarni tayyorlashda materialni tasvirlashning amaliy masalalarini hal qilish uchun qo‘llaniladi. Olingan materiallardan uch til frazeologik materiallarini tushuntirishda foydalanish mumkin. Nazariy holati rus, o‘zbek va ingliz tillari frazeologiyalari bo‘yicha maxsus kurslarga kiritilishi va ulardan tarjima amaliyotida foydalanish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari **himoyaga olib chiqishning quyidagi holatini** shakllantirish imkonini beradi:

- qiyosiy tillarda somatik frazeologiyalarning sezilarli roli borasidagi holat;
- rus, o‘zbek va ingliz tillari somatik frazeologiyalarining vazifaviy-mazmuniy, struktur-grammatik va leksik-semantik umumiyligi yuqori darajasi haqidagi holat;
- turli tillardagi shunga o‘xshash oborotlarning mustaqil yuzaga kelishining mavjudligi baynalminal frazeologik fondning yuzaga kelishini talab qiladi.

Agar rus tilshunosligidagi frazeologiya masalalari bilan bog‘liq ahamiyatli nazariy ishlanmalar, jumladan, frazeologiyaning fan sifatida shakllanishi XX sarning 40-yillari davriga taalluqli va V.V.Vinogradov nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda o‘zbek lingvistika fanidagi frazeologizm masalalarining nazariy ishlanmalar

50-60-yillardan boshlanadi (Qarang: N. Ma'sumi (1959), M. Fazilov (1963-1964), R. Gafarov (1966), X. Madjidov (1966), S.V. Xushenova (1971), I. Xasanov (1974), A. Isaev (1976), SH. Raxmatullaev (1978), B. Yuldashev (1987) va boshqalar

O'zbek tilidagi frazeologiyalar bo'yicha o'rganish uchun asos bo'lgan ishlar deb I. Qo'chqortoevaning («Badiiy nutk stilistikasi», 1975), Sh. Raxmatullaevaning («O'zbek tilining frazeologik lug'ati», 1978 va o'zbek frazeologiyasi sohasidagi ko'pgina boshqa ishlarni keltirish mumkin), A. Isaevaning («O'zbek tilining somatik frazeologizmlari», 1976), B. Yuldashevaning («Said Ahmad asarlari tili va uslubi», 1979), S. Karimovaning («Zulfiya poeziyasi tili», 1987), X. Qahhorovaning («Abdulla Qodiriy frazeologiyasi», 1985) va boshqalarni hisoblash mumkin.

Hozirgi kunda frazeologiya tadqiqotchilarini ikki va undan ortiq tillar frazeologik materiallari tahlili bilan bog'liq frazeologiyani o'rganishning qiyosiy-tipologik, struktur-tipologik jihatlari yanada ko'proq jalb qilmoqda (biz ham ushbu ishni bajarishga harakat qildik).

Ishni tasdiqlash. Ushbu tadqiqotning turli muammolarini yoritish Alisher Navoiy nomli SamDUNing filologiya fakulteti magistrlik anjumanlari ma'ruzalarida bayon qilingan. Ma'ruzalar mazmuni quyidagi maqolalar ko'rinishida nashr qilingan: “essential features of somatic idioms in english and uzbek languages”, “somatizmning frazeologiyada tutgan o'rni”, “somatizm frazeologiyasining o'rganilishiga oid ilmiy xulosalar”. **Ishning hajmi va tuzulishi.** Ishning tuzulishi tadqiqotning maqsadi va vazifalari orqali belgilanadi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Har bir bob xulosalarga ega bo'limlardan tashkil topadi. Kirishda muammo qo'yiladi, ushbu ishning dolzarbligi asoslanadi, olib boriladigan tadqiqotlar jarayonida hal qilinishi zarur bo'lgan maqsad va vazifalar belgilanadi.

I bob “Leksikologiya – umumiy va qiyosiy tilshunoslikning ob'ekti” deb nomlanadi va u ikkita bo'limdan iborat bo'lib, unda somatizmning rus tilidagi FB komponenti sifatida qoraladi, rus tilidagi somatik FBning struktur-grammatik va

semantikasi nuqtai nazaridan somatik FB tasnifi ko‘rib chiqiladi.

II bob “Somatik leksika – leksikologiya va til lug‘at tarkibining aspekti sifatida” deb nomlanadi va u uchta bo‘limdan iborat, bunda ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi somatik frazeologik birliklar o‘rganiladi, ularning tasnifi o‘tkaziladi, somatizm ma’nolarining asosiy konnotativ bo‘yoqlari ko‘rib chiqiladi.

III bob “Ingliz, o‘zbek va rus tillari somatik leksikasining qiyosiy tahlili”ga bag‘ishlanadi. Bunda ushbu tillar SFB tasnifi turli nuqtai nazardan o‘tkaziladi, statistik ma’lumotlar o‘tkaziladi, somatik frazeologizmlarning semantik tahlili amalga oshiriladi.

Xulosada natijalar ilgari suriladi va ishga xulosa yasaladi.

I BOB. LEKSIKOLOGIYA – UMUMIY VA QIYOSIY TILSHUNOSLIKNING OBYEKTI

1.1 Leksikologiya: konsepsiyalari, tushunchalari, til lug'at tarkibining tasniflash turlari

So'ngi yillarda tarkibida somatizm – insonlar va hayvonlarning tana a'zolari nomlari mavjud bo'lgan frazeologiyaga bo'lgan qiziqish ortdi. Somatizm komponentlari yohud somatik frazeologik birliklar deganda erkin yoki bog'liq komponentlari bor bo'lgan so'zlar nafaqat insonning tashqi tana a'zolarini (bosh, qo'l, oyoq va boshqalar) balki ichki a'zolarini (qon, ko'z yoshi, miya, o'pka va hokazo), asab tizimi va hokazolarni ham ifodalovchi frazeologizm tushuniladi.

Aynan ushbu frazeologizmlarning tanlanishi frazeologik tarkibda somatik frazeologik birliklarning anchayin kommunikativligi va yuqori samaradorligidir. Somatizm komponenti mavjud bo'lgan frazeologizmlar o'z o'zidan, bir – biriga bog'liq bo'lmagan holda, turli davrlarda va tillarda insonning o'z o'zini, tana a'zolarini, umumiy jismoniy hamda ruhiy harakatlarini kuzatishi natijasida paydo bo'ladi.

Somatik frazeologiya turli tillar va turli tizimlardagi tadqiqotchilar o'rtasida o'ziga hos qiziqish uyg'otdi. Tilshunoslikning bu qismi leksik frazeologizm tizimida ilg'or harakat qiladi. Ilk bor *somatika* termini fanga F. Vakk tomonidan kiritilgan va tarkibida inson tana a'zolari qatnashgan frazeologizmlarni o'rganish

natijasida u shu qarorga kelgan: somatizm frazeologik birliklari tilning qadimiy frazeologik qatlamidir [Vakk. 1964: 115].

Somatizm frazeologiyasi asosan rus tili birliklarini boshqa ko'plab dunyo tillarining frazeologizmlari bilan chog'ishtirish asosida o'rganilgan. Somatizm komponentlari bo'lgan frazeologizmlarni Yu. A. Dolgoplov (rus, ingliz, nemis tillarida), R. M. Vayntraub (slavyan tillarida), F. V. Sknar (ingliz va ukrain frazeologizmlarida) kabilar va boshqa ko'plab lingvistlar tadqiq etishgan. Ko'plab olimlar somatizmlar qadimiy va juda ahamiyatli leksik turkumga kiradi va frazeologik birliklarning yaralishida juda katta imkoniyatlarga ega.

Somatim frazeologik birliklari o'zining nisbiy barqarorligiga qaramay vaqt o'tishi bilan o'zgaradi va rivojlanadi. F. Vakk somatizm frazeologiyasining o'zgarishini uch hil yo'nalishga bo'ladi:

- arxaik va eski materialning qulashi;
- yangi frazeologizmlar yoki ularning variantlarining yaralishi;
- material yuzasida mavjud bo'lgan semantik siljishlar.

O'zgarishga frazeologik birliklarning shakli va tarkibi ham kiradi.

Bosh, burun, qo'l, yurak, quloq, til kabi frazeologik birliklar somatik frazeologiyasining 70 % ni tashkil etadi. Inson va hayvonlarning tana a'zolarini ikki hil tashqi va ichki a'zolarga bo'lish mumkin. Tashqi a'zolar (ko'z, bosh, qo'l, oyoq) ko'zga tashlanadi va ularni kuzatish mumkin. Ichki a'zolar esa yopiq holda bo'ladi va ular frazeologik birliklarning 10 % ni tashkil qiladi [Vakk. 1964: 62].

Tilshunoslar "somatizm"ni doim ham bir hilda talqin qilmaydilar. Masalan, F. Vakkning tarifi ko'ra bu termin tarkibida inson va hayvon tana a'zolarining nomlari, tanadagi suyuqliklarning nomlari (qon), hattoki tana a'zosi bo'lmasa ham tana bilan uzviy bog'langan (asab, suyak va boshqalar) jami turg'un so'zlar yig'indisidir. F. Vakk ramziy imo ishora va mimikalar natijasida hosil bo'lgan turg'un so'z birikmalarini ham somatizmga oid deb hisoblagan [Vakk. 1964: 64].

O. Nazarov somatizm frazeologiyasiga faqat inson tana az'olarining nomlarini kiritadi. Olim imo ishorali va mimikali frazeologizmlarni somatizm birliklari guruhiga kiritmaydi. Biz F. Vakkning fikrini maqullaymiz va somatizm tarkibiga nafaqat tana a'zolarini nomlovchi leksemalar balki inson va hayvon organizmi bilan bog'liq bo'lgan (suyak, teri, qon, asab, muskul va hokazo) va hayot uchun juda zarur substansiya elementlari so'zlari ham kiradi. Bunday holatda biz tarkibida inson va hayvonlarning tashqi va ichki tana a'zolarining nomlari bor somatizm komponentlari bo'lgan frazeologik birliklarni tushunamiz [Alehina. 2004: 15].

Lingvist A. Blyumning izlanishlariga ko'ra zamonaviy ingliz tilida somatik frazeologizmlar katta guruhni tashkil etadi. Somatizmda ishlatilinish darajasiga ko'ra qo'l (hand) ustundir. Keyingi o'rinlarda esa head, eye, face, arse (ass, butt),

foot, nose, finger, heart. Qolgan somatizmlar (leg, arm, back, bone, brain, ear, tooth, skin, shoulder, neck, tongue) kamroq ishlatiladi biroq ularning fraza yaratishdagi faolligi juda yuqori [Blyum. 2000: 1].

Pekler. M. A. Va Raxshteyn A.D larning ma'lumotlariga ko'ra 17 ta chastotali rus frazeologik birliklari orasidan 8 tasi leksik somatizmlardir. Bu quyidagi tartibga muvofiq: ko'z, qo'l, bosh, oyoq, til, burun, quloq, yurak, qon, yelka, og'iz, barmoq, yuz, soch, tish. [Pekler. 1967: 15, Raxshteyn. 1980: 116]. Demak, tana a'zolari va ularning nomlari turli tillarda nafaqat asl manoda qatnashadi: ular ramziy harakterga ham egadir.

Frazeologiya maxsus fan sifatida o'tgan yuz yillikning 40-yillaridan o'rganila boshlandi. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida rivojlanishida rus tilshunos akademigi V. V. Vinogradovning ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega.

Tarkibida somatizm komponentlari bo'lgan iboralar o'tmishda unchalik ham o'rganilmagan bo'lishiga qaramay doim lingvistlarda katta qiziqish uyg'otib kelgan. Ingliz leksikologiyasidagi yangi yo'nalishdagi izlanishlar bu so'zlar yig'indisidan tashkil topgan idiomalarga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Horijiy tilni o'rganishda muhim ro'l o'ynovchi bu idiomalar biron bir til sistemasining asosiy bo'g'inidir. O'zining turli harakterligi bilan, idiomalar ajralmas leksik elementlarni namoyon qiladi va chet tilida suhbat qurayotgan so'zlashuvchini o'sha tilda tabiiy va ravon gapirishida yordam beradi. Turli tillarda turlicha, strukturaviy va ma'no jihatidan idiomalar mavjudligi barchamizga ayon. Idiomalarning repertuari turli insonlarda turlicha, albatta ularning ijtimoiy va aqliy jihatlarini hisobga olsak [Tabossi, Patrizia, and Francesco. 1993: 145-162].

Somatizm komponentlari bo'lgan frazalarga boy iboralar tez-tez jurnallarda, gazetalarda, kinolarda va teledasturlarda namoyon bo'ladi. Ular har kuni ishlatiladi va ma'lum miqdorda biron bir madaniyatning o'zagini yoritib beradi. Idiomalarni suhbat jarayonida mohirlik bilan ishlatishi natijasida ijtimoiy ta'sir kuchayadi. Idiomalarning ma'noga boyligini va til o'rganuvchilar o'zlarining fikrlarini erkin bayon qilishlariga yordam berishini hisobga olsak, idiomalar o'qitish va o'rganish tizimiga joriy qilinishi kerak. Bu tayyor holdagi frazalar

nutqning ravonligini ta'minlaydi, qolaversa tinglovchiga gap orqali murojatdan ko'ra idiomalardan foydalanish ancha qulay.

Tahminimizcha somatik idiomalar frazeologiyaning asosiy manbayi bo'lib, ular kunlik suhbat jarayonida va yozishmalarda tez – tez uchrab turadi. Idiomalarga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar yozilganiga qaramay, idiomalar hali hanus o'zining umumiy tarifini topmagan [Kavka, Stanislav. 2003: 57]

Birinchi bo'lib somatikaga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borgan lingvist bu shubhasiz F. Vakk. U barcha somatizmlarni uch guruhga bo'lgan: 1. Insonni tasvirlovchi; 2. Inson va hayvonlarni tasvirlovchi; 3. Hayvonlarni tasvirlovchi [Vakk. 1964: 23].

Somatizmlar O. Yespersen, G. Hoyer, Dj. Layonz, D. Bazarovlarning ilmiy tadqiqotlarida ham o'rganilgan. Bulardan tashqari katta ahamiyatga ega bo'lgan somatizmga bag'ishlangan tadqiqotlar rus, ingliz va nemis tillaridagi somatizmlarni o'rgangan Yu. Dolgolopov, rus va turk tillaridagi somatizmlarini o'rgangan O. Nazarov, nemis va Qozoq tillaridagi somatizmlarni o'rgangan M. Abilgalievlarga tegishlidir. D. Bazarova turkiy tillarga oid somatizmlar bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar olib borgan. O'zbek tili somatizmlarini esa A. Isaevning "O'zbek tilining somatizm frazeologiyasi" da ko'rishimiz mumkin. Bu ishda somatizmlar o'zlarining sinonimlik, antonimlik, omonimlik va kommunikativlik jihatidan o'rganilgan. U birqancha somatizmga oid frazeologik birliklarni "bosh", "ko'z" tatar, turkman va azarbayjon tillarida o'rgangan [Hayrulina. 1997: 536].

Inson faktori frazeologik iboralarning yaralishida juda katta ahamiyatga ega, shuning uchun ham insonga nisbatan semantik yo'naltirilgan va inson faoliyatining turli javhalarida o'z aksini topgan somatizm iboralari ko'p miqdorni tashkil etadi. Sh. Balli ta'kidlagan: inson ongining mukammal emasligi, uning barcha o'zini o'rab turgan narsalarni jonlantirishga harakat qilishida aks etadi. U tabiatning o'likligini va qalbi yo'qligini o'ziga singdira olmaydi; uning tasavvuri hayotini doim jonsiz predmetlarga bag'ishlaydi, bu hali hammasi emas: inson doim tashqi dunyoga o'ziga hos bo'lgan shaxsiy fazilat va intilishlarini bag'shiyda etadi [Balli. Sh 1961: 71-72]

Somatizmga oid frazeologik birliklar inson va hayvon tana a'zolarini o'z ichiga olgan, frazeologiya olamida katta va sernatija guruhi tashkil etadi. V. P. Shubinning hisob kitobiga ko'ra bu guruh til fondining 15% ni tashkil qiladi. Somatizmlar o'zlari bilan birga turli hil tillarning qadimiy leksik qatlamlarini namoyish etadi, biron bir halqning o'ziga hos milliy – madaniyatini, urf odatlarini aks ettiradi [Shubina, 1977: 66].

Somatik frazeologik birliklarning ommabopligi bu ularning doimiy boyib borishi, halqchilligi, yorqin ifodaliligi, gramatik jihatdan soddaligi va stilistik ma'noga boyligidadir. Somatizmlarning o'ziga hosligi turli tillarda o'zining ma'no jihatdan juda yaqin bo'lgan ekvivalentlari mavjudligidadir. Bu o'ziga hoslik somatik frazeologiyani boshqa tematik frazeologiya guruhlaridan ajratib turadi. Somatik frazeologiyaning turli tillarda bir biriga mos kelishi ularning faqatgina bog'liqligi bilan tushunilmaydi, balki obyektiv qonuniyatlar ya'ni bir biriga yaqin bo'lgan frazeologik birliklarning paydo bo'lishi va buning natijasida somatik leksemalarning universal harakterga ega bo'lishi va ularning frazeologik birliklar tarkibida funksional – semantik dinamikaga ega bo'lishida tushuniladi [Kunitskaya, 1989: 34].

A. D. Rayxshteyn bu faktni quyidagicha tushuntiradi “qardosh va uzoq qardosh halqlar tillarida areal harakter yaqinligi mavjudligi, davlat tizimi, armiyasi, dini, urf – odatlarining umumiyligidadir” [Rayxshteyn, 1980: 120].

Masalaning ikkinchi tomoni turli tillardagi somatik frazeologiyalar tarkibiga kiruvchi somatik leksemalar yuqori metaforlilik hususiyatiga ega. V. S. Danilov va N. V. Kunitskayalar ta'kidlashadiki, somatizm frazeologik birliklarining metaforalik va metonomiyalik jihatdan yaralishi, ularning yaralishida juda unumli faktor hisoblanadi [Danilov, Kunitskaya, 1986: 59].

O'z o'zidan savol tug'iladi, nega endi inson tana azolarining nomlari insonlarni bunchalik o'ziga jalp qiladi va insonlar ularni metaforik universal sifatida ishlatishadi, bu holat shubhasiz somatizm frazeologiyasi birliklarining yaralishiga sabab bo'ladi. Gap shundaki, birinchi navbatda inson doim atrofidagi predmetlarni o'zi bilan ya'ni o'ziga ma'lum bo'lgan funksiyalarni bajaradigan tana

azolari bilan taqqoslaydi. Barcha ma'lumotlarni hisobga olgan holda T. N. Chayko quyidagicha hulosa qiladi: inson tana azolarining doim ko'z ostida bo'lishi ularning taqqoslash uchun etalon vazifasini bajarishiga sabab bo'ladi. Somatizmga oid iboralar suhbatda juda katta metaforik aylanishga ega va uning zamirida inson va hayvonlarning o'zini tutishini kuzatish yotadi. Somatizm iboralarida inson doim to'qnash keladigan tana azolarining nomidan foydalaniladi [Chayko, 1974: 8-9].

O'zbek frazeologiyasida birinchi ishlar o'tgan asrning 50-yillarida paydo bo'ldi bunga misol tariqasida Sh. Rahmatullaev (Rahmatullaev. 1961), Ya. R. Pinhasov (Pinhasov. 1953), (A. Shomaqsudov 1956), R. U. Majidova, M. Husainovlarning (Husainov. 1956) nomzodlik dissertatsiyalarini ko'rsatishimiz mumkin. Qayd etish joizki, bu ishlarning ko'pchilik qismida o'zbek maqollari akademik V. V. Vinogradovning strukturaviy-semantik klassifikatsiyasiga tayangan holda tahlil qilinadi, ya'ni ular maqollar chatishmalarga bo'linadi.

Jaxon tilshunosligida hozirgi kunga qadar frazeologiyaning sohasi keng va tor ma'noda tushunilmoqda. Frazeologiyaning keng doirada tushunuvchi uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlar va boshqa tipdagi turg'un birliklarni kiritadilar [Arnol'd 1966: 346; Kunin 1970: 344]. Tor doiradagi frazeologiya tarafdorlari esa yaxlit ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan chegaralanadilar.

Ular frazeologik tadqiqotlarida faqat birikmaga teng bo'lgan frazeologik birliklarni tadqiq etib, maqol va matallarni frazeologiya obyekti sifatida baholamaydilar [Pinhasov 1969: 145].

Maqollarga doir ilmiy tadqiqotlar ko'proq rus va o'zbek tilshunosligida amalga oshirilmoqda. Ingliz tilining frazeologiyasi ham ko'proq rus olimlari tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Bu sohada ayniqsa taniqli Rossiya tilshunosi A. V. Kuninning hizmati katta. A. V. Kunin ingliz va rus tillari frazeologik lug'atining ham muallifidir.

Shuni ham aytib o'tish joizki, o'zbek tilshunosligida maqollarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar juda oz miqdorni tashkil etadi.

Bizga ma'lumki, umumiy frazeologiya masalalarida dolzarb mavzulardan biri bu turg'un birikmalarning semantik – grammatik xususiyatlari hisoblanadi. Bu muammo to'g'risida o'zbek tilshunosligida bir nechta maqolalar nashr qilingan.

Ammo turg'un birikmalar semantikasi masalasida birorta ilmiy ish qilingani yo'q, vaholanki boshqa qator turkiy tillarda bunday ilmiy ishlar mavjud [Abdurahmonov 1968; E. Koychubayev. 1969]

Keyingi davrda tildagi maqollarni o'rganish frazeologiyaning alohida sohasi hisoblanuvchi paremiologiya (grekcha *poromia* – maqol, matal) o'rganilmoqda va turli tillardagi maqollarni qiyosiy chog'ishtirish paremiologiyada tadbiq qilinmoqda [Bakirov. 2006: 297]. A. V. Kunin frazeologik birliklarni guruhga bo'lib o'rganar ekan, u to'rtinchi guruhga kommunikativ frazeologik birliklarni kiritgan, maqol va matallar ham huddi shu yerdan o'rin olgan. A. V. Kuninning ta'rifiga ko'ra frazeologik birliklar butunlay yoki qisman ko'chma ma'noni ifodalagan turg'un birliklardir [Kunin, 1970: 320].

Inson tanasining a'zolari va ularning nomlari somatizmlar sifatida turli hil tillarda ishlatiladi. Lekin, shu narsani ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ma'lum bir tildagi so'zlar hamma vaqt ham boshqa tildagi so'zning bitta so'z bilan ekvivalentini bera olmaydi. Masalan, rus tilidagi *mochka* so'zini o'zbek tilida bitta so'z bilan beriladigan ekvivalenti yo'q. Bu tana qismini ifodalash uchun tasviriyl nomlanish ishlatiladi, ya'ni buni quloqning solinchig'i, quloqning zirak taqiladigan yumshoq joyi deb ta'riflanadi [Sodiqova 1972: 334].

O'z navbatida o'zbek tilidagi ba'zi bir leksik somatizmlarni ham rus tilida to'g'ri keladigan ekvivalenti yo'q. Masalan, o'zbek tilidagi *taqim* so'zini rus tilida “*место сгиба ноги у колена*” deb ta'riflanadi [Sodiqova 1972: 334].

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, leksik somatizmlar miqdori turli hil tillarda bir hil emas. Bizning fikrimizga ko'ra, u yoki bu tildagi somatizmlarning miqdori o'sha tildagi somatik maqollarning miqdoriga qandaydir darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunki har qanday tilda leksik birliklar somatik maqollar yasashda faol ishtirok etadi. Ma'lumki, turli hil somatik leksemalarni maqollar yasashda ishtiroki bir hil emas.

Bir soʻzni ikkinchisi bilan almashtirishda shu narsani hisobga olish kerakki, agarda oʻrnini bosuvchi soʻz umumiy maʼno bilan bogʻliq boʻlsa, almashtiriladigan soʻz, shu umumiy maʼnoni beruvchi soʻzning bir qismi boʻlib joylashadi. Boshqacha qilib aytadigan boʻlsak bu *sinekdoha* (vazifadoshlik)ning paydo boʻlishidir. Masalan, ingliz tilidagi “blessings are not valued till they are gone” (Baxt qoʻldan ketmaguncha beqadr) maqolini oladigan boʻlsak bu maqolda *qoʻl* soʻzi *baxtni yoqotmoq* maʼnosida ishlatilyapti. Oʻzbek tilida ushbu maqol “oldingdan oqqan suvning qadri yoʻq” tarzida qoʻllaniladi. Agarda bunday almashtirish biror – bir leksik somatizmni maqol tuzishda faolligini oshirsa, boshqa somatizmni esa uning oʻrnini boʻshatadigan maqol yasashda kam ishlatiladi. Bundan shuni hulosa qilib aytishimiz mumkinki, biror – bir leksik somatizmning maqol yasashda faol qatnashishi, boshqa leksik somatizmning kam ishlatilinishiga sabab boʻladi [Kunin 1984: 942].

Tana aʼzolarining nomlaridan metaforik universallar sifatida keng foydalaniladi. Chunki yangi obyektни nomlashda inson eng avvalo, unga yaxshi tanish boʻlgan va doimo oʻzida mavjud boʻlgan narsalar bilan bogʻliqlik paydo boʻladi. Inson dastavval atrofdagi predmetlarni oʻz-oʻzi bilan, tana aʼzolari bilan taqqoslaydi, chunki ular doimo koʻz oldida boʻladi va taqqoslash uchun oʻziga xos etalonlarga, yaʼni namunalarga aylanadi [Cherdintseva. 1988: 14].

Inson tana aʼzolarini xar xil tavsiflash va turli belgilariga karab ularni guruxlash mumkin: masalan, axborotni tashqaridan qabul kiluvchi organlar- bu koʻzlar, quloqlar va burundir. Bunda aksincha, qorin, yelkalar va oyoqlar ishtirok etmaydi. Til – axborotni uzatishga javobgar organdir. Shuning uchun gapiruvchidan uning kelishi xaqida gapirilganda tilga joʻnatiladi. Yana xatti-xarakatni bajaruvchi, soʻzlashish uchun kerak boʻladigan organlar xam mavjud. Boshka aʼzolar bunda ishtirok etmaydi. Shunday boʻlsada, barcha taʼna aʼzolari insonning faoliyati uchun keraklidir [Vlasova. 1997: 32].

Leksema-somatizmlar eng samarador organlar xisoblanib, ularning inson organizmidagi funktsiyalari aniqdir va ularni qayta fikrlashning osonligi xam aynan shu bilan bogʻlikdir. Toʻplangan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, soʻz

birikmasini xosil qilish faolligi bo'yicha birinchi o'rinda qo'llar, ko'zlar va boshni anglatuvchi so'zlar turibdi. Ushbu sanab o'tilgan komponentlar anglashning sezgir (ko'z) va mantiqiy darajalariga, shuningdek, xaqiqat chegaralari -amaliyot(ko'l)ga to'g'ridan-to'g'ri mos keladi. Bu FBlarning komponentlari mustakil qo'llanganda mantiqiy tarkibning yuqori chastotali zo'nasiga, uning eng qadimgi, asl va sotsial axamiyatga ega qismiga tegishlidir. qoidaga ko'ra, ular ko'p ma'noli so'zlar bo'lib, ularning aloxida ko'chma ma'nolari boshqa frazeologik birliklarning frazeologik ma'nolarida xam kam yoki ko'p darajada sezilarlidir. Shunga qaramay, ularning asosiy, birlamchi, to'g'ri ma'nolari, shubxasiz, xal qiluvchi axamiyatga egadir [Berdinkova. 2000: 469].

O'zbek frazeologik fondi murakkab sistemaga ega bo'lib, undan o'z tarkibida somatik komponent saqlovchi FBlar plasti (mustaxkam qobiq) yakkol ajralib turadi. Biz to'plagan ma'lumotlarga ko'ra(«Uzbek tili frazeologik lugati» Sh.Raxmatullaeva, 4000FB), somatik frazeologik birliklar (SFB) o'zbek tili lug'atida keltirilgan frazeologizmlar umumiy miqdorining beshdan birini tashkil etar ekan. Frazeologizmlarning o'zbek tilining frazeologik tarkibidagi somatizm – komponentlar bilan o'ziga xos og'irligi yana shu bilan tushuntiriladiki, tana a'zolarini anglatuvchi so'zlar til leksikasining qadimiy plastiga tegishlidir. Ular chidamliligi bilan, keng ko'lamda qo'llanilishi va tarmoqlangan semantik tuzilishi bilan xarakterlanadi. Barchaga ma'lumki, so'zning tildagi yoshi kanchalik kata bo'lsa, uning semantik tuzilishi shunchalik keng bo'ladi va shu tariqa unda frazeologik birliklarning xosil bo'lish imkoniyati xam shunchalik ko'p bo'ladi. O'zbek tilidagi somatik frazeologik birliklar etarlicha turfa xilda bo'lib, ingliz tilida keltirilganlaridan tubdan farq qiladi [Raxmatullaev. 1961:106].

Taniqli uzbek frazeologi Sh.Raxmatullaevning ta'kidlashicha, frazeologik birliklarga 3 nuqtai nazardan: semantik tuzilish, grammatik tuzilish va fonetik tuzilish jixatdan karagan ma'qul. Ular birlashib tilning xaqqiqiy birligini xosil qilishadi. Xal qiluvchi o'rinda esa semantik tuzilish turadi – aynan semantik omil grammatik va fonetik mukammallikka olib keladi. Inson tanasi o'zida 2 kuch: tabiat va madaniyatni mujassamlashtiradi. [Raxmatullayev. 1978: 34]. «Bizning

tanamiz – deb yozadi Bergson – to'xtovsiz qayta tug'iladigan ,ajralmas, aniqrogi xar daqiqada o'tib turuvchi tasavvurimizning bir qismi xisoblanadi [Bergson. 1992: 33].

Somatik frazeologiyaning obrazliligi, xis-tuyg'uga boyligi va tezkorligi insonning o'z tanasi orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqasidan dunyoning sinovlari va ularni boshdan kechirish usullarini qayd etadi.

Tana xaqida so'zlashdan avval uning nima ekanligini aniqlash kerak. Misol tariqasida tananing lug'atlardagi ma'nosini ko'radigan bo'lsak, rus tili lug'atlarida unga quyidagicha ta'rif beriladi: «inson organizmining tashqi ko'rinishi», «insonning korpusi», «muskullar, go'sht, tana ko'plami», «odam yoki xayvonning fizik xolatdagi organizmi, shu organizmning boshi va oxiridan tashqari bir qismi». Bundan kelib chiqadiki, bir tomondan «yumshoq», «go'shtli» bo'lgan barcha narsalar tana xisoblanar ekan, boshqa tomondan esa tana – bu, organizmning fizik holatidir [Nguen. 1998: 7].

Shuni ta'kidlash lozimki, rus tilida somatizmlar deganda ko'p xollarda stilistik xarakterdagi sinonim qatorlarni xosil qiluvchi zoonimlar tushuniladi. Frazeologik birlik tarkibidagi zoonim komponent unga mos keluvchi sinonim somatizmni stilistik jixatdan susaytiradi. Masalan, ko'l berish-panjasini berish, yuziga urish-basharasiga urish, tomogini bugish-jabrasini bo'gish va x.k. Lekin goxida ular nafaqat stilistik jixatdan, balki sinonim juftlikda xam farklanadi: tomog'ini bo'gish-jabrasini bo'gish deganda jabra zoonimi xisobiga frazeologizm ma'nosida xayotiy funktsiya shakllanadi – kimnidir jabrasini bo'gish-zurlab majburlash.

Ma'lumki, ko'pgina tillarda frazeologik birliklar tarkibidagi somatizmlar son jixatdan xarakat va sifatni anglatuvchi so'zlardan so'ng uchinchi o'rinda keladi. Somatik frazeologiya universal kategoriyaga kiradi, chunki u barcha tillarda mavjud va xar qanday tilning frazeologik fondida axamiyatli o'rin egallaydi. Rus tilining frazeologik lug'atidan to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, adabiy tilda eng ko'p uchraydigan va faol somatizmlarning birinchi o'ntaligiga qo'l, bosh, yurak, ko'z, oyok, tomoq, yelka, barmoq, til, miya kirar ekan. Chayko. T. N ma'lumotlariga kura, dialektda adabiy til bilan taqqoslaganda, yuqori so'z

birikmasini xosil qilish xossasiga ko'ra, quloq, tish, burun, og'iz, ko'zyosh ajralib turadi, bu uning fikricha, metaforaning asosida kelgan erkin so'z birikmalarini noodatiy tarzda qayta fikrlashning o'ziga xos turi bilan bog'lik [Chayko. 1974: 14].

Nazarov, Alefirenko, Mugu va boshqalarning fikriga ko'ra, somatizmlarning frazeologik faolligi ularning leksiko-semantik variantlari chuqurligiga asoslanadi. So'z birikmasini xosil qilish samaradorligiga ega bo'lgan deyarli barcha somatizmlar polisemantikdir [Alfirenko. 2005: 5-6].

Shu tariqa, Mugu bu xodisalarni rus va nemis tillarida ko'rib chikib, shuni qayd etadiki, somatizmlarning ko'p ma'noliligini rivojlantirish atrofdagi jamiyat xaqqoniyligida denotatning obrazli assotsiativ (bog'lik) transformatsiyalashuviga bog'liqdir. Misol uchun qo'l va oyoq so'zlarini solishtirganda qo'l denotatining funktsional maydoni nisbatan kengroqligi yaqqol namoyon bo'ladi: «qandaydir mexanik ishni bajarish», «mexnat maxsulotini ishlab chiqarish», «yozish», «kutib olish ma'nosida qo'lni sikish», «rozilik alomatini ko'rsatish» va x.k. Oyoq esa asosan insonning tirgagi va xarakati vazifalarini bajaradi. Aynan shu fakt «oyoq» leksemasining polisemantizmi rivojlanmaganligiga sabab xisoblanadi [Mugu. 2003: 24].

Somatizmlarning so'z birikmasini xosil qilish faolligiga ularning nutqda keng qo'llanilishi xam aniq ta'sir ko'rsatadi. Lekin, Alefirenko ta'kidlashicha, frazeologik faollikning bu ko'rsatkichi «inson tana a'zolari» leksik-semantik guruxining barcha a'zolariga xam mos kelavermaydi: «Misol uchun bosh so'zi (1,66) oyoq so'zi(0,81)ga nisbatan keng qo'llaniladi, shunga qaramay, uning frazeologik faolligi 56ga, ikkinchi so'zniki esa 98ga teng. Somatizmlarning yuqori frazeologik samaradorligi o'sha yoki boshqa tilshunoslik madaniyati jamiyati a'zolari uchun keng psixologik axamiyatiga xam asoslanadi. Bu xaqida turli tillardagi ma'lumotlar asosidagi taqqoslovchi izlanishlar guvoxlik beradi. Ma'lumki, insonning ayni bir a'zo va organlari turli tilshunoslik madaniyati jamiyatlarida turli ramzlarda namoyon bo'ladi, ularni anglatuvchi so'zlar esa «semantik plyuralizm»ga, ya'ni turli ramziy belgilarga ega bo'ladi: masalan, bosh-fikrlash faoliyati va boshlanishlik belgisi, ko'zlar-quyosh, nur, ruxiyat belgisi,

intiluvchanlik, tezkorlik, nimanidir qamrab olish belgisi va yomon xayol, yomon maqsadlar (yomon ko'z va x.k.) ramzi xamdir. Olimlar shuni aniqlashdiki, frazeologizatsiyaga tashqi tana a'zolarini anglatadigan, ya'ni eng ko'p faollikka ega bo'lgan, vazifa va axamiyatlari aniq bo'lgan, bevosita insonning o'zining kuzatuvda bo'lgan somatik leksemalar ko'proq uchrar ekan [Alfirenko. 2005: 43].

Shu tarzda, masalan, Timea ta'kidlaydi: frazeologizmida bir yoki boshqa moddaning leksiko-semantik potentsiali eng avvalo uning fiziologik funksionalligi bilan yoki insonning mimik xatti xarakatlari bilan bog'lik bo'lgan sotsial-ramziy semantikasi bilan xam aniqlanadi [Timea. 1999: 131].

Oxirida keltirganlarimiz insonlarning bir qator ruxiy xolatlarini kuzatuvchilar xisoblangani uchun bu xolatlarni anglatuvchi so'z birikmalari ikkinchi semantik o'ringa, ya'ni ularning tarkibiga kiruvchi moddalarning axamiyati bilan xech qanday umumiyliги bo'lmagan frazeologik axamiyatga aylandi. Bunday xolatga xamkoriy omonimlik deya ta'rif berildi.

Zamonaviy antropologik paradigmada somatik frazeologiya dunyoda kontseptuallashning asosi sifatida, N.F. Alefirenko, A.P. Babushkin, V.A. Maslova, V.N. Teliy, R.X. Xayrullina va boshqa olimlarning ishlarida dunyoning til suratidagi muxim qismi sifatida qaraladi. Teliyaning so'zlariga qaraganda, frazeologiyaga antropologik tilshunoslik xolatidan qaralganda, til xaqidagi fanning eng «qadimgi» bo'limlaridan biri deb qaraladi. Ayniqsa biron bir frazeologik birlikning aniq tushuncha berish qobiliyatiga asoslangan ma'lum bir logika-sistemali usul bilan ularni tartibga keltirishni taxmin qiluvchi frazeologizmlarning ideografik guruxiga e'tibor beriladigan taqqoslovchi izlanishlardagi somatik frazeologiyaning fenomeni yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning yordami bilan inson borliqni, vaqtni tasvirlaydi, xis-tuyg'u xolatini namoyon etadi va x.k [Telia. 1996: 288].

1.2 Til lug'at tarkibining tadqiqoti – umumiy va qiyosiy tilshunoslikning aspekti

Umumiy tilshunoslik hamma til bo'yicha umumiy nazariyani tatqiq qiladi, har xil tilni o'rganishga qo'llanadigan ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Umumiy tilshunoslik tilni mohiyat va umuman tilni tabiyatini, uni kelib chiqishdagi muammolarini, uning rivojlanishidagi tatqiq qilingan umumiy qonunlarni o'rganadi va yana o'rganish usullarini ishlab chiqadi. Qisman tilshunoslik umumiy tilshunoslikning rivojlanishidan olingan. Gap shundaki, qadimgi tilshunoslikni vujudga kelishi, xuddi ayrim to'la bo'lmagan tilshunoslik faktlari sanskrit haqidagi, yunon tili haqidagi fanlarni yig'ish uchun ko'payishi til haqidagi ma'lumotni yaratilishiga olib keldi. Bunga yorqin misol Por-Royal gramatikaga ong "Umumiy va ma'qul gramatika" (1660), fransuz olimi mantiqshunosi A.Arno va tilshunosh K.Lanso bilan yozilgan kitob Por-Royal Manastirida Parij yaqinida chop etilgan. Qisman va umumiy tilshunoslik bir-biriga o'zaro bog'liq, ular bir-birisiz munosabatga kirisha olmaydi. Umumiy qonunlarni tuzulishini va tilning rivojini qachonki diqqat bilan jonli va o'lik tillarni o'rganishda va umumiy tilshunoslikda turli tillarda keltirib o'tilgan hamma aniq ma'lumotlardan unga qisman tilshunoslikni bilishga imkon bergan.

O'z navbatida qisman tilshunoslik umumiy tilshunoslikning nazariy negiziga suyanib ularni aniq til uchun ishlatib, g'oya va usullardan tushuncha sifatida foydalanadi. Aniq ko'rinib turibdiki, ular til haqidagi yagona fan ekanligi o'zida 2 xil qarashni ifoda etadi.

Frozeologiyani o'rganish tillarni solishtirishning asosiy mazmuniga egadir. Frozeologiyani o'rganishda aniq tillar umumiy va farqli belgilarni o'xshashligini frozeologik jarayonini vujudga kelishini chuqurroq, ichiga kirib va frozeologik birliklarni xususiyatlarini aniqlab yoritib beradi. Frozeologik birliklarni tarkibiy qismini ustidan kuzatish yo'li dunyo tillarini ko'proq jismoniy frozeologiya ekanligidan guvohlik beradi. Jismoniy frozeologiyaga murojat- bu frozeologiyalar tarkibida tana a'zolari odam organizmlari va xayvonlar nomlari uchraydi. Har bir

tilda frozeologik birlikka, tuzilishga ega o'xshash va mantiq ko'rinishli rejada sabablari tushuntiriladi. Bu hayotiy shart va xodisalarning uyg'unligi, insoniylik xissiyoti va tushunchasi ularning asosiy funksiyasiga chaqirilgan psixik jarayonda esa yer yuzasining hamma xalqlarining vakillari mos tushadi. Jismoniy frozeologizmni keng ifodalash frozeologik birlikning tarkibiga yirik darajada o'zida shuni yuzaga keltiradiki leksikaning qadimgi tabaqalarini namoyon etishini ham ko'rsatadi. Boshqa tarafdin frozeologiya har qanday tilde uning xususiyatini va shu tilda so'zlashuvchilarni ham aks etadi. Shuning uchun frozeologik birliklarni solishtirish har xil tillarda frozeologik tilni spetsifik harakterini o'rnatishga yo'l beradi va uning eng muhim ma'nosini milliy madaniyatini o'ziga xos ibora ko'rinishida ochib beradi.

Har qanday solishtirishning asosiy elementlari bu bir xil va turlicha belgilarni solishtirishni mavjudligini tushuntiradi. Chamasi bir xillik va har xillik haqidagi F.De Sossyuroning qarashlarida tilni analiz qilishda asosiy va muhim usullari yotadi. Tarkibiy qismlari o'zgarishi oppozitlari va boshqalar kiradi. Natijada formal va mazmunli solishtirishda til sistemasi har qanday masshtabning gramatik paradikmasi antanamik jufti va boshqa a'zolari qarama-qarshilikda belgilanadi, teskarisiga esa har qanday alohida tilning ko'rinishi taxminlariga mukammal emas, unda belgilangan har xil qarashlar formalar, ma'nolar, qarashlar va boshqalar o'xshashliklar boshqa tomondan bunga kirgan har xil o'xshashliklarni umumiy bazasini funksiyaviy semantika, formal bobikalar misol bo'ladi.

O'.Q Yusupovning fikricha, til bilan bog'langan qiyoslash ikki hil: ayrim olingan tilning strukturasini o'rganishda ishlatiladigan qiyosiy metod (bitta til ichida qiyoslash) va ikki va undan ortiq tillarnio'rganishdagi qiyosiy metod (tillararo qiyoslash) bo'lishi mumkin [Yusupov 1986.: 190]

Yuqorida aytilganlar to'laligicha frozeologik birlikning izlanishlariga tegishlidir. Oxirgi 2 o'n yillikda tillarning konkret jufti yoki guruhlarining qiyosiy tahliliga yo'naltirilgan ko'pgina monografik ocherklar yaratildi. Ular frazeologiyaning alohida muommolariga bag'ishlangan: har xil tizimdagi tillar frazeologiyasining qiyoslanishiga; Frezeologik birlikning bir turdagi strukturasini va

funksiyasiga (verbal, adyektiv, komparativ), frezeologik birlik gap qurilishi bilan, frezeologik birlik bir tipdagi komponentlar bilan: somotizmlar, harakat fe'llari, rang bildiruvchi komponentlar bilan, va nihoyat, tillarning butun frezeologik fondlari.

J. Bo'ronovning nazariyasiga asosan qiyosiy tipologiya umumiy lingvistik tipologiyaning bir qismidir. "U ikki va undan ortiq aniq tillar tizimlarini, tillardagi ma'lum kategoriyalarni deduktiv ravishda alohida o'rganadi, tillar tizimidagi lingvistik hodisalarning bir-biri bilan taqqoslab, umumiy tipologik qoida va qonunlar yaratadi [Bo'ronov. 1983.: 35].

Ikki til sistemasini ikki yoqlama qiyoslashda har bir qiyoslanayotgan til sistemasining bayon etilgan materiali alohida – alohida qiyoslanadi. Har bir qatlam birligining o'ziga hos hususiyati, boshqa qatlamdagi birliklarning o'zaro aloqalari hisobga olinadi" [Bo'ronov. 1983.: 41].

Maqol birliglarining o'ziga hos hususiyatlaridan biri vaziyatlilik hisoblanadi. A.B. Apremova ning ta'kidlashicha inson tafakkuri (idrok etishi) ning o'ziga hos hususiyati shundan iboratki u o'zida barcha voqealarning mohiyatini o'zida aks ettirgan til birliglarining asosiy ma'no mazmunlarini qamrab oladi, shuning uchun ham maqollarda qiyofa va shakillar reduksiyaga uchraydi, ya'ni vaziyatlarning shartli ta'sirlarini o'zida namoyon etadi [Джусупов. 2013].

Shuni aytib o'tish kerakki, frazeologiyani tadqiq etish uchun qiyosiy metodning qo'llanilishini olimlar munozarali va hattoki mumkin emas deb hisoblashgan. XXasr 60-yillari 2-yarmida birinchi marta qiyosiy-taqqosiy, strukturkotipik va hududiy frazeologizm haqidagi savollar L.I.Royzenzon va Yu.Yu.Avalioni izlanishlarida qo'yiladi. Turdosh bo'lmagan va tipik har xil tillarning qiyosiy frazeologiyasini o'rganilishining muhimligi frazeologiyaning rivoji va yuzaga kelishi jarayonida takroriy qayd etilgan.

Zamonaviy tilshunoslikning frazeologiyaning muhim muommolarini ishlab chiqishdagi yutuqlari turli tillarning frazeologik tatqiqotlarida qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarning frazeologiyasini qiyoslab o'rganishda yordam berdi. Frazeologiya sohasidagi qiyosiy izlanishlar qiyoslanayotgan ingliz, rus,

o'zbek tillarining frazeologiyasining xususiyatini yaxshiroq tushunishga imkoniyat beradi. Shunday qilib, frazeologik birlikni qiyoslab o'rganish-zamonaviy tilshunoslik izlanishlarda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Frazeologik birliklarni taqqoslash nafaqat rus va xitoy tillarining frazeologik xususiyatlarini yaqqol ochib berishga emas balki ularning umumtil hamda individual tilni xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Frazeologiyada taqqoslash metodi bu taqqoslanayotgan tillarning frazeologik birliklaridagi asosiy va umumiy holatni namoyon bo'lishida qo'llaniladigan frazeologik birlik tahlilining metodikasi va usullar sistemasidir. Nazariya frazeologiyaning zamonaviy rivoji yaqin qarindosh bo'lgan hamda qarindosh bo'lmagan tillar frazeologik birliklarining qiyosiy o'rganilishsiz bo'lishi mumkin emas. Qiyosiy metod amaliy frazeologik tartiblarda qo'llanilishi mumkin- ikki tilli frazeologik lug'atlar tuzilishidagi nazariyasi va amaliyotida, frazeologik birlik tarjimasida nazariyasida, tillarning metodik o'rganilishida. Shunday qilib, qiyosiy frazeologik metodologik hamda metodik yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. Frazeologik birliklarning qiyosiy o'rganilishini tipik va qarama –qarshilik turiga bo'lish mumkin. Ular bir biriga o'xshash bo'lmasa ham o'zaro bir biri bilan mustahkam bog'langan. "Ikki bir biri bilan taqqoslanayotgan tillarning asosiy tipologik hususiyati mos keladimi yoki yo'qmi buni bilish judayam muhim. Tilshunoslik tipologiyasi yutuqlari asosida tillar o'rganilishida qiyosiy- qarama-qarshilik priomlarini ishlab chiqish mumkin. Tipologik hamda kontrast tatqiqotlar orasidagi farq, frazeologik birlik analizi uchun nechta tilni olish kerakligidadir. Tipologiya o'zining umumiy hulosalari asosi uchun tipologik turli xil turlarning ko'p qismini operirovat qilish kerak degan fikr keng tarqalgan, bunday paytda qiyosiy kontrast ish bir biriga tayanch bo'la oladigan 2ta taqqoslanayotgan tilga tayanishi kerak. Ikki yoki bir necha tillarning qo'llanilishi, Yarteva haqqoniy qayd etganidek qiyosiy tipologik hamda qiyosiy kontrast ishlar orasidagi farq olingan til materiyali asosida yotmaydi, balki uning ikki turli analizi metodikasidadir. Ikki komponentli biriktiruv qulay va bundan tashqari turli tillarni o'rganishning amaliy natijalarida ayniqsa ikkita tilde tatqiq etiladi. Ikki yoki bir nechta tillarning kontrastiv

analizining asosiy maqsadi ularning boshlang'ich kontrast qirralarini ochishga asoslanadi.

Iboralarni biriktirish quyidagi savollarga javob beradi: iboraviy va sistematik ingliz va rus tillarini o'xshashlik va farqlari nimaga asoslanadi; ular qanday bo'ladi, asosiy til nuqtai nazarlarida ular qanday tildagi va qo'shimcha lingvistik faktorlarga asoslanadi, tillar o'rtasidagi iboraviy tenglik darajasi qandayligi;

Iboraviy biriktirishni tarkibini o'rganishning o'ziga xosligi, ayniqsa, boshqa tillar sistemasi orasida frazeologik holatga asoslanadi. Frazeologizm- ikkinchi ta'lim birligi, oddiy tilni tashkil qilishdagi komplekslarning odatiyligini kamligi bilan farq qiluvchi u yoki bu semantic siljishga asoslanuvchi va majburiy olib frazeologik birlik yaratishga va zaif oldindan bilishga keluvchi ibora planlariga tegishli mundarija rejalari va aksi.

Inson o'zini o'rab turgan dunyoga o'zining tanasi yoki tana a'zolari: bosh, qo'llar, oyoqlar va boshqalar bilan tegishli. L.I.Reyzenzonaning fikricha somatizm- grekchadan "somatos"-tana, tanaga ta'luqli bo'lgan narsa hodisalarni bildiruvchi, ichki shaklga egalik qiluvchi hususan aloqa bilan frazeologik mohiyat va uni komponentlarining haqiqiy mohiyati orasida mavjud.

Tana qismlari ko'chma ma'noda atash bilan insonlar fikrini va hislarini aniq va ravshan bildiradi, chunki bu bir tomondan madaniyatga asoslangan u yoki bu xalq madaniyatiga asoslangan, boshqa tarafdin til obrazini kuchaytiradi. Masalan oyoqqa turmoq- o'zining iqtisodiy xolatini yaxshilab olish yoki " u Fedot Fedotich, sen, Katerina, u hech qachon shovqinni aylanib o'tmagan vas en harakat qil.Arkaskega farqi yo'q, u Fedot Fedotivichsiz oyoqqa tura olmaydi. Yoki hamma narsa qo'ldan ketadi yani o'xshamaydi".

Odamlar tana a'zolarining ko'chma ma'nodagi nomlanishi yordamida o'z fikr va tuyg'ularini aniqroq va to'liqroq ifoda etadilar, chunki bir tanadan, ko'chma ma'no u yoki bu halq madaniyatidan o'zlashtirilgan, ikkinchidan – u til badiiyligini kuchaytiradi. Masalan: oyoqqa turmoq o'z moddiy – iqtisodiy holatini yaxshilamoq, mustahkamlamoq (Fyodorov 2008): yoki – U, Fedat Fedotich, seni, Katerina, hech qachon marhamatsiz qoldirmaydi. Va sen harakat qil. Sening

Arkashkov Fedot Fedotichsiz baribir oyoqqa tura olmaydi. (I. Akulov) yoki, taqqoslang: ish qo'ldan tushib ketyapti (kimdadir); hamma narsa qo'ldan tushib ketyapti – ish o'ngidan kelmaslik, hech narsa chiqmasligi. (Fyodorov 2008). Taqqoslang: A. Agliya o'tiripti, hech narsa qilmayapti. Menda ham ish qo'limdan tushib ketyapti, hech narsa chiqmayapti (Dostoevskiy).

Tana a'zolarining nomlari zamonaviy lingvistikaning dolzarb obyekti bo'lib hisoblanadi, chunki ushbu birliklar samarali frazeologik birliklar tarkibiga kiradi, frazeologik ost tizimni hosil qiladi va tushunchaviy munosiblikni “o'rab oladi” (so'z va tushuncha munosibliyi).

E. F. Arsent'evichning e'tirof etishicha somatizm komponentli semantic iboralar halqaro elementlar semantikasida frazeologik parallelizm natijasida paydo bo'ladi.

Frazeologik parallelizmning rivojlanishida tasviriy – ifodaviy vositalar – tropalar (ma'no ko'chishi) (ritorik figura, so'z yoki iboralar) katta ro'l o'ynaydi. Ko'chma ma'noda ishlatiladigan bu iboralar tilning obrazlilikini va nutqning badiiyy ifodaliligini bildiradi.

Turli tillardagi o'zgaruvchan so'z birliklarining qayta anglanishi alohida yoki metoforik yoki metonimik ko'chirmalar yoki obrazli o'xshatishlar yo'li bilan kiradi. [Arsenteva. 1989: 53] masalan, qo'l qo'lni yuvadi – biri ikkinchisini allaqanday maqsadsiz ishda yoki jinoyatda qo'llaydi [Molotkova. 1977: 45] fors tilida: dast dastra mishuyad [Dehhoda. 1984: 90].

Til birliklari (ona tili va o'rganilayotgan)ning kontrastiv tahlili hamda rus va fors tillarining frazeologik lug'atlarining ma'lumotlari ko'rsatadiki, somatizmlar keng ibora hosil qiluvchi produktivlik bilan tavsiflanadi. Masalan, qo'l somatizmi – komponenti frazeologzmini taqqoslang: qara, Petrovich, qanday ko'z, qo'l-chi! Qanday chizilgan bo'lsa shunday yasalgan. Qo'lga birinchi marta andavani ushladi! – hayron bo'ldi Semyon, - yaxshi usta bo'lishi aniq – devorga diqqat bilan qaragan Petrovich hulosa yasadi – qo'li mohir, ko'zi pishgan (Amirgulova) [Fyodorov 2008].

Rus tilidagi biror bir ishdagi qo'l frazeologik birikmasi fors tilidagi dast dashtan darkari iborasiga mos keladi – "mahoratli, aqilli, o'z ishining ustasi bo'lmoq". Taqqoslang: ko'k ko'zli erkak allaqanday raqsga tushayotganligini, qo'llari kelishmayotganligini tushunsada, sir boy bermasdi. (Amini)

Bundan tashqari dast (qo'l) so'zining ma'nosi Dexhodning fors tili lug'atida rus tilidagidan ko'ra boy semantic hajmga ega. (7 ma'no). Masalan: S. Ojogovning rus tilidagi izohli lug'atida (5 ma'no). Taqqoslang: fors tilida: 1. Yelkadan barmoq uchigacha bo'lgan tana qismi; 2. Yozuvning bir turi, dasthat; 3. Qabul qilish, usul, yo'l, yo'sin; 4. Narsalarning sanoq va o'lchov birligi; 5. Navbat; 6. Kuch, hokimiyat; 7. Guruh, tomon. Rus tilida: 1. Odamning yelkasidan barmoq uchlarigacha bo'lgan hamda panjadan barmoq uchigacha bo'lgan qismi; 2. Ko'chma: dasthat, imzo chekmoq; 3. Ko'chma: tomon, yo'nalish; 4. Ko'chma: odam, kimgadir dadil ishonch bilan lekin ochiq bo'lmagan yordam ko'rsatuvchi; 5. Qo'llar (qanday?) – u yoki bu tur, nav, sifatning ba'zi hollarda qo'llanishi: masalan: o'rta qo'l mahsulot.

Qo'l so'zining izohlanishidan ko'rinib turibdiki, qo'l somatizm – komponentli frazeologizmlar tarkibida turli tillarning ba'zi bir farqi kuzatiladi, ya'ni o'sha so'zning nomutanosibligi yoki mazmunning yo'qligi. Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablari (bir tilda shunday so'zlashish qabul qilingan, ikkinchida – boshqacha) etimologik va lingvamadaniy aspektlar hamda qo'llash an'analari bo'lib hisoblanadi.

Qo'l va dast so'zlarining kelib chiqishi sabablari taqqoslaymiz. Qo'l (pyka) grekchadan "kaft", "qo'l panjasi", "teraman, tahlayman", "bir to'dacha to'plash, tahlash asbobi". Pyka ot so'z turkumi rus tilida XI asrdan buyon mavjud, umumslavyan *roka* so'zidan hosil bo'lgan, ko'rsatilgan grek so'ziga ma'nodosh [Semyonov 2003]; dast so'zi (qo'l) fors tiliga o'rta fors tilidan kirgan, ya'ni, pahlaviy tilidan miloddan avvalgi III – IV – asrlar – VIII – IX asrlarda.

"Til, qanday shaxsga ega bo'lmasin, millatning individual hususiyatlari ma'naviy qiyofasidir" va "til – bu millat nafasi, qalbidir" [Gumboldt. 1984: 303]. V. Fon Gumboltdan. Madaniyat tilning ma'no va mazmun aspektini tashkil etadi.

Insoniyat muayyan jamiyati tomonidan yaratilgan til uning madaniyatining muhim elementi deb tan olingan. Aniqki, bir tilning millatga tegishli xususiyati birligining namoyon bo'lishi boshqa tillardagi o'xshash hodisalar bilan taqqoslashni talab qiladi.

Ko'rsatilgan aspektlar shu haqda guvohlik beradiki, har bir til aniq darajada individual. Masalan, qo'l so'zi rus tilida "guruh" ma'nosiga ega emas, ammo dast (qo'l) so'zi fors tilida ushbu ma'noga ega incho'nun bitta o'zakka va "guruh" ma'nosiga ega bo'lgan daste so'zi mavjud.

Daste so'zi dast so'zi kabi shakl va kattaligi bilan qo'lga o'xshash yoki "guruh" ma'nosi o'rta fors tilidan kelib chiqqan. Lekin bu ikki ma'nodan so'z fors tiliga kirgandan so'ng bir nechta ma'noni anglatadi

Shuni e'tiborga olish kerakki, frazeologik birlik (FB) larning leksik ma'nosiga so'zning leksik ma'nosiga mos emas. FB leksik ma'nosining o'ziga hosligi shundan iboratki, uning nominative funksiyasi ikkinchi planga aralashgan va ba'zida uni tavsiflovchi funksiyali oldinga chiqishi hisobiga o'zgaradi. Masalan, gradualli, chunki FB predmtni nomlamaydi, balki uni aniqlaydi, ba'zi jihatlarda harakterlaydi. [Kolesnikova. 2010: 179].

Qo'l somatizm – komponentli FB Tarkibida arxetipik mavjud (grekchadan arche – "boshlanishi" va tupos – obraz; ilk shakl) yoki gipotetik qayta qurilgan, yoki asosli guvohlangan tilning shakli, keying paydo bo'ladigan nushasi, qarang: ulardan eng ma'lumlari ikki strukturadagi tillarda: qo'l leksemasi – "hokimiyat, kuch, huquq ramzi, masalan – rus tilidagi qo'lga ega bo'lmoq" somatizm – komponentli FB "qo'llab quvvatlangan" degan ma'noni anglatadi. Masalan, avvalgi aloqalar tufayli har joyga qo'li yetar edi – (Салтыков Щедрин "hayot mayda chuydalari"). O'ng qo'l – birinchi va eng ishonchli yordamchi, asosiy ishonchli shaxs, boshqacha aytganda, kimdir yordam ko'rsatadigan odamning to'la ishonchiga kirgan, taqqoslang: U ma'muriyatning ustuni va raisning o'ng qo'li hisoblanadi – (Гончарев "Adabiy kecha") "fors tilidagi qo'lga ega bo'lmoq (dast dashtan) tajribali, aqlli, o'z ishining ustasi bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi – masalan, bu yerda Ahmetning qo'li yo'qligini hamma biladi; o'ng qo'l – (daste

rast) – ishonchli yordamchi; suyansa bo'ladigan inson; masalan – Mina mening eng yaqin dugonam va barcha muhim ishlardagi o'ng qo'lim.

Ko'rilayotgan frazeologizmlarning ma'nosi graduallikni, sifat darajasining ma'nolarini beradi, taqqoslang, "keng tasvir kuchiga ega shaxsning qo'llab – quvvatlashidan foydalanishi", birinchi "va eng ishonchli yordamchi, asosiy ishonchli shaxs".

S. M. Kolesnikovaning nuqtai nazaridan kelib graduallikning tarkibiy komponentli semantikasi murakkab, lekin shu bilan birgalikda o'z ichiga qamrab olgan graduallikning tashqi ko'rsatkichlarini ifodalovchi tashkiliy tuzilishini bildiradi. Bu graduallikning til va semantikasining ma'nosi, shu bilan birga gapirayotgan subyektning ongida ba'zi bir elementlarning mavjudligi bilan bog'liq, taqqoslang: o'ng qo'l frazeologizmi (birinchi yordamchi, yoki asosiy ishonchli shaxs) – graduallikning negizi – mahorat darajasi: bu frazeologizm belgining eng yuqori darajada namoyon bo'lishi ma'nosini beradi.

Rus tilida til birligining graduallik semantikasi keng palitraliligi bilan ajralib turadi. Ma'nolarning hamohangligi yoki turli ma'nodagi ko'rinishi, shuningdek turli darajadagi ifoda vositalari spektri to'g'ri yoki qiyalama tarzda ijodiy nutq jarayonida bir biriga bog'lanadi.

Qo'l leksemasi – boylik ramzi, moddiy boylikning egallanishi; taqqoslang: qo'l somatizm – komponentli frazeologik birligi: rus tilida: - запускать руку во что – либо "nimagadir qo'l uzatmoq, nimanidir o'ziniki qilib olmoq", masalan: Помню людейб пользовавшихся долготязычием как подходящим средством, чтобы запускпть руку в карман ближнего или казны (Saltikov Shedrin); И я надежно всякому в глаза скажуб что я не запустил нигде руки, ни в частный карманб ни в казенный (Derjavin); fors tilidagi – birovning cho'ntagiga qo'l uzatmoq (dast dar jibe kasi kardan) – g'araz maqsadlarda foydalanmoq – masalan "Bu mening cho'ntagimga birinchi marta qo'l tiqishi emas". Ko'rsatilgan misollardagi gap – ibora semantikasi, intensivikasi (uzatmoq) va kvantifikatsiya (ushbu mazmun hech qachon, hech qaerda, hech, kuchaytirish yuklamasi orqali berilgan) natijasida graduallangan.

U yoki bu ma'noni ifodalashda yuklamalar muhim ro'l o'ynaydi va yuklamalarning semantic qo'llanilishi va ularning kuchaytirish funksiyasi esa suhbatdosh bilan aloqani o'rnatadi, aytilgan fikrni undan oldingisi bilan bog'laydi, his – tuyg'ularni ifodalaydi, adresatga nisbatan ta'sirini kuchaytiradi.

Qo'l va dast somatizm komponentli frazeologizmlarning aksariyati salbiy konnotatsiyaga ega, huddi rus va fors tillaridagidek. Taqqoslang: 1. Rus tilida – быть под рукой (qo'l osti) – kim bilandir o'zaro yaqin holatda bo'lmoq. Masalan – он утром собрал всех, кто был под рукой, и трижды водил их в атаку (Simonov. Uchinchi Adyutant); fors tilidagi – qo'l ostida bo'lmoq (dame dast budan) – “juda yaqinda”.

Graduatsiyon qator – bosh – qo'l – oyoq Fedorovning rus adabiy tili frazeologik misollarning tahlil lug'ati shu ko'rsatadiki, bosh somatizm komponenti ko'pincha “odamning o'zi” ma'nosida ishlatiladi: голова и два уха – “tez ilg'amaydigan odam” to'g'risida, qo'l somatizm – komponenti esa “faoliyat vositasi” ma'nosida, masalan: горит в руках – har qanday ish oson bajariladi.

Rus tilida oyoq frazeologik somatizmining asosi shu tana a'zosining bajaradigan funksiyasi, “tananing fazodagi harakatlanishi”, “turish”, “tanani gorizontal holatda tutish”, va “harakat” [Kapanadze. 1970: 212]. masalan: “без (задних) ног, без (задних) ног лежать (валяться)” jismoniy holatni ifodalaydi, so'zlashuvda – charchoqdan, kasallikdan, mastlikdan, sarhushlikdan harakatlanishi holatida emas [Fyodorov. 2008]. Yoki: Нинель с Македоновой так просто не успокоятся, еще будут, заботливые, тянуть из нее жилы, хотя сейчас наверняка дрыхли без задних ног, прижав туго набитые кошельки, - им-то в конце концов что? (E. Shklovskiy).

Qo'l leksemasi yuqori darajadagi frazeologiya hosil qilish faolligi bilan tavsiflanadi va produktiv frazeologik leksema – somatizmlar tarkibiga kiradi. Qo'l komponentli frazeologik birliklar orasida o'z tarkibiga oladigan ikkita va undan ortiq somatizm – komponentlar mavjud, masalan, ноги носят, руки кормят frazeologizmida oyoq va qo'lning turli hil funksiyalari ifodalanadi.

Rus va fors tillaridagi frazeologik birliklarning antonimlik (qarama-qarshi) qo'llanilishini ko'rsak, qo'l komponentli frazeologik iborasi hozirgi zamonaviy rus tilida "tez" fors tilida esa "sekin" ma'nosida ishlatiladi. Masalan: rus tilida "живой рукой" biror bir ishni tezkor ravishda bajarmoq: живой рукой выхлопотала билет, примачалось в Баку – накануне вечером госпиталь разбомбили, и Михаил погиб (Sanjarovskiy); на скорую руку "tezkor qo'l" (biror narsani tezda vaqt va ortiqcha kuch sarflamay bajarmoq) masalan: Мы на скорую руку выпили по стакану чаю и отправились на перевал – остовалась всего какая-нибудь верста. Ноги в руки "oyog'i qo'lida" – "kuchini tez yig'moq, biron ishni bajarishga faol kirishish; masalan. "нагнали народишу, все без толку. Ямы-то зачем накопаны? Ты вот чего: бери ноги в руки да ступай в город Архангельский, что на Двине близ Белого моря... Там мастера ищи, умельца, хитреца" (A. German).

Mazmunida "tez" grademasi mavjud bo'lgan "jonli qo'l", "tezkor qo'l", "oyog'i qo'lida" frazeologizmlari ushbu tillardagi yagona ma'noni beruvchi ifoda emas.

Har bir aniq holatda grademaga differensial sema qo'shiladi. Masalan: "juda" va "to'plamoq" so'zlari asosiy ma'no funksiyasini bajaradi. Taqqoslanayotgan frazeologizmlarning semantik harakteridagi farqni ularning ishlatilishida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu frazeologizmlar o'zaro inkor etuvchi kontentlarda qo'llanadi shuning uchun sinonim sanalmaydi. Qarang: fors tilidagi so'zma so'z tarjima; qo'l bilan harakatlanmaslik (dast najonbandan)... "sekinlashtirmoq, susaytirmoq". O'qituvchi janoblari qo'li bilan harakat qilmas edi. Taroziyning bir pallasiga pulni solar keyingisiga esa – rozilikni; qarshilar va rozilarni o'lchar edi (F. Tonkabeni); so'zma so'z tarjimasi – qo'lni qo'lga ishqalamoq (dast be dast malidan) sekinlashtirmoq, qatiyatsizlikni ifodalamoq. Masalan, qo'llarini uzoq ishqalamasdan meni o'z vaqtida kasalhonaga yuborgan do'stlariga Olloh yaxshilik ato qilsin (X. Shakani).

Har ikkala tildagi mavjud frazeologik podsystemalarda ham o'xshash, ham farqlanish jihatlari bor. Ushbu belgilar nafaqat frazeologik birikmalarning

ishlatilinishida namoyon bo'ladi, balki ularni idrok etishda ushbu tillarda mavjud bo'lgan frazeologiyalarni aniqlashda va differensiyallashda ham qo'l keladi.

Ko'p leksemali frazeologiyalarning faolligi, va tana a'zosining bajarish funksiyalari bilan bog'liq (qo'l harakat vositasi, boshqa odamlar bilan muloqot, moddiy boyliklarni yaratish vositasi). Bu funksiyalarning barchasi inson hayotida katta ahamiyatga ega.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki, inson faktori so'z boyligini boyitishda juda muhim ro'l o'ynaydi. Inson o'z tanasiga murojaat qilar ekan, undan til birliklarini tashkil qilish orqali dunyo va o'zligi haqida huddi shaffof oynadagi aksi misol o'zini namoyon qiladi.

Somatik iboralarning birikmalari bizni o'rab turgan olam haqida tasavvur hosil qilish vositalaridir, yani inson olamni o'zining shaxsiy dunyo qarashi va o'ylariga tayangan holda tasavvur qiladi. Bunday hollarda "til va anglash" birinchi muhim muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'plab olimlar tomonidan ta'kidlanganidek somatizm qadimgi davrlardan mavjud bo'lib kelgan leksik turkumlarga aloqadordir va frazeologik birikmalarni yaratishda katta imkoniyatlarga egadir. Insonni o'rab turgan olamga tayanib aytish mumkinki, inson doim borliqqa nisbatan uni o'zining obrazi, o'zining dunyo qarashi bilan taqqoslashga harakat qilib kelgan.

Somatik iboralar o'zining turg'unligiga qaramay doimo o'zgarishda va rivojlanishda davom etmoqda. F.Vakk somatik frazalarning o'zgarishini uch turga bo'ladi [Vakk. 1968: 48]:

- uzoq o'tmishga oid va eskirgan materiallar;
- yangi frazeologizmlar va variantlarining yaratilishi;
- materiallarda mavjud bo'lgan semantik siljishlar, yangilanishlar

Frazeologik birikmalarning yig'indisi hamda ularning shakli yuqorida F.Vakk ta'kidlab o'tgan faktorlarga asoslanib o'zgarib boradi. Somatik birikmalar tilning frazeologik tarkibidagi umumiy hajmida avvalambor, inson tana a'zolari deb atalmish so'zlar bo'lib, qadim til leksikasiga borib taqaladi. Ular barqarorligi,

ishlatilish chastotasi va semantik strukturalarning tarmoq otishi bilan harakterlanadi. Barchaga ayonki tilde so'zning yoshi qancha katta bo'lsa uning semantik tuzilishi shuncha keng bo'ladi shunday ekan bunday so'zda frazeologik birikmalarni yaratish imkoniyati ko'p bo'ladi.

Frazeologik brikmalar *bosh, ko'z, burun, qo'l, yurak, quloq, til* kabilar tilning somatik frazeologik birikmalarining tahminan 70% ni tashkil etadi. Inson va jonivorlarning tana a'zolarini nomlashda ularni ikki qisimga bo'lish mumkin ya'ni tashqi a'zolar va ichki a'zolar. Tashqi a'zolar (*ko'z, bosh, qo'l, oyoq*) ular ravshan va ko'rish mumkin bo'lgan a'zolar bo'lsa, ichki a'zolari (*yurak, qon, suyak*) ko'rish va kuzatishning iloji yo'q va ular frazeologik birikmalarning atigi 10%ni tashkil qiladi.

Agarda F.Vakk ning fikrini qo'llab quvvatlasak somatizm tarkibiga nafaqat leksemalarni yani inson tana a'zolarini balki inson va jonivorlarning organizmlariga oid bo'lgan so'zlar (*suyak, teri, qon, asab, mushak, va hokazo*) ni qo'shishimiz lozim, negaki bular hayotiy juda muhim bo'lgan moddiy substansiyalar bo'lib ularsiz biron bir organism mavjud bo'la olmaydi.

Jismoniy FB (frazeologik birliklar) tarkibiga odamning tanasining qismlarini nomlangan so'z-komponentlari kiradi.

Jismoniy FB diqqat va butun e'tibor bilan o'rganishni talab qiladigan, frazeologiyaning keng guruhlaridan biri hisoblanadi. Bu guruh V.P.Shubinaning hisobi bo'yicha tilfrazeologik qismining 15 % ini tashkil qiladi.

Jismoniy FB larning kelib chiqishi ko'pincha metaforik birikmalarning bir birga o'tishidan kelib chiqqan hisoblanadi.

Birinchilardan bo'lib somatizmga qiziqib, izlanishlar olib brogan izlanuvchi F.Vak hisoblanadi. Somatizmlar O.Yespersen, G.Xoyer, J.Layonz, D.Bazarova kabi tilshunoslarning ishlarida ham kuzatiladi.

Somatik FB larning o'zigaxos xususiyati ularning umumiyligi, ya'ni boshqa ko'pgina tillarda mavjudligidir. Ular o'zining ma'nosi va shakliga ko'ra bir biriga yaqindir. "Bosh, ko'z, yurak, burun, og'iz, oyoq" deb atalgan tana a'zolari inson

har kuni ularning vazifasiga ko`r ako`proq foydalanadigan tana a`zolari hisoblanadi.

SFBlarning milliy-madaniy o`ziga xosligi ingliz tilining tarixiy FBlarida ko`rinadi, ingliz xalqining udumlarida, odatlarida, rivoyatlarida, tarixida, bundan tashqari shekspir va boshqalarning badiiy FBlarida aks etadi.

FB lardagi ko`p ishlatiladigan so`zlar qatoriga “hand”, “eye”, “heart”, “foot” kiradi.

Rus tilida ham milliy-madaniy o`ziga xoslik FB ning tarixida yaqqol ko`rinadi.

Bundan FBlar rus tilining maxsus xususiyati bo`lib, boshqa tilda uchramaydi. Ammo rus tilidan o`zlashtirilgan hollarda uchrab qolishi mumkin.

O`zbek tilida arab va tojik tillaridan ko`pgina so`zlar o`zlashtiriladi. Bunday so`zlar o`zbek tilida ko`pgina sinonim so`zlarning paydo bo`lishida yordam beradi.

“Yuz” so`zining 12, “yurak” so`zining esa 6 dan ortiq sinonimlari bor.

O`zbek tilining o`ziga xos xususiyati shundaki, o`zbek tilida hattoki tananing kichkina a`zosi ham o`zining nomi bilan ataladi. Bunday xususiyat hatto rus tilida ham, ingliz tilida ham uchramaydi.

FB tarkibidagi ko`pgina komponentlar ma`lum bir guruhlariga tegishli bo`ladi. Masalan, “head”- semantik guruh ya`ni “o`ylash, firklash” guruhiga; “eye”- “e`tibor”, “hand”- “faoliyat” guruhlariga mansubdir.

Bulardan birortasi har xil yo`nalishdagi ma`nolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, “dirty/soil one`s hands on”- axloqiy ayb qilmoq, qo`lni bulg`amoq, o`zini ish bilan ovora qilmoq.

II BOB. SOMATIK LEKSIKA – LEKSIKOLOGIYA VA TIL LUG'AT TARKIBINING ASPEKTI

2.1 Ingliz tili somatik leksikasining semantikasi va tuzilishi

Ma'lumki idioma iboralar ta'rifi tilshunoslar tomonidan xali hanuz bahsga sabab bo'lmoqda. Joper tomonidan bu ibora semantic jihatdan tor ma'nosi qo'llangan. Jeger esa tor va noaniq ibora ta'rifini qo'llagan va uning badiiy kompozitsiya ma'nosi uning obraz hosil qilolmaydi deb ta'kidlaydi. Irujonning fikriga ko'ra idioma tarkibidagi so'zlarning ma'nosidan aniqlanib bo'lmaydigan tasviriyl ifodadir [Irujo. 1993: 205-219]. Biz Webster lug'atida keltirilgan ta'rifga tayanamiz unda : idiomalar shunday so'zlar birikmaki , uning ma'nosi tarkibidagi so'zlar yig'indisining asosiy ma'nosidan tubdan farq qiladi deyiladi. Deskursiyalarda keng qo'llaniladigan bir qancha idiomalar fikrining ko'rinishini , qanchalik muhimligini umumiy ochib berishga xizmat qiladi.

Tez- tez qo'llaniladigan tarkibida inson tana a'zolari mavjud bo'lgan idiomalar haqida gapirganimizda albatta T.C.Copperning maxsus izlanishlarini tilga olmasdan iloj yo'q. Copper idiomalarning transkripsiyasini yozib chiqishda televizor dasturlarida uchraydiganlarini 3 soat davomidan kuzatgan va xulosa chiqarishda har bir daqiqasi muhim rol o'ynagan [Bogus. 2006: 26]. Barchamizga majoziy ya'ni metafora turiga kiruvchi somatik idiomalar ma'lum(*head shrinker – psixiatr*). Bu usulda so'zlar eskirgan , mantiqsiz hatto grammatik jihatdan xato tarzda idiomatic birikmaga birlashtiriladi. Bundan tashqari quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtiradi (misollarda body idiomalar qo'llangan).

-ba'zi somatizmlar muntazam ishlatililib mantiqan to'g'ri tushuniladi(*the heel of Achilles - Axxiles tovon*);

-somatic idiomalar haqiqiy va taxminiy analogiyani yuzaga keltiradi(*head over heels in debt – qulog'igacha qarzga botgan*);

-shunday iboralar mavjudki ularning asl ma'nosini topish amri mahol ,buning sababi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek tarkibidagi so'zlarning to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmasligida (*a green thumb – qo'li gul, bog'dorchilikdan xabardor*);

-somatik idiomani tashkil qiluvchi hech bir so'zni uning muqobili bilan alishtirib bo'lmazligi (*to have finger in the pie – finger by toe yoki pie by cake ni ishtirok etkaza olmaysiz*).

Somatik tuzilish ingliz tilida juda kam uchratiladigan konstruksiyalardan biri. Ahamiyatli belgilaridan yana biri kinoviy belgilariga yaqin turadigan analogiyalarining turli tillarda oshib borayotganligi hisoblanadi. Bu fraziologik bo'limlarning boshqa bir sematik guruhlardan farqlanib turishiga imkon yaratgan body idiomalarida ancha farq qiladi.

Turli tillardagi body idiomalarning obrazli ma'nosining mos kelishi uning qaysi so'zlardan olinganligi bilan tushuntirib bo'lmaydi. Biz bilamizki ta'na a'zolarining ko'pchiligi arxaik va shu bilan birga lug'aviy qatlamning qaysidir bir qismida joylashgan. Qo'shimcha qilib aytganda ular umumiy funksional va insonning sezgi aspektlari bilan bog'lanmaydi. Izlanishlar davomida butun somatik konstruksiya qismlarini guruhlariga taqsimlab chiqishgan:

1.Somonimik leksika. (gr. *sōma* – tana va *onym* – ism) tana a'zolariga tegishli (*hand, head, leg, neck etc*): *at hand – qo'l ostida ; change hands – sotilgan ; dead from the neck up – ahmoq ; straight from the shoulder – rostini aytish; on the face of it – bir ko'rishda ; from head to foot – boshidan oyog'igacha* [Jaeger. 1999] ;

2.Osteonimik lug'at. (gr. *osteon* – suyak) inson ogranizmining skletik sistemasiga taaluqli: *a bone of content - aybdor ; skin and bones- qoq suyak; a skeleton in the closet - vahimali sir; to make no bones about smth- hech narsada adashmaydigan* [Jaeger. 1999];

3. Angionimik lug'at.(gr.*angeion* – angina)inson tanasida ma'lum vazifani bajaradigan sistemaga tegishli: *too rich for smb's blood- juda qimmat; in one's blood - qo'li bironing qoniga burkangan; blue blood – oq suyak; to curdle one's blood- kimdandir qo'rqish* [Jaeger. 1999];

4.Splannonimik leksika.(gr. *splanchna* – ichak)insonning ichki organlarga tegishli : *at the top of one's lungs – juda jarangli; hard to stomach – kelishish*

qiyin ; *to have the nerve* – surbetlik qilish; *from the bottom of the heart* – chin yurakdan [Jaeger. 1999];

5.Sensonomik leksika.(gr. *sensus* –his-tuyg'u) inson tanasining sezgi a'zolariga tegishli :*to be all ears* – qulog'ini ding qilmoq, diqqat bilan tinglash ; *apple in smb's eye*- ko'z qorachig'idek aziz, sevimli narsa ; *to count noses* – his qilgan holda faraz qilish ; *to have a good nose*- yoqimli hisni tuyish; *to bite one's tongue* –tilni tishlamoq [Jaeger. 1999] ;

6. Umumiy tana a'zolari leksika. *In the flesh*- shaxsiy; *to press the flesh* – mashhurlikka erishish, qo'l uchida ko'rishishmoq ; *put flesh on smth* –biror narsaga kelishish [Jaeger. 1999].

Ko'pgina izlanishlarimiz natijasida idiomalarning ko'pchiligi somatik idiomalar ekanligini guvohi bo'ldik (www.idiomconnections.com saytida 1002 dan ziyod idiomalar kiritilgan).

Birinchi ustunda sensonimik va splanonimik idiomalar berilgan. Hech kimga sir emaski his qilib ,ko'rib, tuyib turgan narsalarimizni tabiatdagi real narsalarga solishtirib ko'rishga harakat qilamiz ,shuningdek somatik leksika ham ichki sistema hisoblanib metofaraning eng yuqori darajasi sanaladi.

No	Guruh nomi	No idiomalar	%
1	Somonimik leksika	581	58%
2	Sensonimik leksika	164	16.4%
3	Splanonimik leksika	151	15%
4	Osteonimik leksika	54	5.4%
5	Angionimik leksika	40	4.2%
6	Umumiy tanaa'zolar leksikasi	10	1%

Jami	1002	100%
------	------	------

Og'zaki nutq hisobi bo'yicha qaralganda body idiomalar (somatizm *hand, head, foot, mouth, eye, heart*) boshqalariga nisbatan eng samaralisidir: *to put one's head in the lion's mouth - hatarga qo'yish ; by word of mouth- aql bilan; from the heart - adolatli; to catch smb's eye - e'tiborni jalb qilish.*

Blood, ear, back, neck, nose, face, bone, shoulder kabi so'zlar bilan tuzilgan idiomalar keyingi o'rinda turadi. Ammo throat, skin, stomach, body, abdomen, nerve, chest, riblar bilan tuzilganlari undan ham so'ngi o'rinda: to have a sweet tooth – shirin so'z, off one's chest – halos bo'lmoq, set one back on one's heels - kimnidir hayratga solish).

Semantik jihatdan qaraganda ingliz somantizmi shaxs emotsiyasi, his tuyg'ulari, xarakter, fenomenaga xos turli xususiyatlarni analiz qilib ko'radi.

Idiomalar jamlammamizda deyarli barchasi *food , hand* bilan ifodalangan.

Shaxs emotsiyasi va tuyg'ulari. Barcha body idiomalar his -tuyg'ular, emotsiyani shakllantiradi hatto g'am-g'ussa, quvonchni ham bildirishi mumkin. Ular kuladi, yig'laydi, qo'rqadi xuddi odamlar singari.

Ijobiy hissiy va nozik farqi sematik guruhda namoyon bo'ladi. "Delight, happiness and joy": *carry smb. of his feet - kimningdir boshini aylantirish ; to rub one's hands - duppisini osmonga otish.* An atmosphere of love and romance is rendered by the somatisms included in the thematic group "Love and passion": *to win smb's hand - nikohga rozilik olish ; to kiss one's hand to smb - salom etmoq; to offer smb one's hand - qo'lini surash (nikoh)* [Suchachova. 2006: 178-180].

Charchoq sezgan holatni tasvirlamoqchi bo'lsak "foot and leg" yordamga keladi: *to be dead on one's feet - o'lib qolgudek charchamoq; smb's legs are giving away - charchoqdan tik oyoqda turolmaslik.*

Xo'rlanganda, qo'rqan paytda: *cold feet - yuragi yo'qlik , to hold one's hand - qurquvdan qaltiramoq ,*

Jasurlik holatida: *to get oneself in hand* - o'zini qo'lga olish. Shaxs xarakteristikasining muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan o'z fikrida tura olish: *to think on one's feet* - tez chiqishib ketish; *a firm hand* - qattiq qo'l, *light hand* - epchillik.

Inson qachon o'zini yaxshi his qiloladi, qachonki ruhiy tayyor bo'lganda, shu sababli bu ruhiy kuch deb nomlanadi: *to find ones' feet* - hayotta o'z o'rniga ega bolmoq; *to be on one's feet* - qaram bo'maslik.

Biron bir narsani egallash mahoratiga ko'ra: *old hand* - tajribali; *a fresh hand* - yangi, tajribasizlik, *all thumbs* - toshbaqadek sekin [Suchachova. 2006: 178-180].

Fenominaning turli belgilari. Bu tuzilmalar shaxsning shaxsiy va ichki tuyg'u aloqalari va situatsiyalariga yaqin bo'lib hayotning rang-barang tasodiflarini namoyon etadi: birlashish va o'xshashlik *arm in arm/ hand in hand, joined at the hip, cheek by jowl*- birga; *shoulder to shoulder* - yelkama yelka.

Shunga qaramasdan odamlar va mamlakatlar o'rtasidagi urushlar va kurashlarni kelishmovchiliklarni quyidagi misollar o'z ichiga oladi:

- **da'vat va chaqiruv** : *all hands to the pumps* - hamma urushga; *every man's hand against one* - hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun ; *gain the upper hand* - g'laba qozonmoq; *hand it to smb* - nimanidir afzal ko'rish;

- **majburlov va zo'rlov** : *to fight hand in hand* – qo'l jangi; *lay violent hands on smb* - aholini ishlatmoq ;

- **ta'sir va kuch**: *to have long hands* - qo'li uzun odam; *to be in smb's hands* – hukimron bo'lmoq; *a hidden hand* - maxfiy ravishda ta'sir etish;

- **kamsitish**: *to stay in smb's hand* - oyog'idan chalish;

- **o'lim**: *to have (got) one foot in the grave* – qabirda tik turmoq; *feet first olamdan o'tmoq*; *to have blood on smb's hands* - qo'li qonga botgan [Moon. 1998].

Hayot har doim ham shirinliklar singari totli bo'lavermaydi. Kuni kelganda qiyinchiliklar sinovlar girdobida qolamiz. Bizning vazifamiz esa qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib o'tishimizdan iborat: *to put one's best foot first* -

javobgarlikni bo'yniga olish; to play one's hand for all it is worth - ishni yakuniga yetkazish; with both hands - bor kuchi bilan ; have one's hands full – bor g'ayrati bilan.

Boshqa holatda ya'ni muvaffaqiyatsizlikka uchraganimizda: *to fall on one's feet - boshi berk ko'chaga kirib qolmoq; to win hands down - yengilni ustidan; to throw in (up) one's hands - o'yindan chiqmoq* [Чердынцева. 1988: 176].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak somatik tuzilmalar qadim –qadimdan to hozirgi kungacha tilning rivojlanishi semantikaga ta'sir o'tkazib kelmoqda.

2.2 O'zbek tili somatik leksikasining semantikasi va tuzilishi

Sezgi organlari deb nomlanuvchi so'zlar frazeologiyasi ayniqsa boy bo'lib, ular orqali inson voqelikni qabul qiladi, voqelikni va unda o'zini anglaydi. Bosh, ko'z, burun, qo'l, yurak, qalb, quloq, til komponentlariga ega frazeologizmlar ikki tildagi barcha somatik frazeologik birliklarning taxminan 70 foizini tashkil qiladi.

Demak, bosh (golova) somatizmi o'zbek va rus tillarida ham hayotiy muhim organ sanaladi. Shu asosda quyidagi frazeologik birliklar vujudga kelgan: boshi chiqmadi “o'limdan qochib qutulib bo'lmaydi” («ne izbejat smerti») ma'nosida, boshini yemoq “yo'q qilmoq” («unichtojit») ma'nosida, boshidan kechmoq “yashashni hohlamaslik” («ne xotet jit») ma'nosida, boshiga qilich kelsa ham “hech narsaga qaramay” («nesmotrya ni na chto») ma'nosida kelishi mumkin [Mirzayev. 2003: 32]. Bu kabi frazeologik birliklar frazeologizmning ichki shakllari sifatida holat obrazini va ushbu obrazga ularni jalb qilish asosi sifatidagi somatizmlar belgilarini bekor qilishni amalga oshiruvchi alohida guruhni tashkil qiladi. Ushbu birliklar ikkiyoqlama asosga ega, global-leksik va metonimik-ramziylikka xosdir: snyat golovu - boshini olmoq, klast golovu - boshini qo'ymoq, ne snosit golovo` - boshiga qilich kelsa ham. Boshini tanidan judo qilmoq – bu hayotdan mahrum bo'lish obrazi, harakat va uning natijalari yaqinligidir.

O'zbek tilida bosh somatizmiga ega FB (frazeologik birliklar) orasida o'zida salbiy xususiyatni aks ettiruvchilari ham uchrab turadi, ular parishonlik,

o'ychanlik, nima qilishni bilmaslikni anglatadi: boshi qotdi (golova zatverdela), boshini og'ritmoq (zastavlyat bolet golovu), bosh aylandi (golova zakrujilas) kabilar. Shunisi qiziqki, o'zbek tilida bosh somatizmiga ega frazeologik birliklar ko'pincha insonning ichki, hissiy holatini ifodalaydi: baxt -- boshi osmonda (golova na nebe, rus tilidagi o'xshashi na sedmom nebe ot schastya), quvonch – boshi ko'kka etdi (golova dostigla neba), dovdiramoq – boshini qayoqqa urmoq (kuda udaritsya golovoy), uyat – boshini bukmoq (ponurit, povosit, opuskat golovu), boshini ham qilmoq (opustit golovu). [Rahmatullaev. 1961: 106].

Bosh somatizmining makoniy belgisi quyidagi FBlarda dolzarbdir: boshidan oshib ketmoq (vo'she golovo`) «juda ko'p» ma'nosida, boshiga ko'tarmoq (podnimat na golovu) «kimnidir qattiq hurmat qilmoq» ma'nosida kabilar. Bosh (golova) somatizmining unga qarshi bo'lgan oyoq (nogi) makoniy belgisi boshdan oyoq FB faollashadi. Rus tilida shunga xos birlik uchraydi – s golovo` do nog (pyat). Ikki tildagi shunday xulosa qilish mumkin, ular tuzulishi jihatidan, semantikasi nuqtai nazaridan va xatto tepadan pastga qaratilgan vertikal harakat yo'nalishi bo'yicha ham to'laqonli mos keladi. [Rahmatullaev. 1961: 81].

O'zbek tilida bosh somatizmli holat asosining FBga quyidagi frazeologizmlar kiradi: 1) bosh aylanishni fiziologik his qilish, charchashdan azoblanish: bosh aylandi, bosh qotdi; 2) boshning imo-ishorasi, harakati: boshini qayoqqa urmoq, bosh suqmoq, bosh egmoq, bosh qo'shmoq, bosh ko'tarmoq; 3) to'y marosimlari harakati: boshlarini qovushtirmoq, boshi ikkita bo'ldi, bir boshini ikkita qilmoq.

O'zbek tilida miya (mozg) komponentli FB “fikrlashga javob beruvchi organ” vazifaviy belgilarga asoslangan: miyasiga kelmoq – rus tilidagi o'xshashi prixodit na um (prixodit v mozgi). Vaholanki, ushbu somatizmga ega ko'pgina FB salbiy bo'yoqqa ega: miyasi achidi (mozgi prokisli), miyasi aynidi (mozgi isportilis), miyasi g'ovlab ketdi (mozgi zagudeli), miyasini qoqib, qo'liga bermoq (vo`sushit mozgi i dat v ruki) [Sarimsoqov. 1978: 35].

O'zbek tilida yuz tananing bir qismi sifatida to'rt leksema bilan ifodalangan: yuz (13), chehra (4), aft (1), bet (1). Ushbu somatizmning

frazologiyaga aylanishi vazifaviy va makoniy belgilar asosida amalga oshadi. Yuz, shuningdek, hissiyotlarning asoratli ifodasi, ruhiy holatlarning hamda inson ichki holatining namoyon bo'lishi o'rni qisoblanadi, masalan: chehrasi ochiq – xoroshee nastroenie, ochiq chehra bilan - s xoroshim nastroeniem. O'zbek tilida shunday FB mavjudki, u erda ushbu somatizm “or-nomus, qadr-qimmat yoki ularning yo'qligi” ma'nolarini faollashtiradi: yuzi yorug, yuzi chidamaydi, yuzi yorug bo'ldi, yuzi erga qaradi, yuzi shuvut kabilar [Sadriddinova. 1985: 87].

Yuz komponentli qator FB “ko'z, burun, og'iz kabilar joylashgan boshning old qismi” belgilariga asoslangan, masalan: yuz o'girmoq – 1) otvorachivatsya, ne smotret; 2) aloqani uzmoq, gaplashishni hohlamaslik (otvorachivat litso); yuziga oyoq qo'ymoq – hurmat qilmaslik, hisoblashmaslik (stavit nogi na litso); yuziga solmoq – ta'na (minnat) qilmoq (brosat v litso); yuzini ochib yubormoq – uyatini yo'qotmoq (otkro't litso); chehrasini ochmoq – xafa bo'lmaslik; chehrasini ochmoq – chiroyli bo'lmoq [Salomov. 1961: 78].

Ko'z (glaz) somatizmi o'zbek tilida frazeologiya hosil bo'lishining eng sermaqsuli sanaladi. Ko'pgina ushbu komponentga ega FB “ko'rish organi” vazifaviy belgisi asosida hosil bo'lgan. Shundan kelib chiqib quyidagi FB paydo bo'ladi: ko'zi ko'ziga tushdi – vstretitsya vzglyadami, ko'zini uzmaslik – smotret neotro`vaya glaz, ko'z tikmoq – dolgo smotret na kogo-libo, ko'zga ko'rinmoq – pokazo`vatsya na glaza, privlekat vnimanie, ko'z tagiga olmoq – prismotret dlya kakix-libo seley kabilar. Ushbu vazifaviy belgilar asosida qarama-qarshi ma'noli FB yuzaga keladi: ko'zi o'tmaydi – ploxo videt, ko'zini yog' bosdi – delat vid, chto ne vidit, ko'zi ko'r, qulog'i kar – nichego ne videt, ne slo`shat, ko'ziga ko'rinmaslik – ne pokazo`vatsya na glaza, ko'zi qamashdi – nichego ne videt, oslepnut, ko'zini olmoq – otvodit vzglyad [Sadriddinova. 1985: 87].

Ko'z bilan ko'rib qabul qilish namunasiga binoan “yodda tutmoq, tasavvur qilmoq” mental ma'nosi hosil bo'ladi: ko'z oldiga kelmoq – vstavat pered glazami, ko'z oldidan o'tmoq – predstavlyat snova i snova, vspominat. A. Isaevning ta'kidlashicha, ko'zinig paxtasi chiqdi, ko'zi yorimoq, ko'zini moshdek ochmoq

kabi FB ekvivalenti yo'q frazeologiyalar sanaladi, ularga o'xshashini biz boshqa tillarda uchratmaymiz. [Isayev. 1976: 107].

Burun (nos) somatizmi o'zbek tilida komponentli-holat asosidagi FBni hosil qiladi, unda "tananing eng oldi qismi" muayyan belgisi ifodalanadi: burnini suqmoq – sovat nos, burnini ko'tarmoq – podnimat, zadirat nos, burnini yerga ishqamoq – bo't silno nakazanno'm va boshqalar. [Soatov. 1989: 34].

Og'iz (rot) somatizmi "taom qabul qilish jarayonida ishtirok etuvchi, insondagi artikulyatsiya va imo-ishora vaqtidagi tana qismi" vazifaviy belgilari asosida FBni qosil qiladi. Shunday qilib, o'zbek tilida "artikulyatsiya vaqtida ishtirok etuvchi tana qismi" belgisiga asoslangan og'iz komponentli FB katta guruhi quyidagilarni hosil qiladi. Ularga "so'zlovchi inson" ma'nosini faollashtiruvchi somatizmga ega frazeologizmlar kiradi: og'zi katta (bolshoy rot, razmer rta ukazo'vaet na sposobnost mnogo govorit) – maqtanmoq, jamiyatdagi ahamiyatli o'rinni egallamoq, og'ziga qarab (smotrya na rot) – o'ylab gapirish, oqziga qaratmoq (zastavlyat smotret v rot) – nutqi bilan mahliyo qilmoq, og'ziga tushmoq (popadat v rot) – mashhur bo'lmoq, og'ziga olmoq (brat v rot) – gapirmoq, jim turmoq, og'iz ochmoq (otkro'vat rot) – gapirishni boshlamoq; va qarama-qarshi «jim turmoq»: og'zini yummoq (zakro'vat rot) – gaplashishdan to'xtamoq, og'zi bormadi (rot ne povernulsya, rus tilidagi aynani – yazo'k ne povorachivaetsya) – biron narsa gapira olmaslik, og'ziga urmoq (bit po rtu) – birovni gapirmaslikka majburlamoq [Salomov. 1961: 98].

Quyidagi FB faqat o'zbek tilida uchraydi: qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'iz-burun o'pishmoq, og'ziga tolqon solmoq, og'ziga qatiq ivitmoq, [Sarimsoqov. 1978: 65-87]. Ular o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, mentalitetini ifodalovchi voqelik bilan bog'liq.

Og'iz (rot) somatizmining anatomiyaga xos va vazifaviy belgilari quyidagi FB mazmunini ifodalaydi: og'zi qullog'ida, og'zi qulog'iga yetdi – rus tilidagi o'xshashi - rot do ushey. Mental hissiyotga ega yoki inson hissiy holati bilan nomlanuvchi FB imo-ishorani o'z ichiga oladi: og'zini ochmoq – hayron bo'lib

qaramoq, og'zi qulog'ida – baxtli bo'lmoq, og'zining tanobi qochdi – xursand bo'lmoq [Soatov. 1989: 67].

Til og'iz bo'shlig'idagi qarakatchan muskulli organ sifatida o'zining “artikulyatsiyada ishtirok etuvchi” vazifaviy belgisi asosida FBni qosil qiladi. Ko'pgina o'zbek FBda til (yazo`k) somatizmi “nutqiy qobiliyatlar” ma'nosini faollashtiradi: gapirmoq - tili uzun, tili bir qarich, tili qichidi, tili chiqdi, tili uzun bo'ldi, tili bir qarich bo'ldi, tiliga olmoq, tilga kirmoq, tilga kelmoq; jim turmoq (tilning imkoniyatlarini cheklamoq) – tili qisq bo'ldi, tili bormadi, tilini tishlamoq, tilini qismoq [Soatov. 1990: 94-95].

Quloq (uxo, ushi) somatizmi asosan “eshitish, tinglamoq, yodda tutmoq” yoki “yaxshi eshitmaslik, diqqatsiz” ma'nolariga ega FBga asosan quyidagilarni hosil qiladi: quloq solmoq quloq bermoq, qulog'iga yetmoq, qulog'iga chalinmoq, qulog'iga quymoq, qulog'iga kirmoq, qulog'iga olmoq, qulog'iga kirmaslik, bir qulog'idan kirib, ikkinchi qulog'idan chiqib ketmoq va boshqalar. [Sadriddinova. 1985: 66].

Bel (spina) somatizmini frazeologiyaga aylantirishda “gavdaning orqa qismi” muayyan belgisi asos hisoblanadi: bel bog'lamoq (zavyazo`vat spinu) – 1) musobaqa qilmoq, 2) biror narsa bilan jiddiy shuquullanmoq, 3) ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan erkaklarning bel bog'lashi; belga tepmok (pnut, udarit po spine) – tasodifan orqadan kaltak yemoq, bel olishmoq (bratsya za spinu) – 1) urushmoq, 2) o'z kuchini sinab ko'rmoq. O'zbek tilida bel somatizmi bilan bog'liq “azob-uqubat” ma'nosini ifodalovchi quyidagi ifodalar mavjud - bel og'ritmoq (spina bolit) va unga qarama-qarshi – beli og'rimaydi (spina ne bolit) [Sarimsoqov. 1978: 56-57].

Yurak, ko'ngil, dil (serdtse) somatizmi o'z fiziologiyasidan kelib chiqib hissiyotlar, qayg'urishlar organi hisoblanadi, uning vazifasi inson hissiy faoliyati sanaladi. Miya va jigar bilan birga yurak hayot va o'limni boshqaruvchi organ qisoblanadi. Sevish – bu ma'lum yo'nalishda, ma'lum markazga qarab yo'l boshlovchi kuchli omilni his qilishdir. Yurak, ko'ngil, dil (serdtse) – “sevgi, ezgulik, samimiylik, mardlik” somatizmiga ega FBlarining o'zbek va rus tillaridagi

ramziy ma'nolari bir xil [Isayev. 1976: 120]. Masalan, chin ko'ngildan (yurakdan), ochiq ko'ngil – ot vsego serdtsa frazeologizmlari samimiyluk ma'nolarini anglatadi, yuragi o'ynadi, sevinchini yuragiga sig'maydi - serdtse pro'gaet ot radosti, ot polnoto` serdtsa quvonchni ifodalaydi, ko'ngil qo'ymoq, ko'ngil bermiq - otdat serdtse sevgini ifodalaydi, ko'nglida kiri yoq (odam) frazeologizmi esa xushmuomala, ko'ngilchan inson haqida gap borganda qo'llaniladi. hissiy holat, yurak urushi belgilari kabi fiziologik his qilishlar ko'pgina quyidagi FBlarda qayd qilinadi: yuragi taka-puka, yuragi qinidan chiqqa yozdi, yuragiga g'ulg'ula solmoq, yuragi dov bermadi, yuragini yormiq, yuragi qoq yorila yozdi, yuragi shuv etib ketdi, yuragi chiqib ketdi, yuragi toshib ketdi, yuragi tars yorilib keta yozdi, yuragi taka-puka bo'ldi, yuragini tirnamiq, yuragini ezmiq, yuragi achidi, yuragini qovuchlab va boshqalar [Mirzayev. 2003: 87].

Qon, xun (krov) somatizmi qayotiy va jismoniy kuch, soqliq ramzi sanaladi. qon temperament, xarakter tashuvchisi qisoblanadi. U kuchli qayqurish vaqtida boshdan kechiriladigan qon aylanishning turli fiziologik sezgilaridan kelib chiqib kuchli hissiy holat, ehtirosning ramzi sanaladi, masalan: yuragi qon bo'ldi - serdtse krovu oblivaetsya, bag'ri qon, qoni qaynadi - krov burlit, krov vskipaet (v jilax). Rus tilida qon komponentli-somatizmga ega FB qarindoshlikni anglatishi mumkin, masalan: krov ot krovi, krov govorit, v krovi, golubaya krov, uzo` krovi, odnoy krovi [Musayev. 1967: 45-46]. Biroq o'zbek tilida qon somatizmli FBni biz uchratmaymiz. Albatta, bu qiyoslanuvchi tillardagi qon somatizmga ega FBning miqdori bilan boqliq. Agar ular rus tilida 36 ta bo'lsa, o'zbek tilida ular atigi 4tani tashkil qiladi.

Ich, ichak (nutro, potroxa, kishki) somatizmlari tana ichki qismining nomi sifatida o'zbek tilida ham muayyan belgi asosida FBni hosil qiladi, masalan: ichi qora – chernoe nutro, ichi g'ash – nutro hemit, ichi pishdi – kishki svarilis, ichini mushuk tatalayapti – vnutrennosti koshki sarapayut, ushbu frazeologizmning rus tilidagi o'xshashi - koshki na dushe skrebut kabilar. Ular ichki qismning fiziologik

sezgilariga kiradi, yanada mavhumlashtirilgan ma'noda ichki his-tuyg'uga (sezgiga) to'g'ri keladi [Barli. 1984: 56].

qo'l – ruka somatizmidagi ramziy ma'nolar ikki tadqiq qilinayotgan tillarda o'xshash va ularning barchasi frazeologik jihatdan og'zakilashtirilgan. qo'l somatizimli FB rus tilida ham, o'zbek tilida ham hokimiyat ramzi sifatidagi qo'lga nisbatan borib taqaluvchi “homiylilik, e'tiborli qo'llab-quvvatlash” ramziy ma'nosiga ega. Bunday FBlarda “olmoq, tutmoq” ma'noli vazifaviy belgi faollashtiriladi, ushbu birliklarning asosi bo'lib qo'lda tutmoq, ushlamoq yoki qo'ldan chiqarmoq obrazi sanaladi. Ushbu o'rinda u javobgarlik ma'nosi bilan bog'lanadi. qiyoslang: brat sebya v ruki – o'zini qo'lga olmoq, brat v ruki – qo'lga olmoq, podat ruku – qo'l bermoq, ruki korotki – qo'li kalta, legkaya ruka – qo'li ochiq kabilar [Mamatov. 2000: 56]. Komponent-somatizmga ega FBda hokimiyat ramzi ko'pincha o'zbek tilidagi frazeologizmlarda, shuningdek, o'zbek tilidagi xuddi shunday ramziy ma'noli frazeologizmlar miqdori ham ustun keladi (“qo'l” komponentli FB o'zbek tilida rus tiliga nisbatan uch marotaba kam).

Oyoq (noga) somatizmi ma'nosi “inson, shuningdek, hayvon pastki oyoqlaridan biri” butun sifatida oyoqqa ham, eng pastki qismga ham kiradi. Shu o'rinda quyidagi FB paydo bo'ladi: oyog'iga yiqilmoq – padat v nogi, oyog'iga bosh urmoq – bitsya golovoy v nogi, oyoq osti bo'lmok – ostavatsya pod nogami «qadrlamaslik» ma'nosida. Ushbu somatizm “turish, harakat” ma'nosining ifodasi sanaladi, masalan: oyog'i tortmadi – noga ne potyanula kuda-to poyti. Oyoq inson uchun unda turadigan tayanch hisoblanganligi tufayli ushbu belgi asosida o'zbek tilida quyidagi frazeologizm yuzaga keladi: oyog'iga bolta urmoq (bit po nogam toporom) «halok bo'lish» ma'nosini beradi. “O'lim to'shagida” ma'nosi quyidagi frazeologizmni ifodalaydi: bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda (odna noga na zemle, drugaya v mogile) [Soatov. 1989: 115].

Shunday qilib, o'zbek tilida somatik FB asoslari, shuningdek, vazifaviy, anatomiyaga xos, fiziologik va somatizmlarning muayyan belgilariga asoslanadi. Bundan tashqari, FB yasama ma'nolari hosil bo'lishda tana qismi ramzi katta ahamiyat kasb etadi, shu bilan birga, qandaydir organ yoki inson tanasining qismi

bilan bog'liq u yoki bu obraz katta rol o'ynaydi. Materialni o'rganish rus va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarda ramziy reprezentatsiyaga qobiliyat mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu ramz o'zida qoyaviy ma'noni mujassamlab, o'z mazmunini kengaytiradi, biroq uni to'liq belgilangan deb hisoblamaydi.

Ekvivalentga ega bo'lmagan o'zbek tilidagi somatik FB semantikasi ko'pincha milliy an'analar, urf-odatlar, shuningdek, bevosita til egalarining dini bilan bog'liq. Ularni qo'llash, ommalashtirish, tizimli aloqalar va boshqa o'ta tilga xos tavsiflari ko'pgina omillardan kelib chiqadi va milliy jixatni o'zida aks ettiradi.

2.3 Rus tili somatik leksikasining semantikasi va tuzilishi

Tana sohalari nomlari metaforik har xillik sifatida samarali qo'llaniladi. Chunki insondagi yangi ob'ektni atashda, avvalo, doimo u bilan birga, unga yaxshi tanish bo'lgan tasavvur yuzaga keladi. Dastavval inson atrofini o'rab turgan narsalarni o'z tana a'zolari bilan taqqoslay boshlaydi, chunki ular doimo ko'z oldida turadi va qiyoslash uchun o'ziga xos namuna bo'la oladi.

Inson tanasi organlarini (qismlarini) turlicha tasniflash va ularni turli belgilariga qarab guruhlariga ajratish mumkin: masalan, tashqaridan ma'lumotni qabul qiluvchi organlar – bu ko'z, quloqlar va burun. Bunda, aksincha, qorin, elka va oyoqlar ishtirok etmaydi. Til – ma'lumotni uzatish uchun javob beruvchi organ. Shuning uchun tilga so'zlovchidan ma'lumot olinishi borasida gapirilganda murojaat qilinadi. Masalan, muloqot uchun zarur bo'lgan harakat va imo-ishorani bajaruvchi organlar ham mavjud. Boshqalari esa bunda ishtirok etmaydi. U yoki bu jihatdan inson faoliyati uchun tananing barcha qismlari zarurdir.

Biroq metaforalarni yaratishda tana qismlarining nomlanishi turli darajadagi mahsuldorlikka ega: ayrimlaridan juda kam foydalaniladi, masalan, *гопб* o'rkach (1), *ребро* qovurg'a (1), *щека* lunj (1), *локоть* tirsak (2), *гортань* bo'g'iz (1), *стопа* kaft (2), boshqalaridan esa – aksincha, juda ko'p – *голова* bosh (118), *глаз* ko'z (130), *душа* qalb (112), *рука* qo'l (160), *нога* oyoq (81), *нос* burun (40), *язык* til (57), *плечо* yelka (26) kabilardan foydalaniladi. Keltirilgan (*голова, глаз,*

пыка, душа, сердце) somatizmlarni T.N.Chayko ko‘p ma‘noni bera olishga qodir “keng ma‘noli” so‘zlar deb nomlaydi, chunki “nomlanish ko‘chishi nafaqat ko‘rgazmalilikni yaratadi, balki mavhumlashtiradi ham” [Chayko. 1974: 8-9].

Leksema-somatizmlar tobora samarador sanaladi, ularning vazifasi insonni tashkil qilishdayanada yorqinroqdir, aynan shu bilan ularni qayta anglash osonligi bog‘liq. To‘plangan materiallardan ko‘rinib turibdiki, frazeologizmlarni yaratish faolligi bo‘yicha qo‘l, ko‘z, bosh kabilarni anglatuvchi so‘zlar birinchi o‘rinda turadi. Qayd qilingan komponentlar bilimning hissiy *глаз (ko‘z)* va mantiqiy *голова (bosh)* pog‘onalariga, shuningdek, uning haqiqiyliigi – amaliyot *пыка (qo‘l)* mezoniga tobora to‘g‘ri mos keladi [Mordokovich. 1972: 2]. FBning ushbu komponentlari o‘zining mustaqil qo‘llanilishida leksik tarkibning yuqori takrorlanish doirasiga, uning tobora qadimiyligi, ijtimoiy ahamiyatga ega qismiga taalluqlidir. Odatda, ushbu ko‘pma‘noli so‘zlar ko‘p yoki kam darajada alohida ko‘chma ma‘nolari bilan hamda ayrim frazeologik birliklarning frazeologik ma‘nolaridasezilarlidir. Biroq hal qiluvchi ahamiyatni, shubhasiz, ularning asosiy, birlamchi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nolari kasb etadi.

Anatomik ma‘noda tana qismlari juda ko‘p. Biroq ulardan ko‘pchiligi deyarli 100-150 yil avval mashhur bo‘ldi. Ushbu nomlar nomutaxassislar nutqida ommalashmagan, maqol, matal, idioma, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, afsonalardan o‘rin olmagan. Faqat tana qismlarigina, an‘naviy tilga oid tushunchada, ramziy ma‘noga ega, *сердце “yurak”* so‘zidan tashqari boshqalarini tananing tashqi organlari sifatida belgilash mumkin. Ulardan ayrimlari ma‘nolarining konnotativ bo‘yoqlarini ko‘rib chiqamiz.

Qabul qilinishicha, *голова bosh* fikr va aql-idrokni boshqaradi. Shunga muvofiq, somatizmning asosiy konnotativ ma‘nosi kelib chiqadi, u mulohazalilik va aql yoki ularning yo‘qligini anglatadi, masalan: *иметь ясную голову (o‘tkir boshga ega bo‘lmoq)* yoki *иметь свою голову на плечах (helkasida boshi bor)*, *внутренняя голова (engil bosh)*, *садовая голова (xotkalla, qovoq bosh)*. Diqqat-e‘tiborini bir erga to‘plash qobiliyati ma‘nosi: *не терять головы (boshi gangib qolmaslik)*; xotirjamligini yo‘qotmoq, ko‘ngilsiz holatlarni e‘tiborga olmaslik

quyidagi frazeologik birliklarda aks etadi [Arsen'teva. 1989: 126].: *tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq (повесить голову), boshini quyi solmoq (понузить голову)*. Qisman bosh "hayot" ma'nosini yoki undan mahrum bo'lish ma'nosini anglatadi (ko'pgina FB boshini uzmoq obrazi bilan bog'liq), chunki u hayotiy muhim organ sanaladi: *неплатиться головой, голову давать на отсечение biror narsa uchun hayotidan (boshidan) ayrilmoq, kallamni kesib tashlayman (ont iborasi) va boshqalar*. Xulq-atvor xususiyatlarini tasirlashda ifodalanuvchi ustunlik semasi qo'shimcha ma'no kasb etadi: *высоко держать голову boshini baland tutmoq (ya'ni o'zini g'urur bilan ushlamoq); boplab ta'zirini (adabini) bermoq (намылить голову/шее кому-либо)*.

Miya somatizmi "fikir uchun javob beruvchi organ" hisoblanadi. Vazifaviy belgisiga asosan miya somatizmi FBda quyidagilarni faollashtiradi: fikrlash jarayonlarini atovchi protsessual semantika FBda "aql": *раскидывать мозгами miyani (kallani) ishlatmoq* hamda ataluvchi birliklarda "aql": *куриные мозги tovuq miya, чугунные мозги miyasini achitmoq, канать на мозги aqlini joyiga keltirib qo'yimoq, вкручивать мозги miyasi joyida emas va boshqalar* [Chernih. 1993: 45].

Yuz – bu boshning old qismi, peshona, qosh, ko'z, qovoq, kipriklar, burun, lunj, soqol va mo'ylovlar joylashgan tananing tashqi ko'rinishidir. U ko'pgina muskullardan tashkil topadi, ularning harakati o'ziga xos mimikali kodni yuzaga keltiradi. G.Kreydlin yuzning uch asosiy vazifasini ajratadi: 1) tuyg'u va munosabatlar ifodasi, 2) o'zaro fikr almashinuv – hissiy va boshqa ma'lumotlarni, shuningdek, shaxslararo munosabatlar aksini oluvchiga (adresatga) uzatish, 3) boshqarib turuvchi, masalan, boshqalarning xabariga nisbatan yuzdagi ta'sirlanish [Grigoreva, Grigorev, Kreydlin. 2001: 228]. Shu o'rinda quyidagi FB paydo bo'ladi: *на лице написано yuzidan ko'rinib turibdi, показывать товар лицом biror narsaning faqat yaxshi tomonini (yuzini) ko'rsatish, на одно лицо quyib qo'ygandek (yuzi) o'xshash, xuddi o'zi, лицом к лицу yuzma-yuz, смотреть в лицо yuziga qaramoq*.

Peshana somatizmi “tananing oldi qismini” anglatadi, shunday ekan, ushbu komponentli FBning asosi bo‘lib muayyan belgi hisoblanadi. SHu o‘rinda quyidagi frazeologizmlar yuzaga keladi: *лоб в лоб yuzma-yuz (turmoq, uchrashmoq), ro‘para kelmoq* va boshqalar. *Miyasi butun, aqli raso* “yuqori, katta” anatomik belgini faollashtiradi. Peshaning kattaligi insonning aqliy va samimiy xususiyatlaridan dalolat beradi. *Kallavaram, qovoqbosh* frazeologizmida inson xarakteristikasi “inson” somatizmining sinekdoxaga oid ma’nosi bilan to‘ldiriladi. Peshana komponentli qator FB quyidagilarga asoslangan: 1) hissiy holatning fiziologik alomatlari bilan, masalan, *глаза на лоб лезут ko‘zi peshanasiga chiqdi*; 2) imo-ishora, yurish-turish bilan – *бить лбом о стены devorga kalla qo‘ymoq*; 3) hayotdan voz kechish holati – *пулю в лоб peshanasidan otmoq*; 4) ijtimoiy holat bilan bog‘liq harakatlarda – *забруивать лоб askarlikka olmoq* (armiyaga olishdan oldin sochni kalga olish) [Molotkov. 1977: 67].

Ko‘z komponenti va ularning ochiqligi ma’lumotga ega bo‘lishni, uning ishonchliligini anglatadi (vazifaviy burchi – “ko‘rish organi”): *острый глаз o‘tkir ko‘z, смотреть во все глаза ikkala ko‘zini ochib qaramoq (ogoh, sergak bo‘lmoq)* – e’tiborlik bilan qaramoq; *открыть / раскрыть глаза на что-то birovning ko‘zini ochmoq* (unga haqiqatni tushuntirib bermoq). Ko‘z vazifasi ma’lum ko‘rish hissi bilan biron ob’ekt yoki sub’ekt tomonidan sabab bo‘lgan frazeologik nomlash ham bog‘liq: *бить в глаза, бить по глазам, бросаться в глаза, резать глаза, колоть глаза ko‘zga yaqqol ko‘rinmoq, ko‘zga tashlanmoq, e’tiborni o‘ziga jalb qilmoq, ko‘ziga yomon ko‘rinmoq* va boshqalar. Somatizmning vazifaviy belgisi bilan FB mohiyati ham bog‘liq: *хоть глаз выколи* – «темно, ничего не видно» *ko‘zingni o‘yib olsa ham, bilmay qolasan* – “qorong‘ulikdan hech nima ko‘rinmaydi”. Inson hayotida organning qadr-qimmati uning bajaradigan vazifasi orqali namoyon bo‘ladi va quyidagi birliklarda somatizmning frazeologiyaga aylanish asosi hisoblanadi: *беречь пуще глаза, хранить как зеницу ока ko‘z qorachig‘idek saqlash, ko‘z qorachig‘idan ham ko‘ra ko‘proq ehtiyot qilmoq* [Novikov. 1982: 87]. Ko‘zlar hissiyot va tuyg‘ularni muhim ifodalovchisi sanaladi, shunday ekan, inson issiy holatinidagi o‘zgarishni aks ettiruvchi ushbu komponent

bilan bog‘liq frazeologik birliklar miqdori behisob. Masalan, xohish – *положить глаз на что-либо / глаза загораются ko‘z tikmoq/ko‘zlari yonmoq*; hasad va noxayrixohlik – *дурной глаз yomon ko‘z, suq ko‘z*; hayron bo‘lmoq, hayron qolmoq – *выкатить глаза*

ko‘zini baqraytirmoq, ko‘zini chaqchaytirmoq [Arsen‘teva. 1989: 111].

Ko‘z qorachig‘i somatizmi “ko‘zning markaziy qismi, ko‘z ichiga yorug‘lik kirituvchi yoriqcha” anatomik belgisi asosida FBni hosil qiladi, masalan, *хранить как зеницу ока ko‘z qorachig‘idek saqlash*.

Burun inson yuzida va hayvonlar tumshug‘ida joylashgan hid bilish qobiliyati organi bo‘lib, u “tananing eng old qismi”: *встретиться носом к носу to‘qnash kelmoq, высунуть нос burnini suqmoq, не казать носа burnini ko‘rsatmaslik (ko‘rinmay ketmoq), соваться своим носом burnini tiqmoq, не видеть дальше своего носа burnidan narini ko‘rmaslik, burnidan ip o‘tkazmoq, поднять (задрать) нос burni ko‘tarilmoq, совать под нос tumshug‘ini osiltirmoq, высунуть нос; уткнуться носом; на носу; воротить нос; утереть нос burni bilan sho‘ng‘imoq, burni ostida*. Ushbu organ orqali inson hidni qabul qiladi va u o‘rab turgan olamni qabul qilish imkonini beruvchi inson yuzining yana bir qismi hisoblanadi, u ro‘y beradigan barcha hodisalarni o‘zi orqali o‘tkazadi, bu esa – hidni qabul qilish – jarayon xususiyatining frazeologik ahamiyatini yaratadi: *держатъ нос по ветру burni anqidi* [Gazarova. 1994: 19].

Og‘iz so‘zi so‘zlash organi ma’nosida qo‘llaniladi (gapirish jarayonida og‘izni ochish obrazidan foydalaniladi), shuning uchun ushbu o‘rinda ezmalik semasiga asosiy e’tibor qaratiladi: *с пеной у рта og‘zida ko‘pigi bilan, разевать (раскрывать) рот og‘iz ochmoq, растягнуть рот (глотку)tilga kirmoq; og‘zini echmoq*; va aksincha, kamgaplik: *воды в рот набрать og‘ziga suv solmoq, og‘ziga tolqon solmoq* – bu erda gapirish jarayonini metaforik almashtirish sifatida ishtirok etadi; *заткнуть рот og‘ziga urmoq, og‘zini ochirtirmay qo‘ymoq*; og‘iz “emoq”, “ichmoq”, “emaslik”, “ichmaslik” ma’nosida: *в рот не брать, капли (маковой росинки) в рот не брать og‘izga olmaslik, og‘ziga bir tomchi ham olmaslik*; og‘iz imo-ishora vositalari yordamida ma’lumotni uzatishda ishtirok

etuvchi yuzning bir qismi: *во весь рот ovozi boricha (baqirmoq), смешинка в рот попала kulgudan og'zining tanobi qochdi, разинуть рот og'zi ochilib qoldi (anqaymoq)*. “Ovqat va ichimliklarni qabul qilishda ishtirok etuvchi tana qismining” vazifaviy belgisi birliklar mohiyatini ifodalaydi: *молоко на губах не обсохло og'zida hali suti qotmagan, замазывать рот og'zini moylamoq, пальца в рот не клади og'ziga barmog'ini solmoqlik* kabilar. Og'iz shuningdek kulguda ishtirok etuvchi tana qismidir, masalan, kulgudan og'zining tanobi qochdi, kulgudan o'zini to'xtata olmadi. Kulguning izchilligi, balandligi borasida butun og'izning ishtirokiga ishora qilinadi: *улыбаться во весь рот ovozi boricha kulish* [Dal'. 1957: 79].

Tomoq va *bo'g'iz* somatizmlari o'zining vazifaviy belgilari asosida frazeologizilarning komponentlari sanaladi: “taom va ichimliklar qabul qilishda ishtirok etuvchi tana qismi”, “insondagi talaffuzda”, “hayotni ta'minlovchi”. SHu o'rinda “eyishni xohlamaslik” ma'nosiga ega FB paydo bo'ladi: *не лезет в глотку tomoqqa sig'mayapti, кусок в глотку не идет tomoqqa kirmayapti*, shuningdek, “chanqashni tuymoq”: *промочить горло tomoqni namlamoq* va boshqalar. Ushbu somatizm “ko'p va tez ichish” ma'nosida ko'p ishtirok etadi – *луженая глотка ichib mast bo'lmaydigan odam*. Tomoq tananing hayot ta'minlovchi qismi sanalar ekan, ko'pincha ushbu belgi quyidagi FB ma'nosini anglatadi: *брать (взять) за глотку hiqildog'idan tutmoq, наступать на глотку bo'g'zidan olmoq, hippa bo'g'toq, приставать с ножом к горлу pichoqni tomog'iga o'qtalmoq* va boshqalar. Bularning barchasi jismoniy zo'ravonlik va hayotdan mahrum qilish obraziga kiradi [Jukov. 1986: 310].

Tish, tishlar somatizmi ularning bajaradigan vazifalari asosida ko'pincha frazeologik ma'noni hosil qiladi. Ularning asosiysi taomni tishlamoq va chaynamoqlik sanaladi. Ushbu ma'no “och qolmoq” ma'noli FBning asosi bo'lib xizmat qiladi: *класть зубы на полку tishining kirini so'rib o'tirmoq, щелкать зубами ochlikdan gezarmoq*. Tishlar kurashning haqiqiy quroli hisoblanadi. Ushbu vazifa quyidagi FB ma'nosiga sabab bo'ladi: *иметь зуб tish qayramoq, , показывать зубы tishining oqini ko'rsatmoq, точить зубы tishini sindirmoq*.

Ushbu guruhning ko'pgina birliklari hayvonlar xulq-atvori bilan bog'lanadi, masalan: *зубы разгорелись, точить зубы* og'izdan suvi keldi, *tish qayramoq* – qo'lga kiritishni xohlamoq. Tishlar somatizmining mahalliy belgisi qurollanish darajasini ifodalash uchun qo'llaniladi *до зубов (вооружать, вооружаться), вооруженный до зубов: tish tirnog'igacha qurollangan*. Tish somatizimli frazeologizmlar sovuqni his qilish hamda ayrim hissiy holatlarni ham qayd qiladi: *зуб на зуб не попадает qaltiroqdan tishi tishiga (jag'i jag'iga) tegmaydi, стучать зубами sovuqdan tishlari taqillayapti, стучув зубы tishni tishga qo'ymoq va boshqalar* [Morozova. 1975: 78-79].

Til somatizmi, avvalo, - bu so'zlash organidir, shuning uchun ushbu komponentga ega deyarli ko'pgina frazeologizmlar aynan “gapirish qobiliyati” ma'nosiga asoslangan: *язык без костей til suyaksiz, болтать языком safsata sotmoq, вертутся на языке til uchida turmoq, давать волю языку tiliga erk bermoq, не сходит с языка og'izdan tushmaslik, срываться с языка o'ylamasdan (bexosdan) aytib qo'ymoq, с слова не идут языка tili qotib qolgan (gapirolmayapti), распускать язык tilim bor deb gapiravermoq (keraksiz, ortiqcha narsalarni gapirmoq), развязывать язык tilga kirgizmoq, упасть на язык jag'i ochilmoq, og'izga tushmoq, остер на язык tili o'tkir, чесать языком gap sotmoq (valdiramoq), тянуть за язык tilini tiymoq, gapga solmoq, gapirishga majbur qilmoq* [Pinhasov. 1969: 145]. Tilning dvigatelli imkoniyatlarini cheklash suhbatda “jim turish(gapirmaslik)”, “suhbatda o'zini tiymoq” ma'nolarini hosil qiladi. SHunga ko'ra, ushbu komponentga ega FBlarda jim turish, gapirmaslikning qarama-qarshi ma'nosi yuzaga keladi: *связывать язык tilini tiymoq, держать язык за зубами tilini tishlamoq, держать язык на привязи tilini yutmoq, tilini bog'lamoq, tilini bosmoq, tili uzilmoq, укоротить язык tilini qisqartirmoq, мум tishlagandek jim turmoq, tili qotib qolmoq*. Tilning ushbu ikki ma'nosidan tashqari – bu ta'm bilish organi hamdir, masalan, *ta'mi tilingni yoradi*. Hayvon organizmining charchash bilan bog'liq holatiga qarashli yana bir ma'noda “itdek” charchadim iborasi oshkora namoyon qilinadi: masalan, *язык на плече tili osilmoq* [Pinhasov. 1969: 145].

Yurak soʻzi – his-tuygʻu, qaygʻurish, kayfiyat ramzini oʻzida kamrab olgan organ. Masalan, samimiylikda: *от чистого сердца, от всего сердца; положя руку на сердце chin yurakdan, chin dildan, qoʻlni koʻksiga qoʻyib, sidqidildan; ogʻriqdan: сердце кровью обливается; сердце болит; удачи: покорить чье-либо сердце yurak achishadi, yurak ogʻriydi; muvaffaqiyatda: покорить чье-либо сердце birovning yuragini oʻziga maftun qilish; qaygʻurishda: принимать что-либо близко к сердцу biror narsani yurakka yaqin olish. Qaygʻurish yoki ichki xususiyat darajasiga yurak tubidagi ularning markazi ishora qiladi: в глубине сердца, до глубины сердца, принимать близко к сердцу yurak tubida, yurak tubigacha, yurakka yaqin olish. Somatizm koʻpincha insonlarning xarakterini tasvirlashda ifodalanadi: иметь золотое / доброе / большое сердце. tilla (mehribon) katta yurak egasi. Yurak koʻpincha sevgi tushunchasi bilan bogʻliq: открыть сердце / отдать кому-то свое сердце; разбить сердце yuragini ochmoq / kimgadir oʻz yuragini bermoq, yuragini chilparchin fqilmoq, baxtsiz qilmoq [Ojegova. 1957: 40].*

Qoʻl komponenti deyarli hartomonlama rol oʻynaydi: ushbu soʻz turli maʼnolarda qoʻllaniladi, ulardan eng koʻp ishlatiladigani – muloqot, mahorat, faoliyat, almashinuv, yaʼni fikrni qoʻllashdir. Ayniqsa “kimdadir nimanidir topish yoki olish maʼnosi” bilan bogʻliq ushbu somatizmga ega frazeologik birliklar koʻp, masalan: *наложить руку на что-либо / прибрать что-либо к рукам / взять в свои руки; руки прочь; попасться в чьи-либо лапы chang solmoq (egallamoq), qoʻlga kiritmoq, qoʻlga olmoq, egallab olmoq, birovni egib qoʻlga olmoq, qoʻlini tortmoq, qoʻliga tushib qolmoq, kimningdir tuzogʻiga tushmoq. Faoliyat maʼnosi, masalan: развязать руки; быть связанным по рукам и ногам qoʻlini bogʻlab qoʻymoq, qoʻl-oyogʻi bogʻlangan; mahorat, ish sifati quyidagi misollarda aniq ifodalanadi: золотые руки, из рук вон плохо, руки не доходят до чего-то, не покладая рук tohir qoʻllar, qoʻlga yaramaydi, juda yomon, qoʻli ishga bormaydi, tinimsiz ishlamoq. Muloqot va almashinuv maʼnosi quyidagi FBlarda aks etadi: переходить из рук в руки / ходить по рукам / из рук в руки; из первых / вторых / третьих рук qoʻldan-qoʻlga oʻtmoq, qoʻldan-qoʻlga,*

birinchi/ikkinchi/uchinchi qo'l (bilmoq, nimanidir sotib olmoq). Qo'llar maqsad, niyat timsolidir: *просить руки qo'lini so'ramoq*. Chap va o'ng qo'lga bo'linish alohida e'tibor kasb etadi: *левая рука не ведает, что творит правая; быть чьей-то правой рукой; иметь дырявые руки o'ng qo'ling nima qilayotganini chap qo'ling bilmasin, kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq, teshik qo'llarga ega bo'lmoq* [Ojegova. 1957: 69].

Oyoq so'zi – butunlay pastki qismni bildirish uchun qo'llaniladigan asosiy so'z. Ushbu somatizmning asosiy frazeologizmi bo'lib tananing ushbu qismi bajaradigan vazifasi hisoblanadi – “makonda tana harakati”, gorizontal holatda tanani tik tutish, ushlash” [Teliya. 1996: 121].

Oyoq harakat va tezlik ramzidir. Mavjud ifodalarda oyoqlar ko'pincha boshga hamda u bilan bog'liq insondagi mental boshlanish nuqtasiga qarama-qarshi qo'yiladi: *дурная голова ногам покою не дает* axmoq bosh oyoqqa dam bermas. Bundan tashqari, oyoqlar o'ziga ishonch, muvaffaqiyat, barqarorlik ma'nolarini (ham o'z, ham ko'chma ma'noda, chunki ular mavhum ma'noni beradi) ham anglatadi: *встать на ноги; обрести (твердую) почву под ногами; выбить почву из-под ног. oyoqqa turmoq, mustahkam tayanchga ega bo'lmoq, tayanchini (o'ziga ishonchni) yo'qotmoq* [Arutyunova. 1990: 39].

Eshitish, tovush qabul qilish organi sifatidagi ma'no bilan bog'liq quloq komponentiga ega FBlarga: *растерять уши, развеивать уши, прослушать все уши, пропускать мимо ушей, приклонять (преклонять) ухо (слух), наострить уши, уши вянут, слушать во все уши, на ухо, туг (крепок) на ухо qulog'idan ayrilgan, berilib quloq solmoq, o'zini eshitmaganlikka solmoq, beparvolik bilan tinglamoq, qulog'ini ding qilmoq, diqqat bilan quloq solmoq, quloqqa yoqmaydi, odamning eshitgisi kelmaydi, qulog'i og'ir; darajamiqdor ma'nosidagi quloq: qulog'igacha qizarimoq (uyalmoq), qulog'igacha qarzga botgan; quloq juft organ sifatida boshqa insonning xuddi shunday organiga bevosita yaqin turishi: qulog'ini qulog'iga tekkazib gaplashmoq* [Ojegov. 1999: 143].

Yelka to‘g‘ri ma‘noda – bo‘yindan qo‘lgacha bo‘lgan gavda qismi bo‘lib, biron narsani elkasida ko‘tarmoq tasavvurini o‘z-o‘zidan yuzaga keladi, shuning uchun ushbu komponentga ega FB asosiy ma‘nosi aynan shu bilan bog‘liq: *взвалить на плечи, висеть на плечах, выносить на своих собственных плечах, сваливаться (валиться) на плечи birovning zimmasiga yuklamoq, hamma og‘irlikni o‘z zimmasiga olmoq, elkasiga tushmoq*. SHuni ham qayd qilish joizki, ushbu komponent bilan bog‘liq qarama-qarshi ma‘no ham mavjud bo‘lib, u ko‘pincha ko‘chma ma‘noni anglatadi – javobgarlikni birovning zimmasiga yuklash, yukidan soqit bo‘lish shular jumlasidan: *с плеч долой, сбрасывать (сваливать, скидывать) с плеч, перекидывать на плечи ishni elkasidan soqit qilish, elkasidan tushirmoq (qutulmoq), mas‘uliyatni birovning ximmasiga yuklash; yaqinlikni anglatuvchi ushbu somatizmli FB ham mavjud, masalan: elkama-elka turib*. Biroq “elka” so‘zi ancha ilgari hind-evropa oilasidan kelib chiqqan bo‘lib, shuning uchun ko‘pgina evropa tillarida “bel” ma‘nosini anglatadi. Shundan kelib chiqib, *elka* va *bel* komponentli FB juda o‘xshash, ba‘zan esa sinonimlashgan, masalan, *стоять за плечами – стоять за спиной orqasida turmoq (elkaning, belning)*. *Bel* – gavdaning bo‘yindan dumg‘azagacha bo‘lgan orqa qismi. SHu bilan bog‘liq ko‘pgina ifodalar bog‘liq: orqasini ko‘rsatmoq, orqa o‘girmoq, orqasidan zarbaberamoq. Ushbu somatik komponentli FB, shuningdek, “holi joni qolmay charchaguncha ishlamoq” semasiga ega – *belni mayishtirib, jon koyitib ishlamoq* [Ojegov. 1999: 143].

Somatik frazeologizmlar asosida inson yoki hayvonlarni kuzatishning katta qismi yotadi. Tana qismlarining muhimligi ma‘nolarimos somatizmlarni o‘zida qamrab oluvchi frazeologizm guruhlarining mavzuga oid turli-tumanligi va miqdori bilan bog‘liq (quyidagi *qo‘l, bosh, ko‘z, oyoq, yurak* somatik konponentlarga ega frazeologizmlarni *o‘rkach, tirsak, yuz, hiqildoq* kabi somatizmlar bilan qiyoslang).

To‘plangan materiallardan kelib chiqib barcha somatik frazeologizmlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) Insonning atrof-muhitga va boshqa odamlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi somatik frazeologik birliklar, shuningdek, insonlar orasidagi o'zaro munosabatni ham ifodalaydi: oyoqdan chalmoq (zimdan, zarar etkazish niyatida, yomonlik qilmoq), oyog'iga yiqilmoq (yalinmoq, biror narsa so'ramoq), oqasini ko'rsatmoq (e'tiborsizlik ifodalamoq, tumtaraqay qochmoq), oqasini o'girmoq (mensimaslik, e'tiborsizlik qilmoq), og'ziga urmoq, ovozi o'chirmoq (gapirmaslikka majburlamoq), birovning aybini yuziga solmoq (nasihat chilmoq), qo'lga erk bermoq (kim bilan urushmoq, urmoq), qo'l-oyog'ini tiramoq (biror narsaga qarshilik qilmoq), qo'llari hayajondan titramoq, qo'l berib kelishmoq bitim tuzmoq), quvib etmoq, ikkala kuragini erga tekkizmoq (g'olib bo'lmoq), o'z qo'ynida ilon saqlamoq (birovga yaxshilik qilib yomonlik ko'rmoq), tumshug'ini teskari qilmoq (iltifotsizlik bilan rad etmoq), biror narsaning faqat yaxshi tomonini ko'rsatmoq (hammasini yaxshi ko'rinishda taqdim qilmoq), ko'zlarini joydiratmoq, ko'zini lo'q qilmoq (anqayib qarab turmoq) va boshqalar.

2) Insonning jismoniy va hissiy holatini chizuvchi, uning harakatlarini tasvirlovchi somatik frazeologik birliklar: aybni birovga to'nkamoq (ag'darmoq) (aybni aybdordan aybsizga ag'darmoq), boshini silamoq (maqtamoq, erkalatmoq), tepa sochi tikka turdi (dahshatdan), boshini egmoq (xafa bo'lmoq), yig'loqi (kimdir yig'lasa, yig'lashga tayyor), tishi tishiga (jag'i jag'iga) tegmaydi (sovuqdan, qo'rquvdan qaltiroymoq), tilni tiymoq (ortiqcha gap gapirmaslik, gapirishda ehtiyot bo'lmoq), tilini osiltirib yugurmoq (tez chopmoq), tilini tishlamoq (tinch o'tirmoq), qalbni tilka-pora qilmoq (ruhiy azobni boshidan o'tkazmoq), yuragidan uzib tashlamoq (o'zini biror kimsani yoki biror narsani esdan chiqarishga majburlamoq), yuragim tushdi (qo'rquvdan), laqillatmoq (qo'lga tushirmoq, boplab aldamoq, chuv tushirmoq), og'zidan ko'pigi chiqmoq (qizg'in gapirmoq), ko'zini olaytirib qaramoq, baqrayib qarab turmoq, ko'zlarini baqraytirmoq (sinchiklab. qat'iy qaramoq), ko'zi yonmoq (g'azab hissini ifodalamoq), ko'z suzmoq, ishva qilmoq (kimgadir ishvali qaramoq), ko'kragini qalqon qilmoq (qahramonona himoya qilmoq), yuzma-yuz, bosh egmoq, ta'zim qilmoq (o'tinib iltimos qilmoq), yonma-yon (juda yaqin) kabilar.

3) Insonning sifatiy-baholovchi, obrazli xarakteristikasini, ya'ni uning aqliy qobiliyatlari, o'zini tutish tarzini ifodalovchi somatik frazeologik birliklar: *quruq gavda, quruq savlat (ko'rinishidan basavlat, mohiyatan esa nimjon), elkador barvasta odam (basavlat ko'rinishga ega odam haqida), mis tomoq (baqirib kuylash qobiliyatiga ega odam), qo'li gul odam (hamma ishga mohir odam), o'rtamiyona (mashhur bo'lmagan odam), birinchi qo'l (sifatning yuqori darajasiga ega), oltin qo'llar (ishining ustasi), qo'li egri, g'irrom (o'g'rilikka moyil odam), cho'p-ustuxon, arvohdek xunuk (tasqara odam), anoyi emas, chakki emas (yaxshi didli odam), yomon ko'z (yaxshilik istamaydigan odam nigohi), katta yurak (mehrison, hozirjavob odam), og'zi bo'sh (o'ta ezma odam), tili o'tkir (zaharhanda), zaharli (achchiq) til (g'iybatchi, tuhmatchilar), kalla ishlaydi (fahmli, idrokli), fahmi yo'q, befahm, ovsar, galvars (ahmoq, kaltafahm odam), poxol boshli (ahmoq, kaltafahm), hech narsadan toymaydigan odam (beparvo, bag'am, ishratparast, umidsiz odam) kabilar.*

4) Tana a'zolari bilan bog'liq an'anaviy ramzni aks ettiruvchi somatik frazeologik birliklar: *qo'lini ko'ksiga qo'yib (ochiqdan-ochiq), tilini tiymoq (jim bo'lmoq, gapirishdan o'zini tiymoq), yurakka pichoq sanchmoq (qalbiga ozor etkazmoq), boshini devorga urmoqlik (umidsizlik, irodasizlik), boshini quyi solmoq (umidsizlanmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq), boshini silamoq (maqtamoq), boshga chiqmoq, hammayoqni boshiga ko'tarmoq (sho'xlik, to'polon qilmoq), boshini changallamoq (dahshatga tushmoq, umidsizlanmoq), boshi osmonga etmoq (xursand bo'lmoq), mazasi og'zingda qoladi, og'zingning suvi keladi (juda mazali), qo'li bilan ko'rsatmoq (ochiqdan-ochiq birovni ayblamoq), barmoq bilan sanagulik (juda kam, oz), doimo yuziga solmoq (biror narsani doim yodiga molmoq), yuziga tupurmoq (nafratlanmoq, jirkanmoq), ko'zini ochmoq (o'zining afzalligini ko'rsatmoq), labini burmoq, labini cho'chchaytirmoq (xafa bo'lmoq), ensani qashimoq (boshi qotgan, nima qilishini bilmay qolgan), kaftdagidek (aniq, ravshan), bosh egmoq, ta'zim qilmoq (o'tinib iltimos qilmoq, minnatdorchilik izhor qilmoq), tiz cho'kmoq, cho'kka tushmoq (avf, kechirim so'ramoq), qovurg'asini sanamoq (birovni urmoq, do'ppaslammoq), qorin ushlamoq*

(qattiq kulmoq), chang solmoq (birovning narsasini egallab olmoq), qo'llarni ikki yonga tutmoq (qaltiramoq, titramoq), qo'l siltamoq (e'tibor qilmaslik), qo'li qichimoq (kim bilandir urushishni istamoq), qo'lma-qo'l (birgalikda), elkasini qismoq (hayron bo'lmoq), qo'l ko'tarmoq (kimnidir urishga harakat qilmoq) kabilar.

Ta'kidlash joizki, frazeologizm-somatizmlarning bunday tasnifi semantika nuqtai nazaridan, ya'ni frazeologik birliklarning mohiyati e'tiborga olingan holda o'tkazildi. To'plangan materiallar tasniflanib, shu narsa namoyon bo'ldiki, somatik frazeologizmlarning barcha guruhlarida ham biz tomondan ajratilgan turlar (ular esa oltmishdan ortiq) mavjud emas. Bu, albatta, asosan frazeologizmning semantik mazmundorligi va somatizmning etakchi komponentiga ega somatik FBning bevosita miqdori bilan bog'liq.

Somatik frazeologik birliklar asosiy miqdorining semantikasi insonning hissiy-ruhiy hayoti bilan bog'liq. Hissiyotlar o'zida insonning atrof-muhit bilan bog'liq o'zaro aloqasi real jarayoni aksining o'ziga xos shaklini aks ettiradi. Muhit bilan o'zaro faol aloqa jarayonida inson unga befarq bo'lib qolmaydi, odamda ushbu holatlarga nisbatan uning sub'ektiv munosabatini ifodalovchi kechinmalari vujudga keladi. Shuning uchun nimadandir samimiy quvonuvchi, ko'zlari yonuvchi insonning lablari kulguga ochiladi. Biz darg'azab bo'lganimizda esa beixtiyor mushtumimizni qattiq siqamiz, tushunmay hayron bo'lamiz – musht ko'taramiz.

Sezish ko'pincha his-tuyg'ular bilan kuzatiladi, ular bilan birgalikda hissiyotlar inson anglash faoliyatining asosini tashkil qiladi, shuning uchun his qilishning turli tashqi, ichki va aralash jihatini anglatuvchi idiomalar mohiyatida ma'lum hissiyotga qaratilgan ko'rsatma bo'lishi mumkin. Biz tomondan ko'rib chiqilgan somatik frazeologik birliklar orasida ro'y berayotgan hodisalarga javoban u yoki bu hissiyotni ifodalovchi (*qo'rquv, vahima, nafrat, g'azab, quvonch, xursandchilik, umidsizlik xavotiri, g'amginlik, hasrat, og'riq, engillik, hayajon, dard-alam, sarosimalik, jirkanish, g'azablanish, hayron bo'lish, hijolat tortish, uyat* kabi) ko'pgina idiomalar uchraydi. Materialni tahlil qilish jarayoni

quyidagi frazeo-semantik maydonni ajratish imkonini berdi: salbiy hissiyotlarni ifodalovchi – *nafratlanish, g‘azab; xavotir, qayg‘u; qo‘rquv, dahshat; umidsizlik; hijolat tortish, uyat*; ijobiy hissiyotlarni ifodalovchi – *ajablanish; quvonch; xursandchilik, zavq-shavq; muhabbat, tinchlanish* kabilar.

Zamonaviy rus tilida turli hissiyotlarni ifodalovchi somatik frazeologik birliklar orasida “qo‘rquv” va “quvonch” ma’nosiga ega FB ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qo‘rquv – “narsa-buyum va hodisalar orqali yuzaga keladigan hissiyot bo‘lib, u o‘zida xavf-xatar yoki tahlikani qamrab oladi” [Levitov. 1964: 56]. Qo‘rquvni his qilish jadalligi darajasi bo‘yicha frazeologik birliklar izchil qatorni hosil qilmaydi, balki ikki guruhni tashkil qiladi: birinchi guruhga qo‘rquvning darajasini ko‘rsatmasdan uning holatini anglatuvchi oborotlar kirsa, ikkinchi guruhga esa – dahshatga olib boruvchi kuchli qo‘rquv holatini ifodalovchi FBlar kiradi, bunda ikkinchi guruh birinchisiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Quyidagi somatik frazeologik birliklar qo‘rquvning darajasini ko‘rsatmasdan uning holatini ifodalaydi: *tishi tishiga (jag‘i jag‘iga) qo‘rquvdan tegmaydi, qo‘rqanidan tizzasi dag‘-dag‘ titraydi, yuragim tushdi, yubragim uzildi, boshini changallamoq, qo‘llarini ikki yonga tutmoq* kabilar.

Quyidagi somatik komponentlarga ega FB dahshat holatini beradi: *tepa sochi tikka turdi, joni chiqib ketdi, qo‘rqib ketdi, naq yuragi yorilay dedi, yuragi chiqib ketay dedi, odamning quti uchadi, etlari jimirlab ketdi, seskanib ketdi* kabilar.

Quvonch – muhim insoniy hissiyotlardan biri bo‘lib, u psixolog (ruhshunos) va fiziologiklarning ko‘pgina tadqiqotlariga muvofiq, tashqi holatning keng chizig‘ini ifodalaydi. Uning tobora yorqin va oddiy alomatlari bo‘lib **tabassum** va **kulgu** sanaladi: “ushbu namoyonlik engil tushunib anglanadi va deyarli har doim xursandchilik hissidan dalolat beradi”. Xursandchilikning boshqa mumkin bo‘lgan o‘lchamlari orasidan K.Izard **jo‘shqin harakatlantiruvchi faollikni**, shuningdek, **tana harorati o‘zgarishi bilan birikkan yurakka xos qisqarish takrorlanishining ortishini** hamqayd qiladi [Izard. 2006: 34]. Buning oqibatida esa “quvonch” mohiyatli FB paydo bo‘ladi, ular o‘z tarkibiga *og‘iz bo vecь pom, смешинка в рот попала – о смехе* (ovozi boricha kulmoq, kulgisi qistab qoldi,

kulgidan og'zining tanobi qochdi, kulgidan o'zini to'xtata olmay qoldi- kulgu haqida), tishlar скалить зубы – о смехе, улыбке (lablarini ochib tishlarini ko'rsatmoq – tabassum, kulgu haqida), qorin хвататься за животы, надирать животы - смеяться (kulguning zo'ridan qornini ushlamoq, kula-kula ichagi uzilmoq-kulmoq), yurak сердце прыгает от радости, браться за сердце, от полноты сердца (shodlikdan yuragim o'ynaydi (gupullaydi), yurakka ta'sir qilmoq, yurak to'lib-toshdi) kabilar.

Qo'rquv va shodlikni ifodalovchi FBlardan tashqari **ajablanish, hayron qolish** *делать большие глаза, глаза на лоб лезут (ko'zini katta-katta ochmoq, ko'zi peshonasiga etdi), xavotir, vahima* *кошки скребут на сердце (yurakni it tirnayapti), uyat yoki hijolat* *не знать, куда глаза девать, кровь бросилась в лицо (ko'zini qaerga olib qochishni bilmaydi, yuzi qizarmoq), qahr-g'azab* *сверкать глазами (ko'zlarida g'azab o'ti yondi) kabima'nolarga ega somatik* FBning etarlicha miqdori mavjud.

Ta'kidlash joizki, universal (har tomonlama) deb nomlash mumkin bo'lgan somatik FB ham bor. Ushbu FB hartomonlamaligi shunda namoyon bo'ladiki, ularni tamomila qarama-qarshi matnlarda qo'llash mumkin, ya'ni ular inson xursand yoki xafa bo'lganda, zavqlangan yoki g'azablanganda ham qo'llash mumkin. Masalan, *qattiq ta'sir qilmoq* frazeologizmi nafaqat qayg'u va hasratda, balki quvonchni ifodalash uchun ham qo'llaniladi.

Qiyoslang: Mashhur musiqachining chiqishi barchaga qattiq ta'sir qildi. *Eh, Pavka, yurakka ta'sir qiluvchi g'amgin bir narsa chalib ber!* (N.Ostrovskiy) va *Rasm shunday jozibadorki, yurakka qattiq ta'sir qilib uni quvontiradi* (O.Berggols). Asosan bunday hartomonlama xususiyatga yurak – qalb komponentli frazeologizmlar xos bo'lib, bu, o'z navbatida, bunday komponentli FBning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Boshqa *ko'zi kosasidan chiqmoq* FBni taqqoslang. Bizga odatiy bo'lgan ma'nodan tashqari, ya'ni “nimagadir hayron bo'lmoq, qattiq ajablanish, taajjublanish holatiga kelmoq” frazeologizmi, odatda, jiddiy og'riq, qo'rquvni boshidan o'tkazgan kishi haqida yoki o'zi to'g'risida gapirganda nutqda

qo‘llanilishi mumkin. Qiyoslang: *Ko‘chada nima bo‘layotganiga ko‘zi tushgan zahotiyoq uning ko‘zlari kosasidan chiqdi: chinqirish, qahqaha, baqiriq*. Birinchi rang kapitani, Novikov-Priboy, – *Qo‘rqitma! – (Galya) odamning g‘ashini keltiradigan darajada baqirdi. – Qo‘rqita olmaysan. O‘zining esa qo‘rquvdan ko‘zlari kosasidan chiqdi*. (Gladkov), Volnitsa. *Aylanishlarning birida harbiy xodim jimgina nimadir chaynab o‘tirardi. Men unga front orqasida nemislar orasida ekanligini aytganimda uning ko‘zlari kosasidan chiqdi*. (P.Vershigora), Lyudi s chistoy sovestyu.

Demak, bunday FB turli matnlarda mutlaqo turli-tuman, ba’zan esa qaroama-qarshi his-tuyg‘u va kechinmalarni anglatishi mumkin. Bir tomondan, ularga ushbu hartomonlamalikni biz tomondan o‘rganilayotgan birliklar tarkibiga kiruvchi komponent-somatizmning o‘zi beradi. Chunki, yuqorida qayd qilinganidek, somatizmlarning ko‘pgina qismi “keng ma’noli” so‘zlar sanaladi. Biroq u yoki bu frazeologik birliklar tarkibidagi somatik komponent ishtiroki mavjudligining o‘zi butun frazeologik oborotlar mohiyatida ushbu komponent semantik tarkibi ishtirokining isboti hisoblanmaydi. Boshqa tomondan esa, ushbu ifodalar tobora mavhumdir, bu esa bunday FBning u yoki bu his-tuyg‘uni ifodalashdagi hartomonlamalilikni belgilaydi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, bu kabi frazeologizmlarning asosiy qismi o‘z tarkibiga *yurak (qalb)*, *ko‘z*, *bosh* kabi somatik komponentlarni qamrab oladi. Bu esa tasodif emas, chunki inson tanasining ushbu qismlari (organlari) to‘g‘ridan-to‘g‘ri insonning hissiy, ruhiy holati bilan bog‘liq (*yurak* – his-tuyg‘u, qayg‘urish, kayfiyat ramzi bilan bog‘liq organ bo‘lsa, *ko‘zlar* – hissiyot, tuyg‘ularning muhim ifodalovchisi, *bosh* – tafakkur va aql-idrokni boshqaradi, shuningdek, insonni yaxlit aks ettiradi). Oyoq, qo‘l, bel, elka, tirsak, burun kabi somatik komponentlar bilan bog‘liq FBlarda esa bunday qonuniylik biz tomondan aniqlanmagan. Ular yoki umuman yo‘q, yoki ancha kam uchraydi, bu esa bizga ushbu qonuniylik faqat komponentlaridanbiri *yurak (qalb)*, *bosh*, *ko‘z* sanalgan FBlardagina maqbuldir deb taxmin qilish imkonini beradi.

Ifodali harakatlar hissiyotning ekspresiv tomonini aks ettiradi va soʻnggi vazifani bajaradi. Insonning maʼlum taʼsirlanishini aks ettiruvchi imo-ishora va yuzni burushtirishlar koʻpincha soʻz orqali ifodaga ega boʻladi. Rus va oʻzbek frazeologiyasida imo-ishoraning ikki asosiy turi ajratiladi: kommunikativ va simptomatik (biror narsadan darak beruvchi) [Kreydlin. 2001: 66].

Birinchi guruhga xabarni oluvchiga ataylab imo-ishora bilan uzatiladigan maʼlumot beruvchi imo-ishoralar kiradi. Oʻz tabiatiga binoan ular haqiqiy dialogik imo-ishoralardir (*musht bilan qoʻrqitish, qoʻl orqali imlab chaqirish, tilini chiqarish, barmoq bilan koʻrsatish, koʻz qisish, bosh egib taʼzim qilish, barmoq bilan aylantirish* va boshqalar). Ikkinchi guruh imo-ishoralari – simptomatik (darak beruvchi) – soʻzlovchining hissiy holatidan dalolat beradi. Darak beruvchi imo-ishoralarga misollar: *labini qismoq, labini tishlamoq, barmoq bilan stolga urmoq*. Darak beruvchi imo-ishoralar fiziologik harakat va kommunikativ imo-ishoralar orasidagi oraliq holatni egallaydi. Ular harakat bilan avval fiziologik boʻlgan har qanday hissiy holatni yaqinlashtiradi [Kreydlin. 2001: 70].

Imo-ishoralar har doim ramziydir, frazeologiyaga aylangan imo-ishoralar esa belgiga aylanadi. Garchi imo-ishorani tasvirlashda tayanch komponentlar (tana, organing maʼlum qismi) barcha til sohiblari tomonidan birlamchi maʼnoda bir xil qabul qilinsa-da, imo-ishoraning oʻzi esa turli maʼnoda qabul qilinadi.

SHunday qilib, maʼlum imo-ishora yoki usiz kuzatiladigan turli hissiyot, his-tuygʻu, sezgi, holatlarni beruvchi mutlaqo koʻpgina somatik FB asosli sanaladi.

Har bir hissiyotda psixologlar (ruhshunoslar) uch komponentni ajratadi: 1) ichki kechinmalar; 2) muomalaga oid taʼsirlanish; 3) ichki organlarning fiziologik oʻzgarishi.

Bundan tashqari, fiziologik va ruhiy kechinmalar yagona nerv (asab) faoliyatining ikki tomoni sifatida ishtirok etadi. Hissiyotlarda tashqi taʼsirni aks ettirish bir vaqtning oʻzida organizmning vazifaviy holatini boshqarishda ham subʼektiv jarayon (anglashdagi kechinma), ham qator fiziologik mexanizmlar (hissiyotlarning fiziologik namoyoni) amalga oshiriladi [Shingarov. 1971: 55].

Og‘zaki (verbal) hodisalar ko‘pincha frazeologiyaga aylanadi. Ko‘pgina diniy imo-ishoralar xatto Injilda ham frazeologiyaga aylantirilgan, masalan: *sochini yulmoq (qattiq pushaymon bo‘lmoq)* – xafagarchilik, qayg‘u belgisi. Ushbu holatda jumla hosil qilish metonimiya asosida amalga oshiriladi. Frazeologik birliklar paydo bo‘lishiga sabab bo‘luvchi erkin so‘z birikma umumiy ma‘nosining semantik yangilanishi turli tasavvurlarning qo‘shilib ketishiga asoslanishi mumkin. Masalan, *aql-xushini yo‘qotmoq (sevib qolmoq)* – taassurotning o‘xshashligi bo‘yicha metafora va belgining mubolag‘asi; teshik bosh – so‘zlovchiga qarata narsa-buyum bilan yuzaga keltiriladigan umumiy taassurotning o‘xshashligi bo‘yicha sinekdoxa va metafora va boshqalar.

V.N.Teliya metaforaga aylantirishni ixcham iboralar (idiomalar) hosil bo‘lishining asosiy mexanizmi deb hisoblaydi. Narsa-buyum, xususiyat, jarayon, holatlarni nomlashni o‘ylangan mo‘ljaldan (fikrdan) kelib chiqib, shunga o‘xshashini izlashga, biroq tilda allaqachon nomlangan mohiyatga murojaat qiladi. Metaforaning yangi nomlar yaratish vositasi sifatidagi mahsuldorligi o‘xshashlik asosida taqqoslash xususiyatini belgilaydi, so‘ngra turli mantiqiy tartiblar bilan o‘zaro nisbatdagi mohiyatni sintezlashni (umumlashtirishni) ilgari suradi [Teliya. 1996: 168].

V.N.Teliya tomonidan ishlab chiqilgan funksional-nominativ tasnifda metaforaning uch turi ajratiladi (ushbu funksional-nominativ tasnif asosida metafora ijodkori nominativ intensiyasi va qalbaki usulning ushbu mo‘ljaliga muvofiq o‘zgartirilgan hosilasi sifatidagi metaforaga aylantirishning sabablari yotadi. Qalbaki usul – bu o‘xshashlikka yo‘l qo‘yish bo‘lib, uning ma‘nosi quyidagi shaklda ifodalanadi: “*qanday qilib agar bo‘lganda*”)[Teliya. 1996: 137-140]. Birinchi – ma‘noning aniq turini yuzaga keltiruvchi aynan metafora bo‘lib, unda o‘xshashlik aniq bir xillikka va shu bilan qo‘llaniladigan *qanday qilib* usuliga asoslangan. Metafora his-tuyg‘u organlari orqali bevosita qabul qilinadigan voqelikni belgilash sohasida amal qiladi hamda lug‘at zahirasini kengaytiradi, bu esa, o‘z navbatida, predmetga xos nisbiy harakat yoki tuyg‘ular, ularning sifatiiy va o‘zgaruvchan belgilariga ega “tabiiy ob’ektlar” va artefaktlar nomini ta‘minlaydi.

Bu kabilarga muallif quyidagi somatik frazeologizmlarni kiritadi: *badanim (etim) jimirlashib ketdi, qip-qizil olmadek (yuzi)*, shuningdek, lokatsiyani (joyini aniqlashni) anglatuvchi FB: *yonma-yon (turmoq), juda yaqin, burnining tagida (joylashmoq)*, vaqtinchalik qism: *ko‘z ochib yumguncha, bir lahzada* [Telia. 1978: 141-142]. Ma’noning ushbu turi voqelik ob’ektiga ko’rsatish vositasi orqali kommunikativ jihatdan xizmat qiladi va dunyoni ushbuning “ob’ektiv” bog‘liqligini ta’minlaydi [Telia. 1978: 142]. Konseptual metafora mavhum ma’noni shakllantirishga olib keladi. Bunday metaforaning soxtalik tamoyili nom ma’nosiga shaxsiy nominativ vazifani bajarishiga halaqit beradi, shuning uchun bunday nomlanishdagi jonli obraz unutiladi, ma’nosi esa umumiylikka nisbatan fikrga ega. Konseptual metaforaga somatik idiomalar taalluqli: *miyaga kelmoq, boshda aylanmoq (o‘tirmoq), nazarida, birov bilan baravar, bir xil mavqeda turmoq*. Aynanlashtiruvchi metaforadan farqli o‘laroq konseptual metafora yangi “ideal” ob’ekt yaratadi va tilning nominativ majmuidagi etishmagan joylarni to‘ldiradi [Telia. 1996: 143-144].

Uchinchi turi – obrazli metaforadir. U baholovchi va baholovchi-ekspressiv metaforalar paydo bo‘lishining asosi hisoblanadi. Bu kabi metafora obrazli-estetik vazifani bajaradi. Madaniy-milliy konnotatsiyaga ega “o‘lmoq” konseptini yuklash yangi ma’noni hosil qiladi va “tinch olamdan o‘tish” yangi konsepti, V.N.Teliyaning fikricha, konseptual metaforaga taalluqlidir [Telia. 1978 144]. Ko‘pgina tadqiqotlarda frazeologizmning obrazli tuzulishida birgina emas, balki qator troplar – metafora, metonimiya va boshqalarning o‘zaro aloqasi namoyon bo‘ladi [Telia. 1978: 172-1888]. Bu frazeologik ma’noning shakllanish mexanizmlarini qo‘shimcha tasvirlashni murakkablashtiradi.

Tushuncha va ma’nolarni hosil qilish mexanizmi sifatida metonimiya nafaqat tilga xos belgilarga, balki boshqa semiotik kodlarga ham taalluqlidir [Yakbson, Arutyunova 1990: 126-132].

Metonimiyaga aylanishning asosiy jarayoni hisoblanuvchi tildan tashqari voqelikda predmetlar orasidagi bog‘langanlik munosabati uni real voqelikka yuklaydi. Metonimiyaning metaforadan farqli o‘laroq tobora real jihati asosdan

(dalildan) kelib chiqadi, u obrazli-bog‘langan o‘xshashlik bilan ifodalanmaydi, balki anglanuvchi yoki ularning parsialligi real bog‘langanligi bilan ifodalanadi [Telia. 1988: 181-182].

Inson tanasi, uning qismlari va organlari, avvalo, ular tomonidan bajariladigan vazifalar jihatida bilan muhimdir. SHu o‘rinda uning vazifaviy belgisiga asoslangan ma’no ko‘chishi metonimik mexanizmining eng ko‘p takrorlanish darajasi mavjuddir, uning natijasida jarayon, harakat ma’nosiga ega frazeologizmlar qo‘lga kiritiladi, masalan: *ko‘z* – ko‘rishga oid qabul qilish jarayoni, *quloq* – tinglash (eshitish), *qo‘l* – jismoniy faoliyat, *oyoq* – ko‘chish jarayonlari kabilar. Ushbu o‘rinda *bosh* - o‘ta sarmahsul somatizmlaridan birining o‘rni qiziqarlidir. “Fikrlash uchun javob berish, ko‘pgina hayotiy jarayonlarni nazorat qilish” vazifasi bevosita “miyaga ega” – tananing ushbu qismi anatomiyasidan kelib chiqadi, shunday ekan, uning elementi sanalgan tana va organ qismining tutashishi va parsitivlik mutanosibligi bilan bog‘liq. Tana va organ qismining ushbu farqi juda muhim.

Vazifaviy belgi va uning asosida paydo bo‘lgan ma’no mohiyatan – metonimik ko‘chishdir. *Bosh* somatizmi bilan fikrlash organi vazifasini qabul qilish ushbu tana qismining miyaga nisbatan tashqi mutanosibligidan hamda u haqidagi “sodda” bilim aksidan vujudga keladi.

Ikkiyoqlama metonimik birikuv *qo‘l*, *oyoq*, *til*, *og‘iz* kabi somatizmlarga ega FBlarda kuzatiladi. Ushbu komponentlarni o‘zida qamrab oluvchi birliklarning frazeologik ma’nosi ularning vazifaviy chiziqlari bilan mos keladi va bir vaqtning o‘zida ushbu birikuvning asosi sanalgan obrazni o‘z ichiga oladi hamda predmetli holatning ma’lum bosqichini aks ettiradi. SHunday qilib, “taomni qabul qilish jarayoni” ma’nosi – bu ovqatni og‘ziga joylashtirish nomidir, masalan: *og‘ziga ham olmaslik*, *mutlaqo ichmaslik* “urmoq” – qo‘lni ko‘tarish vaqti nomi, masalan: *qo‘lini ko‘tarmoq* kabilar. Ta’kidlash joizki, frazeologik ma’nolarning bunday turi ularning jismoniy va yuzaga keluvchi harakatlarini oson kuzatish imkonini beruvchi asosan tananing tashqi qismlari nomlariga taalluqlidir.

Somatizmning vazifaviy belgisi asosida hosil bo‘lgan komponentli asosga ega frazeologik metonimiyaning maqbul turi predmetli ma’noga ega FBda insonga xos

qandaydir jihat yoki qobiliyat bo'yicha uni atab ishtirok etadi. Bunda frazeologizm o'zining predmetli kategoriyaga xos ma'nosini butun birlikka yoyib, grammatik jihatdan asosiy komponentning vazifasini bajaradi va u tomonidan bajariladigan vazifaga muvofiq tasnifni murakkablashtirib, butunni qism bilan ifodalaydi. Ushbu tasnifni grammatik jihatdan bog'liq komponent to'ldiradi, masalan: *xom kalla, avbosh (hech narsadan toymaydigan odam), tentak bosh (odam), oltin qo'llar, kuchli qo'l, ortiqcha og'iz* kabilar.

Ma'noning metonimik ko'chishi makonda holatni ifodalovchi FBlarda amalga oshiriladi, masalan: *boshdan kechirmoq, qo'l etadigan (juda yaqin, uzoq emas), qo'l ostida, burnining tagida, ko'z ostida, ko'z oldimda* kabilar. Ushbu jarayon tana qismining muayyan joyidagi belgilarga asoslanadi, anatomik jihatdan esa ancha kamroq, masalan: *qo'l etadigan (juda yaqin)*. Ob'ektlarning o'zining yaqinligi (bog'langanligi) ham lokativ (muayyan) semantika bilan birikuv asosida bo'lishi mumkin, masalan: *tepasida, boshida, oyoq tomonda, poygakda, oyoq ostida*.

Ta'kidlash joizki, somatik komponentli FBlarning birlamchi metonimik ma'nosi o'zgarishning keyingi shakllariga duch kelishi hamda tushunchaning boshqa kategoriyalariga o'tishi mumkin, masalan, makonda masofani ifodalovchi birikmalar ma'lum vaqt ma'nosini oladi: *boshdan kechirmoq, orqasidan, orqavoratdan (bildirmasdan)*. Vaholanki, bunday birliklarning lokativ (muayyan) ma'nosi metonimik ko'chish sanalar ekan, u holda temporal ma'no – metaforik hisoblanadi.

Tilda FBlar ko'chma ma'nosi shakllanishining yana bir mexanizmi ramziy ishora sanaladi. Ramz dunyoni badiiy o'zlashtirish jarayonida o'z-o'zidan yuzaga keladi. Uning asosida obraz yotadi, shuning uchun u vosita emas, chunki obrazning o'zi ham vosita emas. Unda shakl o'rnatiladi va u, o'z navbatida, yanada jo'n va aniq bo'ladi, ramzning o'zi esa grafikaga oid tasvirga intiladi. U butunni qism tarzida tasavvur qilish metonimik qobiliyatiga ega obrazni boyitadi. Ramziy mohiyatni anglatuvchini soddalashtirishga nisbatan bo'lgan umumiy fikr oqibatida obrazning alohida belgisiga – uning makondagi rangi, shakli, holatiga ega bo'lish

mumkin, masalan: *qon* – qizil rangda, *bosh* – shar va bosh shaklini hamda ularning umumiylik belgilarini bir xillashtirish kabilar. Ramziy elementlarga obrazni bunday parchalanishi uni o‘qish imkonini beradi. Obraz matnga “aylanadi”. Ramz o‘zining anglatuvchisini mustahkamlab tavsiflovchi vazifani emas, balki amaliy vazifani bajaradi. U ayrim ma’noga ishora qiladi, biroq uni boshqa ob’ektni ifodalash (tavsiflash) uchun qo‘llamaydi [Arutyunova. 1990: 23-25].

“Agar obrazlar ijod qilinsa, ramzlar esa shakllanadi, ramzga qarab yuksaklikka ko‘tariladi, ko‘payadi, kattalashadi, kengayadi”, - deb ta’kidlaydi N.D.Arutyunova. YUksaklikka ko‘tarilib, ramz inson ustidan hukmronlik qiladi va u qat’iy talabga egadir [Arutyunova. 1990: 26].

Ushbu yuksaklik somatik FB orqali hosil bo‘lgan semantik qatorlarda aniq ko‘rinadi, masalan: *bosh* – “fikrlash”, “xotira”, “o‘zlashtirmoq”, “aql”, “ong”; *qo‘l* - “olmoq”, “bermoq”, “tutmoq”, “ushlamoq”, “urmoq”, “mehnat”, “yordam”, “xususiylik”, “o‘g‘rilik”, “homiylilik”, “hokimiyat”. Ushbu dalil somatik frazeologiyada metonimlik va ramziylikning o‘zaro bog‘langanligidan dalolat beradi.

Ramziylik holatliy asos somatik FB hosil bo‘lishining asosiy mexanizmi sanaladi. Ushbu usul bilan hosil bo‘lgan FBlar belgining belgisi hisoblanadi. Ushbu o‘rinda ijtimoiy, diniy va boshqa kodlarning tilga xos belgilarga intersemiotik o‘tishi ro‘y beradi (birliklarning ushbu turini L.I.Royzenzon va I.V.Abrametslar birga qo‘shilgan omonimiya holati sifatida belgilaydilar, bunda FBlarning ko‘chma ma’nosi bir vaqtning o‘zida uning asl ma’nosi bilan birga mavjud bo‘lishi, ishtirok etishi mumkin) [Royzenzon, Abramets. 1969: 54-63].

Zamonaviy rus va o‘zbek tili somatik frazeologiyalarining ramziylashishi – frazeologik ma’no hosil bo‘lishining faol mexanizmlaridan biridir. Inson tanasi ramzi uning haqiqiy, moddiy mohiyatidan kelib chiqadi, bu esa uni takror va takror metonimiya bilan bog‘laydi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

1) O'zbek tilining somatik FB o'zining ko'pligi bilan (biz tomondan uchdan biri ko'rib chiqilayapti) fe'lli frazeologik birliklarda taqdim qilingan: ko'z tutmok, qo'l kelmok, boshiga urmok. O'zbek tilida ot kategoriyasiga oid, predmetli semantikaga ega somatik FB ancha kam: oq ko'ngil, og'ir oyoq, katta og'iz;

2) ko'pma'nolilik asosan fe'lli somatik FBga xos, chunki fe'lli birliklar aloqa jarayonida tobora ahamiyatli bo'lib, komponent-somatiklik bilan birgalikda yanada mazmunli, katta qajmli bo'ladi, shu bilan birga, ular til egalarining maishiy hayotda uchrab turadigan tushunchalarni ifodalaydi. Somatik FB orasida predmetli somatika bilan ko'p ma'nolilik juda kam uchraydi.

3) ham o'zbek, ham rus tillarida barcha FBni ikki guruhga ajratish mumkin: so'z birikmalari (ochiq qo'l, qo'lga olmoq) va gaplar (qo'li ochiq, og'zi katta, ko'zi pishdi). Biroq qiziqarlisi shundaki, o'zbek tilida bir grammatik qurilishning boshqasiga aylanishi (so'z birikmasi gapga) ehtimoli mavjud: ochiq qo'l – aniqlovchi Q aniqlanmish, qo'li ochiq – ega Q kesim);

4) somatik FB orasida o'zining grammatik tarkibi bo'yicha biz quyidagi turli ko'rinishlarni aniqladik: a) ot va fe'l so'z turkumlari birikuvi qisoblanuvchi FB, masalan: ko'z urishtirmoq; b) ot va sifat so'z turkumlari birikuvi va aksincha hisoblanuvchi FB, masalan: ko'zi tirik, ochiq qo'l; v) son va ot so'z turkumlari birikuvini va aksini o'zida aks ettiruvchi FB: ikki qo'llab, ko'zi to'rt; g) ot so'z turkumi va otning ko'makchilik kelishik shaklidan iborat FB: bag'ri tosh, boshi osmonda; d) ot so'z turkumi va ravishdosh birikuvi qisoblanuvchi FB: jon kuydirib, ko'zini uzmay; e) o'z tarkibida tovushga taqlid so'zlarni qamrab oluvchi FB: yuragi taka-puka, yuragi tars yorilib keta yozdi.

5) o'zbek tilida somatik FBlar asoslari, shuningdek, vazifaviylikka xos (masalan, til somatizmi – “artikulyatsiyada ishtirok etuvchi organ”ga asoslanadi, ushbu vazifaviy belgi asosida FB hosil bo'ladi, ularda “nutqiy qobiliyatlar” ma'nosi faollashadi: ko'p gapirmoq – tili bir qarich, tili uzun), anatomiyaga xos (masalan, og'iz somatizmiga ega FB, bunda anatomiga xos belgi ko'pincha

quyidagi ma'nolarni anglatadi: og'zi qulog'ida, og'zi qulog'iga yetdi – rus tilidagi o'xshashi rot do ushey), fiziologik (masalan, kuchli qayg'urish jarayonida boshdan kechiradigan qon aylanishni fiziologik his qilish: serdtse krovyu oblivaetsya – yuragi qon bo'ldi, bag'ri qon, krov burlit, krov vskipaet (v jilax) – qoni qaynadi) va muayyan (masalan, frazeologiyalashtirish asosida bel (spina) somatizmi “gavdaning orqa qismi” muayyan belgisi sanaladi: bel bog'lamoq, belga tepmoq, bel olishmoq somatizmi belgilarida namoyon bo'ladi.

6) o'zbek va rus tillarida somatik FB orasidagi yasama ma'nolar qosil bo'lishi jarayonida ramziy reprezentatsiya va metaforizatsiyaga layoqat paydo bo'ladi.

7) o'zbek tilidagi ekvivalentsiz somatik FB semantikasi ko'pincha milliy an'analar, urf-odatlar, shuningdek, bevosita til egalarining dini bilan bog'liq. Masalan, faqat o'zbek tilida quyidagi FB uchraydi: qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'iz-burun o'pishmoq, og'ziga tolqon solmoq, og'zida qatiq ivitmoq, ko'zining paxtasi chiqdi, ko'zi yorimoq, ular o'zbek xalqining mentaliteti, milliy xususiyatlarini ifodalovchi voqelik bilan chambarchas bog'liq.

III BOB. INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARI SOMATIK LEKSIKASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

3.1 Chog'ishtirma lingvistika: tushunchalar, yo'nalishlar, tadqiqot prinsplari

Taqqoslash til o'rganishning asosiy (balki yagona) metodidir. Ammo maqsadi va ob'ektiga ko'ra til o'rganishning uch sohasi mavjud, ular: tillar rivojlanishida genetik umumiylikni o'rganuvchi solishtirma-tarixiy lingvistika; tillarning ikkinchi darajali qarindoshligi, til bog'lovchilari, tillarnig paydo bo'lishining genetik umumiylikka bog'liq bo'lmagan holdagi birligini ko'rib chiquvchi areal lingvistika; tillarning genetik yaqinlik darajasidan qat'i nazar bog'liqligi va farqini o'rganuvchi taqqoslama (kontrastiv) lingvistika va tipologik lingvistika.

Fanda taqqoslama (kontrastiv) lingvistika va lingvistik tipologiya masalasi, ularning farqi yoki bog'liqliklari qizg'in muxokamalarga uchragan. V.Skolichko ular orasidagi farqni quyidagicha izohlaydi: Tipologiya solishtirishning asosi sifatida tizimning alohida komponentlarini oladi; ammo ularni barcha yoki mumkin bo'lgan darajada keng miqyosdagi tillarda o'rganadi. Taqqoslama Lingvistika faqat ikki tilni solishtiradi. Biroq tizimning barcha elementlari bo'yicha. Tipologik va taqqoslama izlanishlar rivoji bu tafovutlarni oqlamadi. Taqqoslama tahlilning predmeti sifatida mustaqil ko'rinish, nafaqat ikki balki bir necha tillarda bo'lishi muki. U holda tipologik tahlil tillarning katta bo'limlarini va xatto til strukturasini umumiylicha qamrab olishi mumkin. Demak, Lingvistik tipologiyaning vazifasi – tillarning navbatdagi klassifikatsiyalanishi va umumun insoniyat tili qanday tuzilishi mumkinligini aniqlash uchun til tipining (turli tillarda u yoki bu elementning tiplari mavjudligi, yoki til tiplarining butunligi) belgilanishidir, deb hisoblansa to'g'riroq bo'ladi. Taqqoslama lingvistikaning vazifasi esa nisbatan oddiyroq. U ikki yoki bir necha tillardagi faktlarni umumiylicha va farqlanishini aniqlash maqsadida solishtiradi.

B.Pote tipologik taxlilning uch bosqichini aniqladi: Tipologik xususiyat (tillarni taqqoslashning asoslari) ning aniqlanishi, tilning ushbu xususiyati tavsifi, tilning klassifikatsiyalanishi ya'ni ushbu xususiyat bo'yicha klassifikatsiyalanishda tilning boshqa tillar orasidagi o'rnini aniqlash [Поте. 1992.: 34 - 35].

Ba'zi mualliflar taqqoslama lingvistika va tipologiya orasidagi o'zaro nisbatni quyidagicha ifodalaydilar, tipologiya- mavxumroq fandır, taqqoslama lingvistika esa nisbatan aniqroq: taqqoslama lingvistika tipologiya uchun ma'lumot beradi, tipologiya esa taqqoslama lingvistikaga mos ravishdagi umumiylik va farqlarni izohlovchi vositalarni taqdim etadi.

Tillarni, ularning genetik aloqasini kuzatish va taxminiy bobo tilni tiklash uchun solishtiruvchi solishtirma- tarixiy tilshunoslikdan farqli ravishda taqqoslama lingvistika til tuzilishining sezilarli darajadagi katta ko'lamini qamrab oladi. Shunday ekan, sinxron ravishda dastavval tipologiya va kontrastiv lingvistika taqqoslab ko'riladi. Biroq ba'zi nazariyalarda kontrastiv lingvistika tushunchasi torayaadi va bunda u tillarning solishtirishning boshqa shakllari qarshisiga qo'yiladi. Bu erda ikkita nazariyani belgilash maqsadga muvofiqdir.

Avvalambor, bu xarakterologiya tushunchasi Praga maktabi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, uning taqqoslama lingvistikadan farqi noaniq bo'lib qolmoqda. Lekin Pragaliklar xarakterologiyani taqqoslama lingvistikaga emas, balki Tipologiyaga qarama –qarshi qo'yishgan. Agarda fanning oxirgi ikki tarmog'i farqlanadigan bo'lsa, xarakterologiyaning o'ziga xosligini uning berilgan vaqtda, berilgan tilning ahamiyatli xususiyatlari, ushbu xususiyatlarining implikativ yuzaga chiqarishga intilgan xolda ish olib borishidadir, deb ko'rish lozim. Shunga o'xshash munosabatni biz Sh. Balli ning "Umumiy Lingvistika va Fransuz tili masalasi" nomli mashhur kitobida ham ko'rishimiz mumkin. Bu kitobda Fransuz tilidagi bo'g'inlar tuzilishi xususiyatlari, so'z va ibora urg'usi, morfologiya, leksik semantika, so'z tartibi, so'z yasalishining nemis tili bilan taqqoslanishi til tuzilishining tub xususiyatlari bilan aniqlanadigan o'zaro bog'liqlik ko'rinishlari va tendensiyalari sifatida taqdim etiladi. Insonning tub xarakteri uning turli xarakatlari va mulohazalarida namoyon bo'lgani kabi tilning ham bir-biridan farq qiluvchi

darajalariga tegishli turli xil ko'rinishlarida uning tub tendensiyasi aks etadi[Balli. 1955.: 340].

Taqqoslama (kontrastiv) lingvistika tillarni umumiy ravishda barcha fonologik, morfologik, sintaktik semantik darajalarini o'z ichiga olgan holda taqqoslashni o'ziga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Solishtirilayotgan tillardan birini ba'zida asos-til (yoki tarjimashunoslikdagidek manbaviy til, source/ language) deb ham atashadi. Odatda u izlanuvchining (izlanish natijalarini amalga tatbiq etuvchining) ona tilida tashkil topadi. U bilan qandaydir (o'rganilayotgan va h.k) xorijiy til (maqsad- til, target- language, zielsprache) taqqoslanadi. Taqqoslanuvchi tillarning o'xshashliklari va asosiy ravishda farqli tomonlari ajratib olinadi. Taqqoslash xorijiy tildan ona tiliga yo'nalishda ham amalga oshirilishi mumkin. Ba'zan asos til sifatida baholanuvchi qandaydir faraziy oraliq til (vositachi til) modellashtiriladi. Bunday modelda ikki til uchun umumiy bo'lgan belgilar sanab chiqiladi, har bir aniq til uchun esa asos tildagi qanday belgilar unga xos ekanligi tasdiqlanadi. Bunday model nazariy jixatdan mukammal bo'lgan umuminsoniy tilga dastlabki yaqinlashish deb hisoblanishi lozim. Uchta til taqqoslanishi ham mumkin. Masalan: V.N.Yarseva ko'rsatib berishi bo'yicha, ingliz tilini boshqir maktabi sharoitida o'rgatishda boshqird, rus va ingliz tillaridagi umumiylik va farqlarni aniqlash o'rinli bo'ladi. Tilning umumiy, nazariy tuzilishib qarama-qarshiliklarib tarjima va madaniy aloqalar extiyojidan kelib chiqqan xolda juda ko'p tillar taqqoslanishi mumkin. Bunda asos sifatida qabul qilinuvchi universal til "Tabiatda mavjud bo'lmagan" alohida, lekin barcha tillarning ahamiyatli xususiyatlari yoki boshqacha qilib aytganda, har qanday tilning mavjud potensial xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi ilmiy tuzilmadir. Bunday til mohiyatan inson til imkoniyatlarining hisobidir, muayyan til materialining ushbu tuzilmaga tayangan holdagi tadqiqoti aniq til tizimida tadqiq etib bo'lingan, shuningdek, kelajakda rivojlanishi (periferiya) mumkun bo'lgan kurtaklarni aniqlab beradi. Solishtirib o'rganishning eng samarali usuli qiyoslash, paralel matnlarni analiz qilishdir. o'xshash tarkibga ega bayonlarning o'rganilishi, muqaddas diniy matnlar va ularning tarjimasini vernokulyar tillarga (harmonia

linguarum nomi bilan mashxur) taqqoslanishini yuzaga keltiradi[Ярцева. 1998.: 150]. Kornado Gesnerning (1555) mashxur “Mitridate” sida 25 tildagi “Bizning otamiz” (“Otche nash”) matni yig‘ilgan. Bu an‘ana metod sifatida zamonaviy lingvistikada ham davom ettirildi(X.Veber, V.T.Agmoni, M.Vandrushka va uning maktabi, V.B.Koshkin va boshqalar). Parallel matnlarni o‘rganishning ikki asosiy yo‘nalishini ajratib olish mumkin: tajriba va kuzatish. Tajribaviy o‘rganishda axborot beruvchilar parallel matnlarni bir xil boshlang‘ich rag‘batlantiruvchi xolatga ta’sirlanish sifatida keltirib chiqaradi. Bunday rag‘batlantiruvchilar tarjima uchun (masalan O.N.Seliverstova va boshqalar tadqiqotlarida) mo‘ljallangan bayonotlarda, yoki vizual ko‘rinish mumkin bo‘lgan rasmlar va shunga o‘xshash turli tildagi ma’lumot beruvchilarda modellashtirilishi mumkin.

Bir xolat modelleshtirishda yuzaga kelgan matnlar asosan boshlang‘ich xolatiy rag‘batlantiruvchilarning bir tildagi tarjima variantlaridir. Ular til faoliyati va adabiy sa‘nat voqeligida ham uchraydi. Xristianlarning 4 kitobida aynan bir voqeani Matfey, Marka, Luka va Loanna tomonidan ta’riflanishi bunga misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xikoyalar, xajviy tarzda taqlidiy asarlar, mashxur matnlarning qayta ishlanmalari (shu jumladan intersomiotik tarjima, masalan, adabiy matnning kino tiliga U.Eko ishlari) xam boshlang‘ich xolatning boshqa til yordamidagi reinterpritatsiya variantiga misol bo‘la oladi.

Agar izlanuvchining vazifasi nafaqat aloxida tildagi balki, uning tarjimasidagi turlanishni o‘rganish bo‘lganda tajribaviy metod xam ahamiyatli afzalliklarni berishi mumkin. Bu metodni turli tillardagi tarjimalarni taqqoslashda xam ishlatish mumkin. Izlanish davomida maxsus yuzaga kelgan tarjimalar emas, balki allaqachon mavjud bo‘lganlarini kuzatish, analiz qilish metodini til faoliyatining o‘z amaliyoti tomonidan qo‘yilgan tabiiy lingvistik tajribasi deb atash mumkin. Material sifatida birgina matnning bir yoki bir necha tillarga tarjima variantlari xizmat qilishi mumkin. Parallel tajribalar uchun material tanlashning ikki yoli mavjud. Taqqoslanuvchi tillardan birining tarjimasini ishlatish mumkin va aksincha. Bunda taqqoslanish xar doim bir yo‘nalishda bo‘ladi, xatto bir necha til juftliklari ishlatilsa xam aloxida ikki til taqqoslanishlarining oddiy yig‘indisi xosil

bo'ladi. Bunday izlanishlar asl tilning interferik ta'sirini inkor etmaydi, ya'ni asos qilib olingan tilning til birliklari va tuzilishi mos ravishda tarjima­dagi til birligi va tuzilishining qo'llanilishini keltirib chiqaradi. Ammo taqqoslanuvchi tilning izlanish maxsus ob'ekti bo'lmagan tilga tarjimasidan ham foydalansa bo'ladi. Bunda birlamchi til o'rganilayotganlaridan shakl jihatidan shunday farq qilsinki, ko'rib chiqilayotgan til ko'rinishlari birlamchi til grammatikasida o'z aksini topa olmasin. Bunday yondashuv interferensiyani inkor etadi yoki uni minimal darajaga etkazgan xolda, «tajriba aniqligi»ni oshiradi.

3.2 Ingliz, o'zbek va rus tillari somatik leksikasi semantikasi va tuzilishidagi o'xshash jihatlar va farqlar

Somatik frazeologizmlarning to'laqonli tahlili uchun FB mohiyatining tarkibiy tuzulishini, ularning semantik tashkil topishidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniq tasavvur qilish zarur.

Tilga xos material ustida olib borilgan tahlil uch guruhni aniqlash imkonini berdi:

- 1) FB ma'no jihatidan bir-biriga mos keladi, biroq FB tarkibida turli somatizmlar qo'llanadi;
- 2) FBda bir xil somalar qo'llaniladi va bir xil ma'no kasb etadi;
- 3) FB turli ma'no kasb etadi, biroq bir xil somatizmlar qo'llaniladi.

Guruhlar borasidagi ma'lumotlarni yanada to'liqroq ko'rib chiqamiz:

a) FB ma'no jihatidan mos keladi, biroq turli somalar qo'llaniladi

FBning boshqa tematik guruhlaridan farqli o'laroq somatik FB tobora haryoqlamadir, bu esa turli xalqlarning yagona tafakkurga egaligidan dalolat beradi, bir xil ma'noga ega somatik FB juda ko'p, biroq ularning tarkibida turli somalar qo'llaniladi.

Har bir xalqning tananing u yoki bu qismlari bilan bog'liq tasavvuri mavjud. Masalan, **rus tilida** “bosh” (голова) somatizmi ko‘pincha **ishga layoqatlilik sifati, aql** bilan o‘zaro bog‘lanadi va ular quyidagi FBlarda aks etadi: *“голова садовая, голова дырявая, дубовая, дурья, мякинная, еловая, пустая, соломой набитая”* или в позитиве *“светлая голова, голова варит”*, **ingliz tilida** esa “head” somasiko‘pincha **rahbarlik, rahnomalik** ma’nosida qo‘llaniladi, masalan quyidagi FBlarda: *“better be the head of a dog / ass than the tail of a lion / horse”*; *“ carry one’s head high”* – boshini yuqori tutmoq, *“knock off smb’s head”* – kimdandir o‘zib ketish, birovdan ustun kelish. Bunga misol tariqasida quyidagi FB xizmat qilishi mumkin at the head: to be at the head of the list (ro‘yxatda birinchi bo‘lish); *to go to the fountain head* (eng katta boshliqqa murojaat qilish). **O‘zbek tilida** “bosh” somasiko‘pincha **“turmushga chiqish”** ma’nosida qo‘llaniladi, masalan bunga quyidagi FB larni keltirish mumkin: *“boshi bog‘liq”*.

Ushbu mavzuga yorqin misol bo‘lib ingliz tilidagi “four eyes see more than two frazeologizmi, rus tilidagi “ум хорошо, а два лучше” va o‘zbek tilidagi “bitta bosh yaxshi, ikkitasi undan ham yaxshi” misollari hisoblanadi. Ushbu FB birgina ma’noni anglatadi, ikki odam tomonidan qabul qilingan qaror esa bir inson tomonidan qabul qilingan qarordan yaxshiroq ekanligini anglatadi, biroq barcha uch qiyosiy tillarda turli somalardan foydalaniladi. Demak, ingliz tilida “eyes” komponenti – to‘rtta ko‘z ikkitadan yaxshi (ko‘radi) qo‘llaniladi, o‘zbek tilida “bosh” komponentidan foydalaniladi, rus tilida “голова” (bosh) – bir bosh yaxshi (ishlaydi), ikkitasi esa undan yaxshi, rus tilida soma o‘rnida “aql” mavhum tushunchasi qo‘laniladi. Ya’ni ingliz tilida insonning ko‘z bilan ko‘rish qobiliyati muhimligi qayd qilingan bo‘lsa, o‘zbek va rus tillarida esa insonning fikrlash qobiliyati ilgari suriladi.

Keyingi misollar ham bir xildagi mazmun va mohiyat borligidan dalolat beradi, ular bir-biridan turli somatizmlardan foydalanilishi orqali farq qiladi:

let somebody (something) slip through the fingers – upustitizruk – qo‘lidanchiqarmoq;

fingersitch – руки чешутся (что – либо сделать); qo‘li qichigan.

Barcha uch tillarda ushbu somatizm kimnidir anglatadi, kimningdir bartaraf qilib bo‘lmaydigan xohishni tuyayoiganligini bildiradi, bu esa ko‘pincha salbiydir, masalan, kim bilandir urushmoq, kimnidir urmoq. Biroq ingliz tilida rus va o‘zbek tillaridan farqli o‘laroq, “pyka-qo‘l” soma qo‘llanilgan o‘rinlarda, “fingers” komponentidan foydalaniladi.

beforeone’snose – куда глаза глядят, идти куда попало; ko‘zi boqqan tomonga ketmoq.

“I ran straight before my nose, till I could run no longer” (R.Stevenson, “Treasure Island”, ch.13).

Rus tilida ushbu ifoda ingliz va o‘zbek tillaridan farqli o‘laroq ikki ma’noga ega:

1) noma’lum yo‘nalish bo‘yicha yo‘l tanlamasdan.

Должно быть, этот парень пережил какое-то горе и уехал из родного дома, куда глаза глядят (Гладков, “Вольница”).

2) qaerga xohlasi, xohlagan tomonga.

- Я теперь независима, могу делать, что хочу, поехать, куда глаза глядят (Гончаров, “Обыкновенная история”).

Ushbu guruhga kiruvchi SFB tahlili natijalari quyidagi jadvalda berilgan:

1	It’s written all over his face	У него это на лбу написано	Basharasida yozilgan
2	Sleep with one’s eyes open	Одним ухом спит, другим слышит	-----
3	Wipe smb’s face	Утереть нос кому-либо, заткнуть кого-либо за пояс	Burnini erga ishqalamoq
4	Burn smb’s fingers	-----	Og‘zini kuydirib olmoq
5	Follow smb. at foot	Идти по пятам	-----
6	Under smb’s thumb	Всецело в руках	Kimningdir qo‘lida

		кого-либо	
7	In smb's face	В лицо, в глаза, открыто	YUziga aytmoq
8	To one's teeth	В глаза, в лицо	-----
9	Thumbs up!	По рукам!	-----
10	Have an eye to	-----	Ko'zining ostiga olib qo'ydi
11	Have a finger in smth.	-----	Qo'li bor bo'lmoq
12	An oily tongue	-----	Og'zini moylamoq (znachenie)
13	Before smb's face	Под носом у коголибо	Ko'z oldida
14	A big head	Лоб широк, да мозгу мало	-----
15	Up to the eye	По уши; по горло	-----
16		Язык без костей	Tilning suyagi yo'q
17	In the public eye	-----	Hammaning ko'zi oldida
18	Have one's heart in one's mouth	Душа в пятки ушла	-----
19	Have one's heart in one's work	Уйти с головой в работу	-----
20	Not to have the heart	Духа не хватает	-----
21		Глаза на лоб лезут	Ko'zi chiqib ketay dedi
22	Keep one's eyes open	Держать ухо востро	-----
23	Fed to the teeth	Сыт по горло	-----
24	Escape smb's lips	Сорваться с языка	Tilidan chiqib ketmoq

v) bir xil somalar, bir xil ma'nolar.

Ko'pgina SFB haryoqlamadir va ular ko'pgina xalq va tillarga xos, shuning uchun bir xil ma'noga ega bir xil somalar qo'llanilgan SFB ko'p. Masalan: *"eye for eye, tooth for tooth"* – *"око за око, зуб за зуб"* frazeologizmi. Rus va ingliz tillaridagi bu kabi FBlarning mavjudligi ushbu FB injilga oid etimologiya bilan bog'liq, biroq o'zbek tilida ushbu ma'noga ega FB ham uchraydi, biroq u *"boshga bosh"* – aynan *айнанбаш на баш, голова за голову* frazeologizmi tarkibida boshqa komponentni qo'llash orqali yuzaga keladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, FB ikkita ma'noga ega, birinchisi ingliz va rus tillaridagi ekvivalentga mos keladi, ikkinchisi esa, "biror narsani bab-barobar bo'lish" ma'nosini anglatadi, ya'ni qimmatbaho biror narsa evaziga xuddi shunday qiymatga egasiga almashtirishdir. Ko'pincha bunday FBning ko'p qismi bir tilda o'z o'xshashiga ega bo'ladi, ya'ni ingliz va rus tillaridagi FB ingliz va o'zbek tilidagi, o'zbek va rus tillaridagi FBga mos kelishi mumkin, masalan:

"keep one's tongue between one's teeth" – *держатъязыкззубами* (tilni tiymoq).

But he knew his place and managed to keep his tongue between his teeth. (J.London. "The Mutiny of the Elsinore");

to lend / give a hand – *протянутьрукупомощи* (yordamqo'lini cho'zmoq).

Give us a hand here, Clyde, will you? Let's see if we can get her out. She is fainted (Th.Dreiser, An American Tragedy)

gain the upper hand

I've got the upper hand over you, Fagin; and I'll keep it (Ch. Dickens, Oliver Twist).

get somebody under hand- qo'lga olmoq.

...we can... get him under hand before he has the time to draw (R. Stevenson, "Kidnapped").

Quyidagi jadval o'tkazilgan tahlilni namoyon etadi.

1	Ingliz tilida	Rus tilida	O'zbek tilida
2	Armed to the teeth	Вооруженный до зубов	Tish-tirnog'igacha qurollangan
3	Poke one's nose into smb.s affairs	Совать нос в чужие дела	Birovning ishiga burun suqmoq
4	Catch by the throat	Взять за горло	Bo'g'izdan olmoq
5	Under smb.s nose	Под самым носом	Burnining tagida
6	Tooth and nail	-----	Tish tirnog'i bilan
7	Have an eye to	-----	Ko'zining ostiga olib qo'ymoq
8	From under smb's nose	Изпод самого носа	Burnining tagidan
9	Have a hand in smth.	Приложить руку к чему-либо	Biror ishda qo'li bo'lmoq
10	-----	Стереть с лица земли	Er yuzidan yo'qotmoq
11	-----	Одна нога там, другая здесь	Bitta oyog'ing bu erda, ikkinchisi u erda
12	Be enthroned in hearts	Царить в сердцах	-----
13	At heart	В душе	Ichida
14	A heart of stone	Каменное сердце	YUragi tosh

15	In the fullness of one's heart	От полноты сердца	-----
16	A big heart	Большое сердце	YUragi keng, ichi keng
17	Break smb's heart	Разбить чьё-либо сердце	Ko'nglini sindirmoq, ko'ngliga tegish
18	Kind heart	Доброе сердце	YUragi yumshoq
19		Ногтя не стоит	Tirnoqqa arzimaydi
20	From the bottom of one's heart	От чистого сердца	CHin qalbdan
21	Wooden head	Деревянная голова	-----
22		Закрадываться в сердце	YUragiga o't/ g'ulg'ula tushmoq
23	Lay a finger	Тронуть кого-либо пальцем	Barmog'ini urmoq
24	Wash one's hand	Умыть руки	Qo'lini yuvmoq
25	Have long hands		Qo'li uzun bo'lmoq
26	One hand washes another	Рука руку моет	Qo'l qo'lni yuvadi
27	In the twinkling of an eye	В мгновении ока	-----
28	Fly in the face		Yuziga sapchimoq
	Put smb. on his feet	Поставить на ноги	Oyoqqa qo'yumq

29			
30	Cut the throat	Перерезать горло кому-либо	-----
31	Cut each other's throat	Резать друг другу глотки	Bo'g'izdan olmoq

s) Turli ma'noga ega, biroq tarkibida bir xil soma qo'llanilgan FB

Bunday SFB boshqalariga nisbatan uncha ko'p emas.

At hand – 1) *под рукой, рядом, близко*; 2) *на носу, не за горами* // *qo'l ostida*.

Garchi ushbu FB rus va o'zbek tillarida o'zining ekvivalentlariga ega bo'lsa-da, biroq uning ma'nosi o'zbek tilidagi o'xshashi bilan mos kelmaydi.

1) “*You should be responsible enough to remain at hand when you are needed*” – *Drake was saying to Mc.Gregor.*(J. Aldridge “The Diplomat”).

2) *не за горами, на носу* (close, nearathand).

I saw that a crisis was at hand, and it came (Ch.Dickens “David Copperfield”).

The winter was near at hand, she had no clothes and now she was out of work (Th.Dreiser, “Sister Carrie”, ch.VI).

O'zbek tilida “qo'l” komponenti ham mos keladi, biroq o'zbek tilida “*qo'l ostida*” iborasidagima'nosi tamomila o'zgacha. U birovning rahbarligi ostida kimningdir ish olib borayotganini anglatadi: *U Anvarning qo'l ostida ishlar edi*.

Keyingi FB o'ziga xos qiziqish kasb etadi: “*bite one's lips*” – *кусать губы* (*от волнения, смеха*) – *labini tishlamoq*

She walked up and down, biting her lips and thinking desperately hard (J.Galsworthy “To Let”).

O'zbek tilida ushbu FB quyidagi ma'noda qo'llaniladi: “*кусатьгубыотзлости*”, o'zbek tilida - “*labinitishlamoq*”.

Ingliz tilidagi “on foot” FB quyidagi ma’noga ega: 1) пешком (yayov); 2) живой, живьём (tirik, tiriklayin) (so’yishga mo’ljallangan chorva mollari haqida); 3) ko’chma ma’nosi – harakatda.

Though he got very close up to his game, they were on foot before he saw them.

Ko’chma ma’noda u ro’y berayotgan harakatni anglatadi: *I hear that plans are on foot to build a new school.*

Rus tilida ushbu FB odatda to’g’ri ma’noda qo’llaniladi:

1) быть на ногах, в стоячем положении (*oyoqda turmoq*).

- Он еле держался на ногах.

- Сила у тебя лошадиная, а на сон ты слабый. – Это верно, - согласился Звягинцев. – Я опять могу уснуть на ногах. (Шолохов.«Он сражался за Родину»).

2) в бодрствующем состоянии, встав ото сна (*uyg’oq, bedor holatda, uyqudan turmoq*).

Спали они не раздеваясь, и на рассвете, когда пришли их будить, были уже на ногах (В.Саянов, «Небо и земля»).

3) в хлопотах, заботах, в работе (*urunmoq, elib-yugurmoq, faoliyatda*).

Заработался, нянька. От утра до вечера всё на ногах, покоя не знаю, а ночью лежишь под одеялом и боишься, как бы к больному не потащили. (Чехов, «Дядь Ваня»).

4) здоров, не болен (*sog’lom, kasal emas*).

5) Молодой организм раз победив болезнь, быстро справляется с её остатками. Недели через две Пётр был уже на ногах (Короленко, «Слепой музыкант»).

Shunday qilib, yuqori qayd qilingan tahlillardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkin: shartli ravishda SFBlarni uch guruhga ajratish mumkin. Eng keng guruhni birinchi guruh tashkil qiladi –mos ma’nodagi FB bo’lib, biroq FB tarkibida turli somalar qo’llaniladi. Haqiqatan ham, tillardan birida “eyes” somasi qo’llanilishi mumkin, biroq u boshqa tilga tarjima qilinganda mazmun

o'zgarmagan holda boshqa soma bilan almashtirilishi mumkin. Ko'pincha FB ikki tilda ham mos kelishi mumkin, uchinchi tilda esa o'xshashi bo'lmashligi yoki somatizm – komponentisiz qo'llaniladi. Ikkinchi guruhga bir xil soma qo'llaniladigan FB taalluqli bo'lib, ular bir xil ma'noga ega bo'ladi, shuningdek, ular ko'pchilikni tashkil qilishi bilan farq qiladi, bu esa til sohiblariga ega xalqlarda insoniy tafakkurning umumiyligidan dalolat beradi. Ko'pincha ushbu FB o'zlashtirilgan sanaladi, bu esa ularning ko'pgina tillarda ishtirok etishini ta'minlaydi. Uchinchi guruhga turli ma'noli FB kiradi, biroq ularda bir xil soma qo'llaniladi, ular nisbatan kam uchraydi va odatda tillarning birida somatizm-komponentini qayta anglash orqali kuzatiladi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Somatik frazeologizmlarning to'laqonli tahlili uchun FB mohiyatining tarkibiy tuzulishini, ularning semantik tashkil topishidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniq tasavvur qilish zarur.

Tilga xos material ustida olib borilgan tahlil uch guruhni aniqlash imkonini berdi:

FB ma'no jihatidan bir-biriga mos keladi, biroq FB tarkibida turli somatizmlar qo'llanadi;

FBda bir xil somalar qo'llaniladi va bir xil ma'no kasb etadi;

FB turli ma'no kasb etadi, biroq bir xil somatizmlar qo'llaniladi.

Har bir xalqning tananing u yoki bu qismlari bilan bog'liq tasavvuri mavjud. Masalan, **rus tilida** “bosh” (голова) somatizmi ko'pincha **ishga layoqatlilik sifati, aql** bilan o'zaro bog'lanadi

Ko'pgina SFB haryoqlamadir va ular ko'pgina xalq va tillarga xos, shuning uchun bir xil ma'noga ega bir xil somalar qo'llanilgan SFB ko'p. Masalan: “*eye for eye, tooth for tooth*” – “*oko za oko, zyb za zyb*” frazeologizmi. Rus va ingliz tillaridagi bu kabi FB larning mavjudligi ushbu FB injilga oid etimologiya bilan

bog‘liq, biroq o‘zbek tilida ushbu ma’noga ega FB ham uchraydi, biroq u “*boshga bosh*” – aynan айнанбаши на баши, голова за голову frazeologizmi tarkibida boshqa komponentni qo‘llash orqali yuzaga keladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, FB ikkita ma’noga ega, birinchisi ingliz va rus tillaridagi ekvivalentga mos keladi, ikkinchisi esa, “biror narsani bab-barobar bo‘lish” ma’nosini anglatadi, ya’ni qimmatbaho biror narsa evaziga xuddi shunday qiymatga egasiga almashtirishdir. Ko‘pincha bunday FBning ko‘p qismi bir tilda o‘z o‘xshashiga ega bo‘ladi, ya’ni ingliz va rus tillaridagi FB ingliz va o‘zbek tilidagi, o‘zbek va rus tillaridagi FBga mos kelishi mumkin.

Shunday xulosa qilish mumkin: shartli ravishda SFBlarni uch guruhga ajratish mumkin. Eng keng guruhni birinchi guruh tashkil qiladi –mos ma’nodagi FB bo‘lib, biroq FB tarkibida turli somalar qo‘llaniladi. Haqiqatan ham, tillardan birida “eyes” somasi qo‘llanilishi mumkin, biroq u boshqa tilga tarjima qilinganda mazmun o‘zgarmagan holda boshqa soma bilan almashtirilishi mumkin. Ko‘pincha FB ikki tilda ham mos kelishi mumkin, uchinchi tilda esa o‘xshashi bo‘masligi yoki somatizm – komponentisiz qo‘llaniladi. Ikkinchi guruhga bir xil soma qo‘llaniladigan FB taalluqli bo‘lib, ular bir xil ma’noga ega bo‘ladi.

UMUMIY XULOSA

Tadqiqot ishi uch til ya'ni ingliz, o'zbek va rus tillarida somatik leksikani o'rganishga bag'ishlangan. Ishda FBning mohiyatini somatizm komponenti orqali ko'rib chiqishga va uchta qiyosiy tilda SFBning qiyosiy tahlili tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qilingan. Qiyosiy tahlil quyidagi o'lchamlarda olib boriladi: a) SFB struktur-semantik tashkil topishi; b) SFB semantik-uslubiy jihatlari; v) SFB konseptual mohiyati.

Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirishda tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslanadi, ob'ekt va predmet tavsiflanadi, ishning maqsad va vaziflari ifodalanadi, tadqiqotning aniq usullari borasida ma'lumotlar olib boriladi, uning yangiligi, bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati asoslanadi. Himoyaga olib chiqilgan gipoteza va mazmun aniq ifoda qilinadi.

Birinchi, nazariy bobda o'rganilayotgan muammoning asosiy nazariy qarashlari bayon qilinadi. Ushbu bobda leksikologiya va uning konseptsialari tushunchalari, til lug'at tarkibining tasniflash turlari umumiy va qiyosiy tilshunoslikning obyekti sifatida o'rganiladi

Bobda shuningdek qiyosiy frazeologiyalarning umumiy masalalari ko'rib chiqiladi. Lingvistik adabiyot ustidan olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar turli tamoyillar bo'yicha tizimlashadi. Ulardan keng tarqalgani semantik, vazifaviy va struktur-semantik tasnifga uchragan.

Ikkinchi bobda til materialining tadqiqoti olib boriladi, FB shakllanishida somatizmlarning roli ko'rib chiqiladi, somatizm komponentli FBning semantiko-semantik va konseptual xususiyatlari tahlil qilinadi va ingliz rus va o'zbek tillaridagi qiyosiy tahlili o'tkaziladi.

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga asos bo'la oladi:

1. Somatik FB alohida e'tibor va batafsil o'rganishga loyiq, chunki ular frazeologiya sohasidagi keng va samarador guruhlardan birini tashkil qiladi, ularning frazeologiya hosil bo'lishi bilan bog'liq faolligi qator intra- va

ektrolingvistik omillar bilan belgilanadi. Somatik FB paydo bo'lishining o'ta samarador asosi bo'lib metaforik yoki metonimik ko'chish asosida yuzaga kelish hisoblanadi;

2. Somatizm komponentli ko'pgina FB "Inson" mikrosemantik maydonini tashkil qiladi, u esa konseptual soha orqali taqdim qilinadi: 1) Insonning psixologik holati; 2) Insonning tavsifiy xususiyatlari; 3) Insonning jismoniy tavsifi; 4) Insonning tashqi ko'rinishi; 5) Insonning ijtimoiy kelib chiqishi. Tobora keng konseptual zona bo'lib inson ruhiy va tavsifiy xususiyatlari taqdim qiluvchi konseptual sohalar hisoblanadi, ularda ham ijobiy, ham salbiy yo'nalganlik kabi konseptual belgilar namoyon bo'ladi.

3. Qiyosiy tillarda SFB semantikasi sezilarli darajada mos keladi, bu esa ko'rilyotgan tillarda semantik hosilaning umumiy qoidalari, qabul qilish va anglashning o'xshashligi, hayotdagi o'xshash sharoitlar, voqelikning bir xil ob'ektlari bilan belgilanadi. FB o'ta to'liq mos kelishi bo'yoqdor-baholovchi jihatning ma'nolari amalga oshishida qo'lga kiritiladi. Bu esa ushbu FB guruhi "tabiiy"likka taalluqli ekanligidan dalolat beradi (A.D. Rayxshteyn termini), bu esa barcha insonlarga xos umumiy sharoitlarda qaror topadi va shuning uchun bir xil ma'no bilan turli tillarda bir-biridan farqli o'laroq yuzaga kelishi mumkin.

4. "head", "golova" (bosh) komponentli ko'pgina FB "fikrlash" semantik guruhiga kiradi; "eyes", "глаза" (ko'z) komponentli FB esa – "qabul qilish, e'tibor" guruhiga; "hand", "рука" (qo'l) komponentli FB "faoliyat, egalik" guruhiga kiradi. Biroq har bir xalqda tananing u yoki bu qismlari bilan bog'liq o'z tasavvurlari bo'lgani sababli ushbu guruhlar qo'shimcha tasavvurlarga ega bo'lishi mumkin. Agar rus tilida "golova" (bosh) somatizmi mehnatga layoqatlilik sifati, aql bilan bog'liqlikni ifoda etsa (*голова садовая, дубовая, дурья, мякинная, еловая, пустая, соломой набитая; светлая голова, голова варит*), ingliz tilida esa "head" somasi ko'proq rahbar, etakchi ma'nosida qo'llaniladi: (*better be the head of a dog/ass than the tail of a lion / horse*); *carry one's head high* – *derjat golovu vysoko*, "*knock off smb's head*). O'zbek tilida "bosh" somatizmi asosan "turmushga chiqish" ma'nosida qo'llaniladi (*boshi bog'liq, boshi ochiq*).

5. SFBning milliy-madaniy o'ziga xosligi qadimiy milliy SFBda yorqin aks etadi, ularni, o'z navbatida, quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. ingliz xalqi an'anasi va urf-odatlarini aks ettiruvchi SFB;
2. rivoyatlar bilan bog'liq SFB;
3. adabiy kelib chiqishga ega SFB;
4. injilga xos kelib chiquvchi SFB;
5. Tarxiy dalillarni aks ettiruvchi SFB;
6. Diniy qonun va qoidalarni aks ettiruvchi SFB;
7. O'lchov darajalarini aks ettiruvchi SFB.

O'zbek va rus tillarida yuqorida qayd qilingan ekstrolingvistik omillar bilan bir qatorda SFB shakllanishiga tabiblik va u bilan bog'liq odatlar katta ta'sir ko'rsatgan.

Rus va ingliz tillariga nisbatan o'zbek tilida SFBning katta miqdori kuzatiladi, bu esa somatizmlar tizimida sinonimik ifodalarning ko'pligi bilan belgilanadi ("yuz" somatizmini belgilash uchun 8 leksema, "yurak" somatizmini belgilash uchun 5 leksema mavjud). O'zbek tili somatizmlarining milliy-madaniy o'ziga xosligi, bir tomondan, xalqning o'ziga xos an'ana va urf-odatlari mavjudligi bilan belgilanadi, masalan, o'zbek tilida turmush qurish, to'y va boshqa bayramlar bilan bog'liq somatizmlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

6. Struktur-semantik jihatdan SFB uch guruhga ajratiladi. Eng yirik guruhni birinchi guruh, mos ma'noga ega SFB, biroq FB tarkibida turli somalar qo'llaniladigan guruh namoyon etadi. Ikkinchi guruh, bir xil somalar qo'llanilgan vabir xil ma'noga ega FB ham o'zining ko'pchilikni tashkil qilishi bilan farq qiladi, bu esa inson tafakkurining umumiyligidan dalolat beradi. Uchinchi guruh, turli ma'no kasb etuvchi, biroq bir xil soma qo'llaniladigan FB, nisbatan kamroq uchraydi va odatda tillardan birida somatizm-komponentini qayta anglash orqali kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1) Islom Karimov. Barkamol avlod-mamlakatimizni rivojlantirishda hal qiluvchi kuch // Ma'rifat, 2012 yil 18 fevral.
- 2) Islom Karimov. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. – 16-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 163.
- 3) “CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori //«Xalq so'zi» gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660)-son.
- 4) “Ta'lim to'g'risida”gi qonun. 1997 yil 29 avgust. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1997. – B. 67-80.
- 5) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997 yil 29 avgust. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1997. – B. 80-94.
- 6) “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi Qonun (1991 yil 20 noyabr, 2004 yilda kiritilgan o'zgartirishlar bilan);
- 7) Алехина А. И. Семантические группы во фразеологии современного английского языка. - Минск: Высшая школа, 2004
- 8) Aldridge J. The Diplomat. Ch.49. Foreign Languages Publishing House. Moscow. 1955.
- 9) Арсентьева Е. Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц. - Казань: Из-во Казанского ун-та, 1999.
- 10) Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка (на английском языке). TheEnglishWord. – Ленинград: издательство «Просвещение», 1966 – 346с.
- 11) Алфиренко Н.Ф. Спорные вопросы семантики. – М.: Гнозис, 2005.– С.5

- 12) Арсентьева Е.Ф. Фразеология и фразеография в сопоставительном аспекте. – Казань: Казань гос.ун-т, 2006. – 172с
- 13) Арутюнова Н.Д. (ред.), Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990.
- 14) Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц (ориентированных на человека). Казань., КГУ. 1989.
- 15) Буранов Ж. Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М. 1983
- 16) Бушуй А.М. Язык и действительность. – Ташкент: Фан, 2005. –144 с.
- 17) Бушуй Т.А. Фразеосистемность в контрастивном лексическом словаре // Вестник Каракалпакского Отделения Академии Наук Республики Узбекистан. – Нукус, 2001. - №5. – С. 92-93
- 18) Bushuy T.A. Phraseological Equivalentation as a Problem of Contrastive Lexicography // Contrastive Linguistics. – Sofia, 1996. – №1.-P. 30-35
- 19) Bushuy Tatyana. Sinxronikvadiaxroniktilshunoslik. – Umumiytilshunoslikbo'yichao'quvqo'llanma. - Samarqand: SamDCHTI, 2003.-50.
- 20) Бергсон А. Собрание сочинений, Т. 1. – М., 1992.
- 21) Балли Ш. Французская стилистика. М., Высшая школа, 1961.
- 22) Богус З.А. *Соматизмы в разносистемных языках: семантико-словообразовательный и лингвокультурологический аспекты.*- Автореф. дис..... канд. фил.наук.- Майкоп, Кабард.- Балканский ГУ, 2006.-26 с.
- 23) Барли. Н. Структурный подход к пословице -М.: 1984.
- 24) Bo'ronova D.O'zbekistonda yoshlar siyosati: bosh tamoyillar va ularning mohiyati. –Toshkent: G'.G'ulom, 2008. –B.170.
- 25) Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии // Вопросы языкознания. - 1997. - № 6.

- 26) Долгополов Ю.А. Сопоставительный анализ соматической фразеологии: на материале немецкого и английского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 1973.
- 27) Даль В.И. Пословицы русского народа; М.: 1957.
- 28) Данилов В.С., Куницкая Н.В. Образование соматических фразеологизмов на основе семантических сдвигов составляющих компонентов // Современные проблемы романистики: функциональная семантика. - Т.1., - Калинин, 1986.
- 29) Деххода Али Акбар. Фразеологический словарь персидского литературного языка В 16 томов – Тегеран: Тегеранский Университет, 1984.
- 30) Джусупов М. Специальная лексика и пословицы (лингвоконтрастивные и методические аспекты) Ташкент. 2013.: 41.
- 31) Эмирова А.М. Некоторые актуальные вопросы современной русской фразеологии. – Самарканд, 1972.
- 32) Григорьева С.А., Григорьев Н.В., Крейдлин Г.Е., Словарь языка русских жестов, Москва-Вена 2001, с. 228
- 33) Гаврин С. Г., Фразеология современного русского языка: в аспекте теории отражения, Пермь, 1974
- 34) Газарова Г.М. Стилистика фразеологии в словаре. (Типологический анализ на материалах английского и русского языков): Автореферат, дисс. канд. филол. наук.– Сам., 1994. – 19 с.
- 35) Гумбольдт В. Фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984.
- 36) Хайруллина Р.Х. Картина мира во фразеологии: Автореферат дис. ... докт. филол. наук. – М., 1997. – 50 с.

- 37) Хайруллина Р.Х. Картина мира во фразеологии: Тематико-идеографическая систематика и образно-мотивационные основы русских и башкирских фразеологизмов: дис. ... д-ра филол. наук. – М., 1997. – 536 с.
- 38) Изард К.Э. Психология эмоций. – Санкт-Петербург: Издательский дом Питер, 2006.
- 39) Исаев А. Соматические фразеологические единицы узбекского языка. Номзодлик диссертацияси. – Ташкент, 1976.
- 40) Irujo S. *Steering Clear: Avoidance in the Production of Idioms*. // IRAL. - 31, 3, 1993. - P. 205-219.
- 41) Jaeger, Leon. *The Nature of Idioms: A Systematic Approach*. Bern: Peter Lang, 1999. Print.
- 42) Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978.-160с.
- 43) Жуков В.П. Русская фразеология. – Москва: Высшая школа, 1986.
- 44) Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – Москва: Просвещение, 1978.
- 45) Ziyodinov M. SHet tillarni o‘rganish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida izchil olib borilmoqda.// Xalq so‘zi, 2014 yil 8 may. –B.3.
- 46) Kavka, Stanislav J. *A Book on Idiomatology*. Žilina: University of Žilina, 2003. Print.
- 47) Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 344 с
- 48) Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 4-е, переработанное и дополненное. - М.: Русский язык, 1984. – 942 с. (АРФС)

- 49) Крейдлин Г.Е. Улыбка как жест и как слово (к проблеме внутриязыковой типологии невербальных актов)//В.Я. – 2001.
- 50) Куницкая Н.В., Мельник В.Ф., Данилов Б.С. Функционально-семантическая динамика соматических лексем в составе фразеологических единиц // Дериватология и динамика в романских и германских языках. - Кишинёв, 1989.
- 51) Колесникова С.М. Функционально-семантическая категория градуальности в современном русском языке. – М.: Высшая школа, 2010.
- 52) Капанадзе Л.А. Жест в разговорной речи // Русская разговорная речь. М.: Наука, 1970.
- 53) Левитов Н. Д. О психических состояниях человека. М., 1964
- 54) Moon, Rosamund. *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus Based Approach*. Oxford: Clarendon Press, 1998. Print.
- 55) Мордкович Э.М. К вопросу о семантических полях соматических фразеологизмов. Новгород, 1972.
- 56) V. M. Mokienko образы русской речи. Москва. 2011. – 24 с
- 57) Мусаев К. Инглиз тилидан о'збек тилига фразеологик иборалар таржима қилиш масаласига доир. Тошкент, О'збек тили ва адабиети, 1967.
- 58) Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. – Ленинград: Наука, 1977.
- 59) Мордкович Э.М. К вопросу о семантических полях соматических фразеологизмов // Вопросы семантики фразеологических единиц славянских, германских и романских языков. Ч. 2. – Новгород, 1972.

- 60) Мордкович Э.М. Семантико-тематические группы соматических фразеологизмов // Актуальные проблемы фразеологии/ Э.М. Мордкович. – Новосибирск, 1971.
- 61) Мугу Р.Ю. Полисемантизм соматической лексики (на материале русского немецкого языков): автореф. дис.... канд. филол. наук. – Майкоп, 2003. – 24 с.
- 62) Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari” , Toshkent, 2003.
- 63) Маматов А.Э. О‘збек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2000. – 56 б.
- 64) Морозова Л.А. Антитеза в пословицах // Фольклор как искусство слова. М., изд МГУ, 1975.
- 65) Нгуен Дык Тон.
 Специфика лексико-семантического поля названий
 частей человеческого тела (на материале русского и вьетнамского языков):
 автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1998.
- 66) Новиков Л.А. Семантика русского языка. – Москва: Высшая школа, 1982.
- 67) Ожегов С.И. Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М., 1999.
- 68) Ожегов С.И. Словарь русского языка / Под ред. Н.Ю. Шведовой. М., 1957
- 69) Ожегова С.И. О структуре фразеологии (в связи с проектом фразеологического словаря русского языка). // Лексикографический сборник. Вып. II. – М., 1957. – 40с.
- 70) Пинхасов Я.Д. Ҳозирги о‘збек адабий тили. - Лексикология ва

фразеология. – Тошкент, 1969. – 145 б.

71) Пеклер М.А. Русско-немецкая идиоматичность. М.: Автореферат кандидатской диссертации. Тбилиси. 1967.

72) Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. — Самарканд, 2003.

73) Рахматуллаев Ш. Об одной особенности грамматической структуры фразеологической единицы в современном узбекском языке // Вопросы фразеологии. Новая серия, вып. 106. – Самарканд, 1961.

74) Рахматуллаев Ш. Узбек тилининг изохли фразеологик лугати. – Ташкент: Укитувчи, 1978.

75) Ройзензон Л.И., Абрамец И.В. Совмещенная омонимия в сфере фразеологии // Вопросы языкознания, №2. 1969.

76) Ройзензон Л.И., Авалиани Ю.Ю. Современные аспекты изучения фразеологии// Проблемы фразеологии и задачи её изучения в высшей и средней школе. Вологда, 1967.

77) Рахштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. М.: Высшая школа. Москва, 1982

78) Рахштейн А.Д. сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. М.: Высшая школа. Москва. 1980.

79) Семенов А.В. Этимологический словарь русского языка. Русский язык от А до Я. М.: ЮНБЕС. Москва, 2003.

80) Stoyanova, Inga. “Semantic Aspects of English Body Idioms.” Diss. IRIM Chisinau, 2009. Print.

81) Stevenson R.L. Treasure Island. ch VII –London. copyright @ 2013. – 548p

- 82) Stevenson R. Kidnapped. Ch.III. Foreign Languages Publishing House. Moscow. 1954.
- 83) Suchachova N.S. *Idioms of Speech and Ways of Teaching Them to Students.*// Лінгвістичні та методичні проблеми навчання мов як іноземної – Полтава, ПІЕП, 2006.-стр. 178-180.
- 84) Sadriddinova M. Z. “O’zbek maqol va matallari leksikasi”, - T.: 1985.
- 85) Salomov G’. Maqol va idiomalar tarjimasi. -T.: 1961.
- 86) Sarimsoqov B. Maqollar haqida//O’zbek xalq maqollari. -T., 1978.
- 87) Soatov B.A. Maqollarda structural barqarorlik va semantic evolyutsiya.//O’zbek tili va adabiyoti,1989.
- 88) Tabossi, Patrizia, and Francesco Zardon. “The Activation of Idiomatic Meaning in Spoken Language Comprehension.” *Idioms: Processing, Structure and Interpretation*. Ed. Cristina Cacciari. New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, Inc., 1993. 145-162. Print.
- 89) Телия В. Н. Что такое фразеология. - М.: Высшая школа, 2001.
- 90) Телия В.Н. О типах и способах фразеобразования (в его коммуникативно-функциональном аспекте описания) // Проблемы русского фразеобразования. – Тула, 1973. – С. 25-43
- 91) Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М., 1988.
- 92) Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Языки русской культуры,1996. – 288 с.
- 93) Тимеа Ч. Соматические фразеологизмы в русском и венгерском языках: дис. ...канд. филол. наук. – М.,1999. – 131 с.

- 94) Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., 1996.
- 95) Tairbekov B.T. Maqol va matallarning tillararo transpozitsiyasi; avtoref.
- 96) Телия В.Н. О вариантности слов и вариантности идиом // Труды СамГУ им А.Навои. Выпуск 178. Вопросы фразеологии III. – Самарканд, 1978. – С. 172-188.
- 97) Вакк Ф.О. соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. Таллин, 1964.
- 98) Вакк Ф.В. О соматической фразеологии эстонского языка // Вопросы фразеологии и составления фразеологических словарей/Ф. Вакк. – Баку, 1968.
- 99) Шингаров Г. Х. Эмоции и чувства как форма отражения действительности. – М., 1971.
- 100) Шубина В.П. Заметки о полевой организации семантической фразеологии в немецком языке // Функциональный синтаксис немецкого языка. – Челябинск, 1977.
- 101) Чайко Т.Н. Названия частей тела как источник метафоры в апеллятивной и ономастической лексике // Вопросы ономастики, №8-9. – Свердловск, 1974.
- 102) Чердынцева Т.З. Метафора и символ во фразеологической единице // Метафора в языке и тексте. – М., 1988.
- 103) Черных П.Я. Историко-этимологический словарь современного русского языка. Т. I-II. - М.: Русский язык, 1993.
- 104) Якобсон Р. Два аспекта языка и два типа афатических нарушений, в: Н. Д. Арутюнова (ред.), Теория метафоры, М., 1990, с. 126 - 132

- 105) Якимова Э.С. О соматической фразеологии марийского языка/ Э. С. Якимова // Вопросы марийского языкознания. – Йошкар-Ола, 1975.
- 106) Юсупов У. К. Проблемы сопоставительной лингвистики Тошкент, 1986
- 107) www.idiomconnections.com
- 108) www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 yil.